

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA`LIMI
VAZIRLIGI
AJINIYOZ NOMIDAGI NUKUS DAVLAT PEDAGOGIKA
INSTITUTI
MAGISTRATURA BO`LIMI
TARIX KAFEDRASI**

Qo`lyozma huquqida
UDK _____

SAPAEVA GULASAL AZIMOVNA

**«Ellikqal`a va Beruniy tumani hududlaridagi tarixiy-
arxeologik va madaniy maskanlar tarixi: muammolar va
yechimlar»**

Mutaxassisligi: 5A140601 tarix o`qitish metodikasi

MAGISTR

akademik darajasini olish uchun yozilgan

DISSERTATSIYA

Ilmiy rahbar: t.f.d.,
dotsent Ya.A.Abdullaeva

Nukus-2014

MAKda himoya qilishga ruxsat berilgan

Magistratura bo`limi

boshlig`i: _____ tex.i.k., dotsent. B.Atashov

Kafedra mudiri: _____ t.i.k., dotsent A.Saribaev

Ilmiy rahbar: _____ t.f.d., dotsent Ya.A.Abdullaeva

Ajiniyoz nomidagi Nukus Davlat pedagogika instituti rektorining «____»
«_____» 2014-yil ____ sonli buyrug`i bilan himoya qilishga ruxsat
berildi.

**Ellikqal`a va Beruniy tumani hududlaridagi tarixiy-arxeologik va madaniy
maskanlar tarixi: muammolar va echimlar**

MUNDARIJA:

Asosiy qism

Kirish.....	4-7
I-Bob. Mavzuning manbaviy asoslari va tarixshunosligi.	
1.1. Ellikqal`a va Beruniy tumanlarini tarixiy arxeologik va madaniy o`rganilishinining manbaviy asoslari.....	8-42
1.2. Mavzuning tarixshunosligi.....	43-45
II-bob. Ellikqal`a va Beruniy tumanlaridagi tarixiy arxeologik qal`alar va ularning arxeologik jihatdan o`rganilishi.	
2.1. Ellikqal`a va Beruniy tumanlaridagi tarixiy-arxeologik maskanlar haqida afsonalar.....	46-54
2.2. Ellikqal`a va Beruniy tumanlaridagi tarixiy obidalarining arxeologik jihatdan o`rganilishi.....	55-83
III-bob. Mustaqillik davrida davlatchilik tarixiga bo`lgan munosabatning ahamiyati.	
3.1. Mustaqillik davrida tarixga, ma`naviyatga, madaniyatga bo`lgan e`tiborning kuchayishi.....	84-88
3.2. Mustaqillik davrida Ellikqal`a va Beruniy tumanlarining rivojlanishi.....	89-100
Xulosa.....	101-103
Ilovalar.....	104-109
Adabiyotlar ro`yxati.....	110-112

Asosiy qism

KIRISH.

Mavzuning dolzarbligi. O'zbekiston davlati mustaqillikka erishgandan keyin Vatanimiz, ona tilimiz, madaniyatimiz, qadriyatlarimiz, eng muhimi, o'zligimizni anglash baxtini berdi. Ayniqsa, avlodu ajdodlarning, kelib chiqishini, ularning nasl-nasabi, yashagan davri, hayotda tutgan o'rnini bilishga intilish, yurtning qadim tarixini e'zozlashga zaruriyat borligini ham ko'rsatdi. Ushbu jihatlar ham mazkur mavzuning dolzarbligini ko'rsatadi.

Respublika Prezidenti Islom Karimovning bir guruh tarixchilar bilan 1998 yildagi uchrashuvi, Vazirlar Mahkamasining «O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Tarix instituti faoliyatini takomillashtirish to'g'risida»gi, 1998 yil 27 iyul qarori zarur metodologik asos bo'ldi. Prezidentimizning «Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q» asari esa, tarixiy xotira va ma'naviy hayot masalalarini qamrab olgan tarix fanining ijtimoiy, siyosiy hayotdagi haqiqiy o'rnini ko'rsatishga yordam berdi. Boshqa bir asarida Prezident Islom Karimov: «Millatni asrash kerak, millatni asrash uchun esa uning haqiqiy tarixini o'rganish, avaylab himoyalash kerak»¹ - deb qayd etar ekan, tarix fanining jamiyat hayotidagi ahamiyatini yanada chuqurroq idrok etishga da'vat qildi.

O'zbekiston hududlarida ilk davlatchilik asoslarini yuzaga keltirgan tarixiy shart-sharoitlar va davlatning kelib chiqish masalasini atroflicha tadqiq etish va aniqlash tarix fani oldidagi eng muhim vazifalardan biri sifatida belgilab berildi.

Ellikqal'a va Beruniy tumanlari tarixini o'rganish davlatchilik tarixini o'rganishda alohida ahamiyatga egadir. Ushbu tumanlar tarixini o'rganish bevosita eng qadimgi yozma manbalardan biri «Avesto» bilan bog'liqdir.

Tarixiy meroslarimizdan biri «Avesto» haqida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov o'zining «Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q» asarida o'zbek davlatchiligi tarixiga, millatning kelib chiqishi masalalariga e'tibor qaratish bilan

¹ Каримов И.А. Ўз келажигимизни ўз қўлимиз билан қурмоқдамиз., «Туркистон» газетаси мухбирининг саволларига жавоблар. –Т., «Ўзбекистон». -1999, -Б. 16.

birga, eng qadimgi yozma manbalardan biri «Avesto»ga to'xtalib, u «qadim o'lkada buyuk davlat, buyuk ma'naviyat, buyuk madaniyat bo'lganidan guvohlik beruvchi tarixiy hujjatdirki, uni hech kim inkor etolmaydi»², - deb yuksak baho bergan.

«Avesto»da esa, Qadimgi Katta Xorazm haqida qiziqarli ma'lumotlarni uchratamiz. Xorazm davlatining poytaxtlaridan biri esa, Fir, keyinchalik Kat, Shabbaz, undan keyin shu o'lkada tug'ilib o'sgan buyuk alloma Abu Rayxon Beruniy nomi bilan atala boshlagan, muqaddas zamin tarixini o'rganish zarurligi bilan ham mavzuning dolzarb ekanligini ko'ramiz.

Ellikqal'a va Beruniy tumanlarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi sohalariga kiradigan tarmoqlar, shuningdek aholiga xizmat ko'rsatish faoliyatining ko'pgina turlarini qamrab olganligi, xududiy jihatdan, shuningdek sifat va samaradorlikning yuqoriligi bilan ham ajralib turadi.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishganiga 22 yil bo'ldi. Xalqimizning qadim va ulug' tarixi oldida 22 yil juda qisqa, kiprik qoqguchalik lahzadir, ehtimol. Biroq mana shu qisqa vaqtda, aytish joizki, tarixiy fursatda dunyo ko'z ungida buyuk bunyodkorlik, yaratuvchanlik ishlarini amalga oshirildi. Kun sayin, yil sayin yurtimiz qiyofasi go'zallashib borayapti. Nainki viloyatlarimiz, balki tumanlarimizning ko'rinishi kechagi istibdod davridan keskin farq qiladi³.

Ellikqal'ada iqtisodiyotning barcha turlari ravnaq topib, o'sib borayotgani, iqtisodiy yutuqlarga keng yo'l ochilganligi sababini bu tumanlarda ma'naviyatga yuksak darajada e'tibor berilayotganligi, ma'naviyatning qadrlanayotganidan deb bilmoq kerak. Mazkur tumanda olis tariximiz ildizlariga tutash yuzlab qal'alarning bugungi ko'rinishi saqlanib qolgan. O'tmishimizdan bebaho ma'lumotlar beruvchi bu qal'alarga boqib, Ellikqal'a va Beruniy ham mamlakatimizning ochiq muzeyi deyishimiz mumkin.

Prezidentimizning xalqimiz ma'naviyati, ruhiyati, bir so'z bilan aytganda madaniyat sarchashmasi-adabiyoti va san'atiga e'tibor qaratib kelgani va qaratayotganini ikki tuman-Beruniy va Ellikqal'a tumanlari misolida ham ko'rishimiz mumkin.

² **Қаранг:** Каримов И.А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ. Т. Шарқ. 1998. -Б.14.

³ Эллиққалъа. Ўзбекистон Республикаси мустақиллигининг 12 йиллигига бағишланади. // Бўстон шаҳри, 2003 йил, августъ. -Б.3

O'zbekiston va Qoraqalpog'iston xalq yozuvchisi Tulepbergen Qaipbergenov shunday degandi: «Ellikqal'a deganda nafaqat qoraqalpoq, balki butkul Xorazm, turkiyzibon xalqlarning tarixi ko'z oldimga keladi. Sababi, Ellikqal'a barcha turkiyzabon xalqlarning asosiy markazlaridan biri bo'lganini tarix tasdiqlaydi».

Bu yurt tuprog'idagi azaliy qal'alar-Fil qal'a, Kat qal'a, Qizilqal'a, Burgutqal'a, Qumbosganqal'a, Uyqal'a, Quyqirilganqal'a... va hakoza qal'alar bugungi davrga kelib yana qaytadan o'z shon-shavkatini tikladi. Qadim qal'alarga shukuh qaytdi. Ellikqal'a bugungi kunda ozod yurtimizning musaffo va tiniq osmoni ostidagi ochiq muzeydir. Tarix ulmaydi, tarix millatning mangukka bitilgan nomi, degan so'z qanchalik aniq aytilganligiga iymon keltiradi, kishi.

Mazkur mavzu hozirgi davrda tarixni o'rganish, iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanish va yo'nalishlarni aniqlash, ishlab chiqarish jarayonlarini aniqlab beruvchi tarixiy, iqtisodiy-geografik tadqiqotlar zaruriyat bo'lib qolayotganligi bilan ham dolzarbdir. Bunday tadqiqotlarni amalga oshirish o'ta dolzarbdir.

Shu bois ham Ellikqal'a va Beruniy tumanlari tarixini o'rganishga jazm qildik.

Tadqiqotning maqsad va vazifalari. Ishning maqsadi Ellikqal'a va Beruniy tumanlarining joylashuvi, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi bilan birga tarixiy maskan esanligini ta'riflash bilan birga, yoshlar qalbida o'z davlati va buyuk tarixga ega Vatani bilan g'ururlanishni paydo qilish, uni asrab-avaylash kerakligini ham eslatish maqsad etib belgilandi. Unga oid faktlarni kengroq tahlil qilish va shu asosda xulosalar bildirishdan iborat. Shu munosabat bilan mazkur ish oldiga quyidagi vazifalar qo'yiladi:

- Ellikqal'a va Beruniy tumanlarining tashkil etilishi, joylashuvi, ijtimoiy-iqtisodiy imkoniyatlarini o'rganish;
- Ellikqal'a va Beruniy tumanlarining tarixiy joylari haqida ma'lumotlar berish;
- Ellikqal'a va Beruniy tumanlarining mustaqillik davridagi iqtisodiy rivojlanishini izohlab berish;
- Ellikqal'a va Beruniy tumanlarida ta'lim tizimi, aholisining ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli yoritib berish.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi. Buyuk davlatchilik tariximizga nazar solish, mustaqillikning afzalligi, xalqning bunyodkorlik harakatlarini ko`rsatish bilan birga unga tegishli qiziqarli ma`lumotlarni o`quvchilarga etkazishga harakat qilindi.

Tadqiqotning bajarilish usullari. Tadqiqotning ilmiy-uslubiy asoslarini belgilashda tavsifiy usuldan foydalanildi. Bundan tashqari butun mavzuni yoritish jarayonida ko`plab o`rinlarda qiyosiy uslubga ham murojaat etildi.

Tadqiqotning nazariy-amaliy ahamiyati. Tadqiqot maktablar va oliy o`quv yurtlari darsliklariga kiritilmagan ma`lumotlarni bera olishi bilan ahamiyatlidir. Ushbu tadqiqot oliy o`quv yurtlari talabalarini qo`shimcha ma`lumotlar bilan ta`minlashda amaliy yordam beradi.

Tadqiqotning tarkibiy tuzulishi. Ish kirish, uch bob, olti paragraf, umumiy xulosalar, ilovalar va adabiyotlar ro`yxatidan iborat.

I-BOB. MAVZUNING MANBAVIY ASOSLARI VA TARIXSHUNOSLIGI.

1.1. Ellikqal`a va Beruniy tumanlarini tarixiy arxeologik va madaniy o`rganilishining manbaviy asoslari.

Antik mualliflar qadimgi Xorazm qal`alari to`g`risida deyarli hech qanday ma`lumot qoldirishmagan. Baktriya bilan Sug`d mudofaa inshootlari to`g`risida Aleksandr yurishlari tarixi bilan bog`liq, mazmunan xilma-xil materialga ega bo`lsak, olis Xorazmning faqat qadimgi davri emas, balki ilk o`rta asrlar davri ham, to arab fathiga qadar, biz uchun deyarli butunlay qorong`u.

Biroq Xorazmning qadimgi harbiy arxitekturasini tavsiflash uchun deyarli hech qanday material bermaydigan fors bitiklarida, Avestoda va paxlaviy diniy adabiyotida, grek-lotin, xitoy va arman manbalarida ba`zi-ba`zida Xorazm nomi uchraydi.

Xorazm ilk marta Doro I ning Bixistun kitobalarida (mil. avv. 520 yilga yaqin) va Avestoda (Mehr-Yasht V1.X.14) eslatiladi. Gekatey Miletskiyda ham Xorazm haqida ma`lumot bo`lib, u Xorasmiyani parfiyaliklardan sharkda joylashgan Xorasmiya viloyatidagi yagona shahar sifatida tilga oladi (P`yankov, 1972, 3-4-betlar).

Gerodot ma`lumotlariga ko`ra (III, 89), Xorazm parfiyaliklar, sug`dlar va areyalar bilan birga XVI satrapiyaga kirgan va Doroga 300 talant xiroj to`lagan. Xorasmiyaliklar Kserksning Gretsiyaga yurishida ishtirok etishgan (V, 11, 21).

Xorazm mil. avv. IV asrda mustaqil davlat sifatida voqea bo`ladi. Qadimgi mualliflar (Kvint Kurtsiy va Arrian) Makedoniyalik Aleksandr Baqtrada qishlayotganida (mil. avv. 329-328 yillar) kolxlar va amazonkalarga qarshi ittifoq tuzishni taklif qilib, 1500 otliq bilan kelgan Xorazm podshosini ham eslatib o`tishadi. Kvint Kurtsiy ma`lumotiga ko`ra (VIII, 1, 8), Aleksandr bilan uchrashgan Xorazm podshosining ismi Fratafen (Arrian bu podshoni Farasman deb yozgan) bo`lgan. «Farn» so`zini o`z ichiga oluvchi ismlar keyingi davrlarda ham bo`lgan (Rapoport, 1977, 66-bet).

Mil. avv. II asrga oid xitoy manbalarida Yuegyan` eslatiladi, ayrim tadqiqotchilar buni Urganch bilan aynan, deyishadi.

Arabnavis geograf olimlardan Istaxriy (1029-1087 yillar atrofida), Ibn Havqal (X asr), al-Muqaddasiy (947-1000) va boshqa mualliflar asarlarida Xorazmning qadimgi shaharlari haqida uzuq-yuluq ma`lumotlar uchraydi.

XIII asrda yashagan taniqli geograf Yoqut Xorazmning qadimgi poytaxti haqida birinchilardan bo`lib yozgandi: Uning (Xorazmning) poytaxti Darjash edi, u vayron bo`lgach, kishilar unga yaqin joyda Xorazmiya Kasi deb ataladigan boshqa (shahar) qurishdi (MITT, 1939, 183-bet). Istaxriy ham Darjashni eslatib o`tdi (MITT, 1939, 181-bet).

Aleksandrda so`ng 660 yilda Afrig` al-Fir ichida o`z qasrini qurganligini Beruniy eslatib o`tdi. Yil hisobini undan (Afrig`dan) va uning avlodlaridan olib borishadi.

Al-Fir Xorazm shahri yaqinida loydan va xom g`ishtdan qurilgan, birining ichida biri joylashgan, biri biridan baland uch devor bilan o`ralgan, xuddi Yamandagi Gumdan Tobblar qarorgohi bo`lgan paytdagi kabi, podsholarning barcha qasrlaridan a`lo bo`lgan. Al-Fir o`n mill va undan olisdan ham ko`rinib turgan (Beruni, 1957, 48-bet). Bu shahar Istaxriy, Muqaddasiy va boshqa mualliflar asarlarida [MITT, 1939, 178, 186-betlar] ilk o`rta asrlardagi Xorazm poytaxti sifatida eslatib o`tiladi. Ibn Rust 913 yillarga yaqin Katni Xorazm shahri sifatida eslatib o`tdi. 921-922 yillarda Bag`dod xalifasining Bulg`oriyaga yuborgan elchilari kotibi Ibn Fadlon Katda bo`lgandi. U Xorazmga Buxorodan daryoda suzib kelgandi. Kat haqidagi ma`lumotni X asrda yashagan Istaxriyda ham uchratamiz.

XII-XIV asrlarda arab mualliflari tomonidan yaratilgan geografik ma`lumotnomalarda asosan avval mavjud bo`lgan asarlar qayta sanab o`tilgan. Yoqut, Rashiduddin, Juvayniy, Ibn Battuta va boshqalar mo`g`ullar hukmronligi davridagi eng mashhur mualliflar edi.

Ma`lumki, O`rta Osiyoga kelgan G`arbiy evropalik dastlabki sayyohlar Papa tomonidan yuborilgan elchilar va savdogarlar edi. Ulardan Plano Karpini, Gil`om

Rubruk, aka-uka Polo-Nikkolo va Maffeo, Marko Polo (Nikkoloning o'g'li), Gonsales Klavixo va boshqalar Xorazm tabiati, iqtisodiyoti va shaharlari (Gurganj) haqida ma'lumot qoldirishgan. Ingliz Antoni Jenkinson ma'lumotlari ham Xorazmning qadimgi obidalari haqida G'arbiy evropaliklar qoldirgan ilk ma'lumotlar sirasidandir. U 1558 yidda qadimgi Vazir (Devkeskan) shahrida Xorazm hukmdori qabulida bo'lgan.

Shunday qilib, antik hamda qadimgi forsiy manbalarda Xorazm viloyat va markaziy shahar sifatida qayd etiladi. Biroq bu jihatdan mahalliy toponimlar manzilgoh va shaharlarni tadqiq etishda qimmatli manba bo'lishi mumkin. Xorazm shaharlari ko'pchiligining nomi ular juda qadimgi ekanligini ko'rsatadi va ular haqida istehkomli joy sifatida tasavvur uyg'otadi. Chunonchi, qadimgi forsiy yozma manbalarda uchraydigan Xorazm nomining o'ziyoq «yaxshi mustahkamlangan mamlakat» («yaxshi istehkomli mamlakat»), «manzilgohlari istehkomli er», «varlari yaxshi mamlakat» va h.k. ma'nolarni bildiradi. Yoki antik davrda asos solingan Sadvar, Nuzvar singari o'rta asrlar shaharlari nomida istehkomli joy sifatidagi tasavvur aks etgan (Bogolyubov, 1962, 368-370-betlar; Nerazik, 1981, 224-225-betlar).

Xorazmning qadimgi, o'rta asrlardagi va XVII-XIX asrlardagi yodgorliklari M.Alixanov-Avarskiy, I.V.Anichkov, Barbot de Marni, Blankennagel, F.Baziner, M.N.Bogdanov, N.N.Vesslovskiy, A.I.Gerasimovskiy, V.V. Grigor'ev, De Gue, L.e.Dmitriev-Kavkazskiy, M.N.Ivanin, A.V.Kaul'bars, A.L.Kun, L.F.Kostenko, A.D.Kalmikov, A.M.Konshin, L.Kileveyn, N.N.Karazin, V.Loxtin, Mag-Gaxan, N.N.Murav'ev, A.I.Makashev, I.Muravin, Nikitin, A.Rossikova, K.G.Stoletov, Samoylovich, M.K.Skobelev va boshqa xorijiy sayyohlar, harbiy topograflar, geograf olimlar, etnog-raflar, geologlarning e'tiborini bir necha bor jalb etgan (Yusu-pov, 1979, 10-15-betlar; 1981, 3-13-betlar; 1982, 5-13-betlar; 1984, 3-8-betlar; 1986, 3-11-betlar).

Biroq XVII-XIX asrlarga oid ma'lumotlar ham uzoq-yuluq. Agar bir muallif biron-bir qadimgi yodgorlikni uning tashqi belgilariga qarab qisqacha tavsiflasa

(Barbot de Marni, Kilevey), boshqalari bu yodgorliklar to'g'risidagi afsonalarni keltirishadi (Vamberi, Rossikova, Gerasimovskiy va b.). Uchinchi birlari esa ularning joylashgan o'rnini eslatib o'tishadi (Dimo, Nikitin, Arxangel'skiy va b.) va h.k.

Xorazmning qadimgi shaharlari xarobalari haqida afsona va rivoyatlar juda ko'p. O'ng sohil antik obidalar xarobalarining ko'pchiligi xalq rivoyatlari qahramonlari obrazini yodga soladi. Masalan, podsho Baroq haqidagi afsonalar mil. III-IV asrlarga oid Baroqtom xarobalari majmui bilan bog'liq. Ushbu majmuadagi qasrda podshoning o'zi yashagan, boshqa qasrda esa uning ov qushi-ulkan burgut makon qurgan. Podsho shafqatsiz va qaysar bo'lgan. Kunlardan bir kun uning burgutini ko'rgani onasi-bahaybat afsonaviy Anqo qushi keladi. Baroq shu kuni ovga otlangan edi. A'yonlari unga buguncha ovga chiqmaslikni, burgutning g'ashiga tegmaslikni aytib, uni ovga chiqmaslikka ko'ndirmoqchi bo'lib befoyda urinishadi. Podsho ularning gapiga kirmaydi. Shunda haqoratlangan burgut uni oti bilan birga osmoni falakka ko'tarib, tashlab yuboradi. Baroqning jasadini qasrga dafn etishadi, viloyat huvillab qoladi. Shundan buyon karvonlar bu qarg'ish tekkan joyga kirmay, chetlab o'tishadi.

Yaxshi saqlanib qolgan kech antik Anqaqal'a ham afsonaviy qush Anqo nomi bilan bog'liq.

Rivoyatlarga ko'ra, xarobalari hozir Qirqqizqal'a nomi bilan mashhur bo'lgan, mil. avv. IV-III asrlarga oid shaharda bir paytlar qoraqalpoq dostoni «Qirqqiz»ning qahramoni malika Guloyim botir va uning qirq dugonasi yashagan. O'rta Osiyoda Qirqqiz nomi ostida ko'plab xarobalar (Marvda, Termizda) bo'lgan (Tolstov, 1948, 21-22-betlar).

Ayozqal'a 1 ning yuzaga kelishi to'g'risida qiziq afsona mavjud. Bu afsonaga ko'ra, qadimda Xorazm podsholaridan biri, o'z davlatini tashqi dushman hujumidan himoya qilish uchun, uning chegarasida katta qal'a qurishga qaror qilgan. Shu maqsadda, kimda-kim o'z davlatining shimoliy chegarasida dushman ololmaydigan ulkan qal'a barpo etsa, unga go'zal qizini xotinlikka berishini e'lon qilgan. Shu

paytlarda Ayozi ismli cho`pon bo`lib, qal`ani qurishga kirishgan. Afsonalarga ko`ra, qal`a qurilishiga qancha vaqt ketgani aniq ma`lum emas. Podsho so`zida turmay, qizini boshqa bir kishiga uzatadi. Bundan xabar topgan cho`pon Ayozi qurilishni to`xtatadi, shunday qilib qal`a bitmay qoladi. Bu o`rinda afsona bilan haqiqat bir-biriga mos keladi. Xalq rivoyatlarida bu qal`a Qirg`iz qal`ada o`zining qirg` dugonasi bilan yashagan malikaga xushtor bo`lgan qahramon qul Ayozi nomi bilan bog`lanadi.

1937-1939, 1946 va 1965-1968 yillarda olib borilgan arxeologik tadqiqotlar Ayoziqal`a qurilishi qandaydir sabablarga ko`ra chala qolganini tasdiqladi.

Mard va dono bahodir qul Ayozi obrazi-O`rta Osiyo turkiy fol`klorining qadimgi obrazlaridan biri. Ushbu afsona variantlaridan birida mazkur obraz Orol dengizining paydo bo`lishini, Amudaryoning Ustyurt o`zanining tugab bitishi va qadimgi Xorazmning yuzaga kelishini oldindan belgilab bergan afsonaviy voqealar bilan bog`lanadi. Shu rivoyatga ko`ra, avvalgi paytlarda Orol bo`lmagan, Sirdaryo bilan Amudaryo esa, qo`shilib, Lavzan, Ko`hna Urganch va Aybug`ir orqali Kaspiyga borib quyilgan.

Ilgari Orol dengizi o`rnida adag` xalqi yashagan, u erda shafqatsiz va xiyonatkor Fosilxon hukmronlik qilgan. O`zboy bo`yi hududida esa boysin xalqi istiqomat qilgan. Bu xalqqa donoligi va odilligi bilan nom chiqargan Ayoziqal`a hukmdorlik qilgan.

Bir avliyoning qizi nomusiga tekkan Fosilxonning dahshatli jinoyati uchun avliyo uni duoibad qiladi, oqibatda Fosilxonning butun saltanati suv ostida qoladi. Shu joyda Orol dengizi paydo bo`lib, ikki azim daryo unga quyila boshlaydi. Daryolarning qo`shilgan o`zani qurib, Boysin xalqi Ayoziqal`a boshchiligida Xorazmga ko`chib boradi va Urganch deb nomlangan podsholikka asos soladi (Nesterov, 1900, 95-100-betlar). Ayozi obrazi mavjud bo`lgani to`g`risida-gi muhtasir ma`lumotni Mahmud Koshg`ariyning XI asrda yaratilgan «Devonu lug`otit turk» asaridayoq uchratamiz. Unda yozilishicha: «Ayozi-qal`aning ismi». Qul Ayozi obrazi XVII asrda, Abulg`oziyning «Shajarai tarokima»sida ham uchraydi.

Katta Guldursun xarobalari ham afsona va rivoyatlarga chulgʻangan. Yaqin kunlarga kishilar orasida bu qargʻish tekkan er, qalʼada ajdar tomonidan qoʻriqlanadigan erosti yoʻli bor, Guldursunning behisob boyligini izlamochi boʻlgan har qanday kishi halok boʻladi, degan gap yurardi. Qalʼaning paydo boʻlishi toʻgʻrisida ham har xil afsonalar mavjud.

1909 yilda podsho Rossiyasi mustamlakachi maʼmuriyati Amudaryo boʻlimi amaldori A.I.Gerasimovskiy Katta Guldursunga boradi. U qalʼaning tavsifini va Guldursunning paydo boʻlishi toʻgʻrisida volost boshligʻi Sodiqboydan eshitgan afsonani yozib qoldiradi. Rostmi yoki yolgʻonmi, bilmadimu, deb yozadi u, lekin qariyalar hikoya qili-shicha, qalʼa Eron shohi Hasan tomonidan quyidagi voqea munosabati bilan barpo etilgan. Kunlardan bir kun lochinlar bilan jayrop oviga chiqqan Hasan goʻzal yahudiy qizni uchratib qoladi. Uning ismi Zuriya boʻlib, boshqalar Malika deb chaqirisharkan. Zuriya otasidan qochib borayotgan ekan. Hasan qizni oʻzi bilan olib ketibdi va unga uylanmoqchi boʻlibdi. Biroq qiz, qalʼa qurib berasan, deb shart qoʻyibdi. Shoh uning istagini bajo keltirib, qalʼa barpo qilibdi, qalʼaning oʻrtasiga esa yosh xotiniga atab ustun oʻrnatibdi. Unga Gul-Sutun (Gulustun) deb nom berishibdi. Qalʼani ham shu nom bilan atay boshlashibdi. Vaqt oʻtib, bu nom buzilib, Guldursunga aylanib ketibdi. Katta Guldursun, toʻgʻrirogʻi, Gul-Sutun qalʼasi uncha baland boʻlmagan sunʼiy koʻtarma yoki tepalikda joylashgan. U 100 kvadrat sajen maydonni egallaydi. Qalʼa uch qator devor bilan oʻralgan. Har tarafida uchtdan burji bor: shundan ikkitasi ikki chekkada, bittasi oʻrtada joylashgan. Qalʼa katta oʻlchamli pishiq gʻishtdan koʻtarilgan. Hovlisini deyarli devor tepasigacha qum barhani bosgan. Qalʼaga sharq tomondan kiriladi, darvozaning ikki yonida qorovulxona boʻlgan burj joylashgan. Devor ustida va burjlarda shinaklar boʻlib, ulardan devor yoqalab kelayotgan yovni oʻqqa tutish mumkin (Gerasimovskiy, 1909, 971-973-betlar).

Afsonaning qoraqalpoq olimi U.Kojurov tomonidan yozib olingan ikkinchi variantida qalʼaning nomi «Guliston» deyiladi (Tolstov, 1951, 172-173-betlar). Rivoyatlarga koʻra, bu tevarak-atrofi gullab-yashnagan va suvga maʼmur boy shahar

boʻlgan. Shaharda Guldursun ismli goʻzal qizi boʻlgan qari podsho hukmronlik qilgan. Shu farovon shahar boshiga musibat tushadi-choʻl tomondan qalmiqlar yoʻl-yoʻlakay hamma yoqni vayron qilib, bostirib kelishadi. Qalmiqlar serhosil dalalarni va soʻlim bogʻlarni payhon qilib, shaharni qamal qilishadi. Aholi shaharni mardona mudofaa qiladi, uning qarshiligini engishga dushmanning kuchi etmaydi. Shu taxlit oylar oʻtadi, shunda yanada dahshatliroq yovochlik bosqinchilarga koʻmakka keladi. Shaharliklarning bor-budi tugaydi. Kishilar koʻchalarda jon bera boshlaydilar. Safi siyraklashgan mudofaachilar majolsiz qoʻllarida qurolni bazoʻr tutib turishardi. Shunda podsho sarkardalar va aʻyonlarni maslahatga chaqirdi.

Kelganlardan biri omon qolishning soʻnggi chorasini sinab koʻrishni taklif qiladi. Bu juda ayyorona reja edi. Qamaddagi gulistonliklar qasrga yaxshi boqilgan buqalardan bir nechtasini keltirishadi, shoh omboridagi qolgan-qutgan donning hammasini ularga edirib, shahar darvozasidan tashqariga chiqarib yuborishadi.

Ochlik qamaldagilarnigina emas, qamal qiluvchilarni ham azoblayotgan edi. Qalmiqlar koʻp oylik qamal davomida atrofdagi esa boʻladigan bor narsani eb bitirishgan, dushman qarorgohidagilar qamalni toʻxtatishni xayol qila boshlashgan edi. Och-nahor qalmoqlar buqalarni tutib soʻyishsa, oshqozoni toʻla sara bugʻdoy doni chiqadi. Buni koʻrib, yov sarosimaga tushadi: «Molni shunaqa don bilan boqishsa, zaxirasi koʻp ekanda! -deb gʻala-gʻovur koʻtarishadi jangchilar. Qamal befoyda, shaharni qoʻlga kiritib boʻlmaydi, ochdan oʻlmasimizdan ketishimiz kerak». Qalmiqlarning sarkardalari ham shu qarorga kelishadi. Qarorgohda ortga qaytishga taraddud koʻrila boshlanadi.

Lekin podshoning qizi Guddursun boshqacha yoʻl tutadi. U koʻp oylar davomida shahar devoridan qalmiqlarning sardori, yosh, xushsurat, jasur, pahlavon yigit-qalmiq shahzodasini kuzatib yurgandi. Qalbi oʻz xalqining dushmani sardoriga nisbatan ehtiros bilan toʻlgandi. Qamaldagilarning ayyorligi ish berganini, dushman qarorgohini ortga qaytishga tayyorlanayotgan tuyalarning oʻkirishi toʻldirganini, qalmiqlarning son-sanoqsiz oʻtovlari yigʻishtirilib, koʻzdan gʻoyib boʻlayotganini koʻrgan, bir necha soat ichida ulardan asar ham qolmasligiga va xushsurat

shahzodani qayta ko`ra olmasligiga aqli etgan qiz sodiq kanizagidan qalmiq pahlavoniga ehtirosiga to`la maktub yozib: «Yana bir kun sabr qilsang, shahar taslim bo`lishining guvohi bo`lasan», deb qamaldagilarning sirini ochadi.

Qalmiqlar tuyalardan yuklarini tushirishadi, tunlari yana shahar tashqarisida son-sanoqsiz gulxanlar yoqiladi. Tong otgach, ochliqdan sillasi qurib, ular holatga kelib qolgan gulistonliklar ayyorliklari o`tmaganini, yov shaharni yanada qalinroq qurshab olganini ko`rib, taslim bo`lib, o`zlarini dushmanning shafqatiga topshirishadi.

Shahar talon-toroj qilinib, o`t qo`yiladi, aholining bir qismi qirib tashlanadi, bir qismi qul qilib olib ketiladi. Xoin Guldursunni shahzodaning huzuriga keltirishadi. Shahzoda qizga bir qaraydida: «Dushmanga bo`lgan benomus hirs tufayli vata-niga, xalqiga va o`z ota-onasiga xiyonat qilgan qiz, agar kimdir yana uning qalbiga o`t solsa, menga nisbatan qanday ishlar qilarkin? Boshqa hech kimga xiyonat qilmasligi uchun uni ayg`irlarning dumiga bog`lab haydang», -deydi.

Otlar sudragan Guddursunning tanasi mayda-mayda bo`lib, butun dalaga sochiladi. Xiyonatkorning qarg`ish tekkan qoni yuqqan bu joy huvillab qoladi va uni Guliston emas, Guldursun deb atay boshlaydilar.

Ushbu fojiali rivoyatda tarixiy haqiqat zarrasi bor. O`rta Osiyo xalqlari rivoyatlari zahirida qalmiq deb yuritiladigan, XVII-XVIII asrlarda Qozog`iston va O`rta Osiyo bo`ylab qilich o`ynatib ot surgan va hamma yoqqa o`t qo`ygan shafqatsiz istilochilar nomi ostida XIII asrdagi yanada quturgan istilochi Chingizxon mo`g`ullari yashiringan. Bizning kunlarda qaytadan yashnayotgan Guldursun dalalarida ayni mo`g`ullar hujumi davrida hayot so`nadi.

Xalq orasida yurgan mish-mishlar Devkesgan qal`asi tarixini ishq-muhabbati Sharqda doston bo`lgan afsonaviy Farhod va Shirin bilan bog`laydi. Devkesgan shahristonida, noma`lum binolar xarobalari orasida ikkita nomsiz maqbara qad ko`tarib turadi. Ularning har birining ichida ikkitadan sag`ana bo`lib, mahalliy aholi shu maqbaralardan qay birigadir Farhod va Shirin ko`milgan, deb hisoblaydi. Afsonaga ko`ra, burun o`tgan zamonda Daryoliq va Sariqamish viloyatlarida

qudratli Adhamshoh hukrmonlik qilgan. Uning Shirin ismli go`zal qizi bo`lib, toshkesar Farhodning sevgisiga javoban unga qattiq ko`ngil qo`ygandi. Bu ikki yoshning qovushishini aslo istamagan va ayni mahalda suyukli qiziga to`g`ridan-to`g`ri rad javobini berib, kuydirishni xohlamagan Adham-shoh qizini Ustyurt qoyalarini kesib, xandaq ochgan va istehkom qurgan kishiga berishini e`lon qiladi. Garchi Farhod usta toshkesar bo`lsa-da, bu ish yolg`iz uning qo`lidan kelmasdi. Biroq Shirin ayyorlik qiladi: kunduzi Farhod tog` qazisa, tunlari Shirin minglab qullarini shu ish bilan shug`ullanishga majbur qiladi.

Ma`lum vaqt o`tgach, qal`a va xandaq tayyor bo`lgani haqida Adhamshohga xabar berishadi. Hayratga tushib, g`azabga mingan shoh bu ish bo`lishi mumkin emasligini, bunda qandaydir qing`irlik borligini, qal`ani qurish odamning ham, devning ham qo`lidan kelmasligini aytadi. Shunga qaramay, va`daga vafo qilish lozim edi. Shirinni oddiy fuqaroga berishni istamagan shoh ham nayrang ishlatishga kirishadi: tunda mingta qulga xandaqning bir qismini chuqur qilib qazitadi. Ertalab esa Shiringa: «Ko`rdingmi, bugun tunda sen sevgan Farhod ishlamadi, ishni dev bajardi. U-yolg`onchi, seni unga bermayman», -deydi. Hijronga chiday olmagan Farhod vafot etadi. Qal`aning nomi-«Devkesgan» shundan kelib chiqqan. Farhodning ortidan Shirin ham o`ladi. Shaharning janubiy qismida Ustyurt jarligi yoqasida yonma-yon joylashgan ikki maqbara shu ikki sevishganlarniki, deb hisoblanadi (Pugachenkova, 1963, 315-bet). Aslida Devkesgan yoki Vazir mil. avv. IV asrdan mavjud bo`lgan va uning sanasi Xorazmning ilk tarixi, Amudaryo Sariqamishbo`yi mansabiga qaytgan vaqt bilan belgilanadi. Bu qal`a-shahar o`sha davrdagi Xorazmda amal qilgan harbiy istehkomlar qurishning barcha qoidalari asosida bunyod etilgan, bunda shaharning mudofaa nuqtai nazaridan strategik joylashuvi ham, sug`orish tadbirlari bilan bog`liq dehqonchilik muammolari ham hisobga olingan. Shuning uchun ham Devkesgan daryoning so`l sohi-lidagi viloyatda, tepalik qoddig`i ustiga qurilgan.

Qoyani kesib, suvga yo`l ochaman, deb urinib, vafot etgan Farhod, sevgilisiga jon fido qilish uchun bu erga maxfiy ravishda kirgan Shirin haqidagi rivoyatlar bor-

yo`g`i romantik mubolag`a, samimiyatga va sof tuyg`uga boy go`zal bir afsonadir. Biroq vaqt ham, hijron ham so`ndirolmaydigan shunday kuchli va mag`rur tuyg`uni taqdir baxsh etishiga umid bog`lab, o`zlari bilmagan kishilar xokini tavof qilish uchun kelayotgan ko`plab kishilarni Devkesganga shu afsona jalb etmokda. Afsonalarga chulg`angan olis o`tmishda shahar vayron bo`lgan, unda hayot asta-sekin so`ngan. Faqat o`zida dafn etilgan kishilar sirini avaylab saqlab kelayotgan maqbaralargina qolgan. Maqbaralar ichida aylanma zinalar bo`lib, undan tomga ko`tarilsa, kishi ko`z o`ngida kamdan-kam ko`tariladigan quyungina jon baxsh etib turadigan so`ngsiz manzara ochiladi.

Devkesgan bilan bog`liq afsona ilk bor VII asrda, Eron arablar tomonidan fath etilmasidan oldin, Eron shohi Xusrav II Parvizning (590-628) malika Shiringa bo`lgan, sosoniylarning saroy solnomasida qayd etilgan muhabbati asosida yuzaga kelgan, deb hisoblanadi. Bu afsona Firdavsiyning «Shohnoma»siga ham kirgan.

Xalq orasida mazkur qahramonlar nomi bilan bog`liq har xil rivoyatlar yurgan. Biroq 1181 yilda Nizomiyni «Xusrav va Shirin» dostonida go`zal Shiringa oshiq bo`lib qolgan oddiy hunarmand, toshkesar Farhod obrazi yuzaga keladi. Bu qahramonning sevgisi javobsiz qoladi.

1483-1485 yillarda esa bu syujetga buyuk mutafakkir shoir Alisher Navoiy murojaat etadi. U «Farhod va Shirin» dostonida mazkur qahramonlar taqdirini bir-biriga bog`lab tasvirlaydi. Shundan so`ng Farhod va Shirin to`g`risidagi xilma-xil sharq afsonalarida ularning ilohiy ishq-muhabbati kuylana boshlaydi.

Ushbu sharq dostonlarining tarixiy va geografik voqeligi O`rta Osiyo va qisman Kavkazortining birmuncha katta hududi bilan bog`langan. Shuning uchun voqealar bo`lib o`tgan joyni aniq belgilashning iloji yo`q. Farhod va Shirin haqidagi afsonaning ommalashib ketgani esa, unda bayon etilgan voqealar yuz bergan bo`lishi mumkin bo`lgan haqiqiy tarixiy joylar doirasini tabiiy ravishda yanada kengaytiradi. Ushbu afsona mifologik asosga egaligi ko`rinib turadi. Ko`hna er osti ma`budi, quruvchilar va toshkesarlar piri bo`lgan Dev Farhod bu dostonida toshkesar va

me'mor xususiyatlarini o'zida saqlab qolgan adabiy qahramonning prototipi sifatida voqe' bo'ladi (Tolstov, 1948, 24-bet).

XX asr boshida Sulton Uvays tog'idagi Govur qal'aga borgan A.e.Rossikova qal'a to'g'risida quyidagi afsonani keltiradi. Qadimda Qipchoq shahrida Shish payg'ambar ismli bir taqvodor kishi yashagan, Uning go'zal xotini bo'lib, unga Govur ismli yosh, xushsurat bir boyning ishqiy tushib qoladi. Ayolning ham unda ko'ngli bor ekanu, biroq visolning iloji yo'q ekan. Govur o'ylab-o'ylab, yaqin oradagi tog'da qal'a bino qilib, undan ma'shuqasining huzuriga olib boradigan er osti yo'li (lahm) o'tkazmoqchi bo'libdi. Qal'a va lahm bitib, oshiq-ma'shuqlar bir-birilarinikiga borib kela boshlabdilar. Visol damlari ozmi-ko'pmi davom etibdi. Kunlardan bir kuni ayolning eri visol onlarining ustidan chiqib qolibdi. U g'azabga minib, Govurni o'ldirmoqchi bo'lib, unga tashlanibdi. Govur qanchalik yosh, kuchli bo'lmasin, taqvodor erni engi olmaydi. Qattiq charchagan oshiq, ko'mak so'ragandek iltijo bilan ma'shuqasiga boqadi. Ma'shuqa bu qarashning ma'nosini fahmlab, bir hovuch tariq olib, erining oyog'i ostiga sohib yuboradi. Shunda erining oyog'i toyib, cho'kkalab o'tirib qoladi, biroq sarosimaga tushmaydi. Xotini oshig'iga ko'maklashayotganiga ishonch hosil qilgan taqvodor kishi sevimli itini yordamga chaqiradi. It Govurga tashlanib, oyog'idan tishlaydi. Mo'ysafid yiqilgan Govurni o'ldiradi, so'ng bevafo xotiniga qarab: «Xo'jayinga yordam berishni itdan o'rgan», -deydi. Biroq, xotini pushaymonlik izhor etmay, hujrasiga kirib ketadi. G'azabiga chiday olmagan Shish payg'ambar xotinini ham o'ldiradi. Vafoti oldidan farzandlariga faqat tanasini ko'mishni, oyoqlarini esa kesib olib, tashlab yuborishni vasiyat qiladi. O'lgach, farzandlari otasi aytganidek ish tutishadi: tanasini ko'mib, oyoqlarini tashlab yuborishadi.

A.e.Rossikova yozganidek, Govur qal'aning yarmi buzilgan, imoratlar ham vaqt ta'sirida zararlangan, lekin umuman olganda, bu vayronalar hozirga qadar ham bir necha o'nlab odamlar panoh topgan dahshatli qal'adek taassurot uyg'otadi. Aftidan, istehkom podsho Rossiyasi Xivani bosib olgandan so'ng odamlar

tomonidan tark etilib, o`zining strategik ahamiyatini yo`qotgan bo`lsa kerak, deb yozadi tadqiqotchi (Rossikova, 1902, 641-643-betlar).

A.Vamberi tomonidan yozib olingan Chilpiq to`g`risidagi afsonada aytilishicha, bu qal`a otasining qulini sevib qolib, ota-ona roziligini ololmay, suygani bilan yashagan bir malikaning makoni bo`lgan ekan.

A.e.Rossikova Chilpiq qurilishi to`g`risida mahalliy aholidan eshitgan afsonani keltiradi: «Chilpiq qal`asini Chilpiq ismli bahodir bunyod etgan. Qal`a devorini qurishda uning qo`lidan loy tushib ketgan, xarobalari hozir ham tepalik yonbag`rida saqlanib qolgan baland minora ana shu loydan vujudga kelgan. Uning qal`a devorlari ichida qolgan yassi tepasi qoyador. Barcha qoyalar arab yozuvi, qandaydir ierogliflar va tushunarsiz chizmalarga to`la».

Xorazm arxeologiya ekspeditsiyasining xodimi etnograf G.P.Snesarev Chilpiq qal`asi to`g`risida yana bir afsonani yozib olgan. Quyida shu afsonani keltiramiz: «Dev Hoji Muluk Amudaryoning o`ng sohilidagi Chilpiq istehkomini qurgan. Dev devor urish uchun o`zining bahaybat qo`llari bilan loy tashigan: shunda barmoqlari orasidan bir tutam loy tushib qolgan va hozir devorning asosi sifatida, uning yonida yotibdi». Chilpiqda Hoji Muluk «yashagan» g`or joylashgan erdagi tepalikni hozir ham ko`rsatishadi. Chilpiq haqida yana bir afsona bo`lib, unga ko`ra qal`ani boshqa dev-Qoratin Alp qurgan. Mahalliy aholi orasida Chilpiqning funktsional nomi bilan bog`liq yana bir afsona yuradi. Bu afsona mazmunan yodgorlikning zardushtiy dahma sifatidagi asosiy funktsiyasini ochib beradi (32-surat).

Afsonada aytilishicha, «qadim zamonlarda qariyalarni tog` yoki baland tepa ustiga olib chiqib qo`yib kelishar ekan. Kunlardan bir kun yosh yigit qari otasini baland tog` ustiga olib chiqib qo`yishga qaror qilibdi. Yigitning ismi Chilpiq ekan. U tog` yonbag`ridan ko`tarilayotib, dam olish uchun o`rtadagi toshga o`tiribdi. Shunda otasi kulib yuboribdi. Yigit nechun kulasiz, men sizni tepada qoldirib ketaman-ku, deb so`rabdi. Otasi, men ham otamni shu yo`ldan olib chiqayotib, shu tosh ustida o`tirib dam olgandim. O`sha voqeani eslab kuldim, debdi. Yigit otasini qaytib olib tushibdi-da, yashirincha unga g`amxo`rlik qilib yuribdi. O`sha paytdagi

odatga ko`ra, bu ishi uchun yigitni o`lim jazosiga hukm qilishlari mumkin ekan. Bir muncha vaqt o`tgach, shu mamlakat podshosi betob bo`lib qolibdi. Butun mamlakatdan olib kelingan tabiblardan birontasi ham uni davolay olmabdi. Shunda yigitning otasi bir giyohning nomini aytib, shuning damlamasini ichsa, podsho davo topadi, deb maslahat beribdi. Yigit borib, podshohga giyohning nomini aytib, uning damlamasini ichsa shifo topishini aytibdi. Damlamani ichgan podsho chindan ham shifo topibdi. Shunda podsho yigitga, butun mamlakatdan chaqirilgan tabiblar meni davolay olishmadi, sen bu damlamani qaerdan bilarding, deb savol beradi. Yigit, bir qoshiq qonimdan kechsangiz, sirni ochaman, debdi. Podsho uning gunohidan o`tgach, yigit hammadan yashirincha otasini parvarish qilib kelayotganini aytibdi. Bu voqeani eshitgan podsho bundan buyon qariyalarni toqqa olib chiqib tashlamaslik va ularni umrlarining oxirigacha parvarish qilish to`g`risida farmon chiqaribdi». Bu afsona, aftidan, islomning yoyilishi bilan bog`liq bo`lsa kerak.

Beruniy shahri atrofida istiqomat qiluvchi aholi orasida tarqalgan rivoyatga ko`ra, Pil qal`a Hind sultoni Xorazmshohga tuhfa qilgan fillarni saqlash uchun Xorazm hukmdori tomonidan qurilgan. Qal`aning nomi shundan kelib chiqqan.

Toshhovuzdan (Turkmaniston) 40 km g`arbd joylashgan Ko`hnauaz qal`asiga asos solinishini xalq rivoyatlari (D.Durdiev guvohlik berishicha) to`rtinchi xalifa Ali hukmronlik qilgan davrda yashagan afsonaviy Sa`di Vaqqos nomi bilan bog`laydi. Sa`di Vaqqos payg`ambar Muhammad (a.s.) sahobalaridan bo`lgan Sa`d ibn Abi Vaqqos ismining o`zgargan shakli bo`lishi ham mumkin.

Xorazm va uning shaharlari tarixi bilan bog`liq rivoyatlar o`rta asrlarda ham ma`lum bo`lgan. Muqaddasiy «Ahsan at-taqosim fi ma`rifat al-aqolim» («Iqlimlarni bilib olishda eng yaxshi taq-simlashlar») asarida quyidagi afsonani keltiradi: rivoyat qilishlaricha, qadimgi vaqtda Sharq hukmdori o`z davlati a`yonla-ridan 400 kishiga g`azab qilib, ularni odam yashaydigan joydan 100 farsax nariga olib borib qo`yishni buyuribdi. O`sha joy hozirgi Kas (shahri) ekan. Bir qancha vaqt o`tgach, ulardan xabar olish uchun o`z kishilarini jo`natibdi. Ular borib ko`rishsa, odamlar tirik, chaylalar qurib olishgan, baliq ovlab kun ko`rishayotgan ekan. O`tin-cho`p ham

ko`p ekan. Ular qaytib kelib, bu haqda podshoga xabar berishibdi. «Ular go`shtni nima deb atashar ekan?»-so`rabdi pod-sho. «Xor» (yoki «xvar»),-deb javob berishibdi ular. «O`tinchi-chi?» «Razm», -degan javob bo`libdi. Shunda podsho: «Men o`sha erni ularga berdim va bu joyni «Xorazm» («Xvorazm») deb atadim», -debdi podsho. U erga 400 turkiy qizni olib borishni buyuribdi. Shuning uchun ular hozirgacha ham turkiylarga o`xshashar ekan (MITT, 1939, 185-186-betlar).

Yoqutda (XIII a.) Kat bilan bog`liq quyidagi qiziq materialni uchratamiz: Kat-Xorazmning qadimgi poytaxti. U Jayhunining sharqiy sohilida, Jurjoniyaning ro`parasida joylashgan. Uni suv bosgach, aholisi hozir yashab turgan joyga ko`chib o`tgan. Rivoyat qilishlaricha, Rasululloh Muhammad alayhissalom bu shaharni tunda olis masjidga qilgan sayohatlari chog`ida ko`rgan ekanlar, bu hozir me-ning qo`limda bo`lmagan matndagi rivoyatlardan. Rivoyat qilishlaricha, payg`ambarlik berilganining o`n ikkinchi yili rabi ul-avval oyida tunda Makkadagi ibodatxonadan Quddusi Sharifga borganlar, u erdan arshi a`loga ko`tarilganlar. Bu «Me`roj kechasi» deyiladiki, u Qur`oni majidda ham tilga olingan (XVII) (MITT, 1939, 435-bet).

**Katta Qirqqizqal`a shahristoni** Qoraqalpog`iston Respublikasi Ellikqal`a tumanidagi Buxan Merey shirkat xo`jaligi erlarida joylashgan (1-surat; 15-rasm). Bu-nayzasimon shinakla-ri bo`lgan ikki qavatli otish yo`lagi (eni 2,8-3 m) ni o`z ichiga oluvchi qo`shdevor bilan o`ralgan, burchaklari olamning to`rt tomoniga yo`nalgan (250 x 215 m) mustahkam shahristondir (15-rasm). Tashqi devorning qalinligi 2,8-3 m, ichkisini -1,6 m. Kvadrat shakldagi xom g`ishtdan (40-43 x 40-43 x 10-12) iborat, devor 3,35 m balandlikdagi uch paxsa poydevor ustiga ko`tarilgan. Ba`zi joylarda paxsa orasiga qamish to`shalgan. Devor bo`ylab to`g`ri burchakli, ikki qavatli, bir-biridan 25-26 m masofada joylashgan va burchaklarida «qaldirg`ochdumi» shaklini hosil qilgan zo`r burjlar saqlanib qolgan (2-surat; 81]-rasm). Burjlarning kengligi 8-9 m, devordan tashqariga 8-9 m turtib chiqqan. Burj ichki xonalari tarhi to`g`ri burchakli (4-4,10-4,20x5,40-5,80-6 m). Burjlarga kirish joyi 0,90 x 2,10 m bo`lib, otish yo`laklariga olib bo-radi. Istehkom devori

tashqaridan 10-12 m balandlikda saqlanib qolgan va unda shinaklardan tashqari, yo`lak polidan 3,80-4 m. balandlikda yorug`lik tushishi uchun kvadrat shakldagi darcha qoddirilgan. Darchalar oralig`i 4,5-4,75 m.

Burjlarning ikkinchi qavatida uch tomondan darcha mavjudligi burjda uchinchi-ochiq qavat bo`lganligini taxmin etish uchun asos beradi. Yo`laklarning tashqi devorida, 5,50 m balandlikda har 0,40 - 0,50 m masofada to`sin o`rni (15 x 18-20 sm) joylashgan.

Qal`aga kiradigan joy shimoli-sharqiy devor o`rtasida joylashgan va peshdarvoza inshooti (22 x 5 m) bilan muhofazalangan. Istehkom tashqaridan qal`a devorining tashqi chekkasidan 9-10 m masofada joylashgan, qalinligi 1 m, saqlanib qolgan balandligi 0,30-0,40 m bo`lgan proteyxizma bilan o`rab olingan.

Tashqi devordan shohmot tartibida joylashgan ikki qator nayzasimon shinaklar ochilgan. Shinaklar paxsada nayzasimon bostirmagacha shunday ochilganki, ularning asosi, shinaklarning balandligi qavat darajasida baravar bo`lgani holda, shohmot tartibida har xil balandlikda (farqi -0,15 m) joylashgan. Quyi qatorlarda shinaklar o`rtasidagi masofa 1,60-2 m, tuynuk kengligi 0,18-0,20 m. Pastki qavatdagi tuynuklar ichkaridan 0,50 m, tashqaridan 1,50 m ochilgan, yo`naltiruvchi qiyalik burchagi 60-65.

Shahristonni tekshirish (1-shurf) chog`ida qo`lga kiritilgan yangi sopol ma`lumotlar (92, 102-rasmlar) avval qabul qilingan sanani tasdiqlamaydi va uni mil. avv. IV-III asrlarga olib borib taqash imkonini beradi. Katta Qirqqizqal`a harbiy istehkomlarining xususiyatlari bu sanaga zid kelmaydi (Xodjaniyazov, 1982, 52-bet; 1986, 3-16-betlar).

**Ayozqal`a kompleksi.** Sulton Uvays tog`ining sharqiy tarmoqlari yonidan uchta qal`a xarobalari joy olgan bo`lib, ular tartib bilan belgilangan (9-surat). Baland tepalik ustida joylashgan Ayozqal`aning o`zi 1-raqam bilan belgilangan. Ayozqal`a-1 tepaligidan janubdagi baland bo`lmagan do`nglikda joylashgan qasr Ayozqal`a-2 deb belgilangan. Ayozqal`a-2 dan 250-300 m masofada tekislik-da joylashgan xaroba esa Ayozqal`a-3 deb belgilangan (Tolstov, 1941, 171-bet).

Ayozqal'a-1 shahristoni devon davriga oid marmar aralashgan ohaktosh to'shalgan tepalik ustidagi tekislikda joylashgan. 100 m gacha ko'tariladigan tepalik Sulton Uvays tog'ining davomi hisoblanadi.

Yodgorlik o'lchamlari 182,5x152 m bo'lib, to'g'riburchak shaklida, olam taraflariga qaratib qurilgan (2b-rasm). Qo'shdevor zarang qatlam (materik) ustiga ko'tarilgan va ayrim joylarda 10 m dan ziyod balandlikda saqlanib qolgan. Tashqi devorning qalinligi asosida 2,4 m, ichki devorniki-1,7-2,1 m.

Devor o'lchami 37-41 x 37-41 x 10-13 sm bo'lgan xom g'ishtdan qurilgan, g'isht loyga terilgan. Ora-sira 32 x 32 x 10, 34 x 34 x 12 va 46 x 11 sm li g'ishtlar ham ko'rinib qoladi. G'ishtlarda ikki yondosh chiziq va bitta dumaloq shakldagi tamg'a uchraydi. Devorlar orasida butun perimetr bo'ylab eni 2,5 m li yopiq yo'lak bo'lib, shinaklar va, aftidan, yorug'lik tuynuklari ham yo'q, to'rtburchak gumbaz bilan yopilgan. Balandligi-1,87 m (10-surat).

Kirish joyi qal'aning janubiy devorida bo'lib, sharqiy devorda o'tish joyi bo'lgan to'g'ri burchak shaklidagi peshdarvoza in-shooti bilan himoyalangan. Peshdarvoza inshootiga kirish joyi bir-biridan 4,4 m masofada joylashgan to'g'ri burchak shaklidagi ikki burj bilan mustahkamlangan.

Istehkom sharqiy va g'arbiy devorlarda bir-biridan 13,8 m masofada, shimoliy devorda esa 11,5 m masofada joylashgan yarim ellips shaklidagi burjlar bilan kuchaytirilgan (80, s-rasm). Qal'aning to'rttala burchagida burjlar ayri «qaldirg'ochdumi» shaklida joylashgan. Hamma burjlar devor yuzasiga tirab qurilgan.

Gumbazli berk yo'lak ustidagi devor yuqorisida bir-biridan o'rtacha 1,5 m masofada nayzasimon shinaklar qo'yilgan.

1965 va 1968 yillarda shimoliy devordagi (shimoli-sharqiy burchakdan hisoblaganda) uchinchi-oltinchi burjlar yaqinida, g'arbiy devordagi janubi-g'arbiy burjlar yonida, peshdarvoza va janubiy devordagi ikki burj yonida qurilish uchun taxlab qo'yilgan ko'p mikdordagi g'ishtlar topildi.

Peshdarvoza inshootiga kirish joyining shimoliy tomonida, o'tish joyiga urilgan devor suvog'ida bir qatorda uch belgi va uning ustida bir belgi qo'yilgan. Belgilar loyga 2-3 mm chuqurlikda tig' bilan tilib bitilgan. Yozuv ustidagi belgini V.A.Livshits «ustaning», qurilish boshlig'ining tamg'asi, deb hisoblashga moyil. Tam-g'a xorazmcha «yumshoq», «muloyim», «lozim darajada qattiq emas», «mustaqil emas», deb o'qiladi.

Yozuv, aftidan, darvoza devori ichidagi «etarlicha mustahkam qurilmagan», shuning uchun qurilish paytidayoq urib yuborilgan gumbazli xonaga taalluqli bo'lsa kerak. «Usta» bajarilgan ishdan mamnun bo'lmagan bo'lsa kerak, shuning uchun ish tugagach, unga belgi qo'ygan.

Qal'a markazida, hovlida 5 m chuqurlikdagi o'ra mavjud. Bu erda, ehtimol, quduq bo'lgan. Qal'a mil. avv. IV-III asrlarda qurilgan deb hisoblanadi. Basharti shunday bo'lsa, yozuv istehkom qurilgan davrga oid bo'ladi. Mil. avv. IV-II asrlarga oid jez paykon, mil. avv. IV-III asrlarga taalluqli terib olingan sopol parchalari qal'ani mil. avv. IV-III asrlarga oid deb hisoblash imkonini beradi (Man'illov, Xodjaniyazov, 1981, 39-bet).

Ayozqal'a-3. Qoraqalpog'iston Respublikasi Ellikqal'a tumani hududida joylashgan. Shakli parallelogrammga o'xshash, maydoni 4 gektar (260x180 m) ga yaqin. Tomonlari olam taraflariga qaragan (43-rasm). Yodgorlikning ichki devorlarida, shunda ham ayrim joylarda asos (tsokol') ustida xom g'isht (40-42 x 40-42 x 11 sm) taxlamlari saqlanib qolgan. Paxsa asos sun'iy qum «yostiq» ustiga qo'yilgan. Yostiq balandligi 15-20 sm. Tashqi devor qalinligi asosda 3,20 m, ichki devorniki 2,10 m, yo'lakning eni 2,70 m. Qal'a devorlari butun perimetri bo'yicha to'g'riburchak shakddagi burjlar bilan mustahkamlangan. Burjlarning eni 8-9 m bo'lib, ular har 21-22 m da joylashgan. Qal'a burchaklarida tarhi kvadrat shaklda, o'lchami 11x11 m bo'lgan burjlar joy olgan. Shahristonga kirish yo'li janubiy devor o'rtasida bo'lib, 13 x 13 m o'lchamdagi peshdarvoza istehkom bilan himoyalangan. Adashtirma yo'lga kirish joyi undan 9 m janubda joylashgan bir devoriy burj bilan kuchaytirilgan.

Qal'aning ichki maydoniga hech narsa qurilmagan. Shimoli-sharqiy burchakka yaqin joydagina, shimoliy devor yonida o'lchami 49 x 59 m bo'lgan, tarhi to'g'ri burchak shaklidagi mustahkamlangan bino qoldig'i bor. U g'arb-sharq yo'nalishida yastangan, markazidan yo'lak bilan xochsimon shaklda deyarli bir xilda to'rt qismga bo'lingan. Bino uch tomondan yo'lakli, o'rtasida tarhi to'g'ri burchak shakldagi burj bo'lgan devor bilan o'rab olingan, shimol tomonda esa shahriston devoriga taqalgan. Tashqi devor qalinligi 1,65 m, ichkisini 1,50 m, yo'lakning eni 1,90 m. Burjlar tashqariga 3,70 m turtib chiqqan, eni 5,35 m, xona kvadrat shaklda, o'lchami 2 x 2 m.

1939 yilda S.P.Tolstov tomonidan binoda olib borilgan tadqiqotlar uning asosi o'ziga xos strukturaga egaligini aniqlash va kushonlar davriga oid, deb hisoblash imkonini berdi (Tolstov, 1940, 75-bet; 1948, 107-bet). Qo'lga kiritilgan yangi materiallarga asoslanib, Ayoqzal'a-3 ning, eng avvalo, burchaqdagi binoning barpo etilish davrini mil. avv. V-IV asrlarga yoki IV asrga taalluqli, deb hisoblash mumkin. Aks holda shahriston shimoliy devori to'g'ri chizig'ining siljishi va binoning unga taqalishi sababini hamda kech arxaik davrga oid va qanhxa sopollari unga qaerdan tushib qolganini izohlash mushkul bo'ladi (93-rasm) (Xodjaniyazov, 1982 a, 18-23-betlar; 1987, 102-105-betlar). Statsionar arxeologik qazishlar davrida ham binoning sanasini shunday belgilash o'z tasdig'ini topdi (Bolelov, 1998, 117-134-betlar).

Toshxirmon. Qoraqalpog'iston Respublikasi Beruniy tumani hududida, Oqchaxonqal'a shahristonidan 6 km janubi-sharqda joylashgan. Yodgorlik shimoldan janubga qarab cho'zilgan 100x150 m ga yaqin o'lchamli do'nglikdan iborat (44, 45-rasmlar). Balandligi 3-5 m. Bu yigirmadan ziyod har xil xonalardan iborat bo'lgan ko'p xonali imorat. To'g'ri burchakli hovli yoki zal (20 x 16 m) va uning janubi-g'arbiy tomonidagi uchta katta xona (10 x 15, 8x 15 va 8,50 x 18 m) konturi yaxshi ko'rinib turadi. Shuningdek, yana maydoni kichikroq (4 x 5,30; 4,50 x 7,50; 5 x 7,6 x 9,50; 3,50 x 13,8 m) bir nechta xona va ikkita yo'lak (2,8 x 20,1; 40 x 15 m) mavjud. Qurilish mate-riali sifatida xom g'isht ishlatilgan.

Markaziy o`rinni egallagan zal o`lchami 40-43 x 40-43 x 13-14 sm bo`lgan xom g`ishtdan qurilgan. G`ishtlarga bir yoki ikki yondosh chiziqlar ko`rinishidagi tamg`a bo-silgan. Qolgan xonalarda, aftidan o`lchami 46-32 x 24-24 sm bo`lgan, hech qanday tamg`a bosilmagan to`g`riburchak shakldagi xom g`isht ish-latilgan. Devorlar 1 m dan 1,5 m gacha qalinlikda bo`lgan.

Devorga urilgan g`isht o`lchami, sopol xususiyatlari, topilgan tosh arxitektura detallari va sopol idishlarning bo`laklari (96-rasm) Toshxirmonni kech arxaik va qanhxa davrlarida mavjud bo`lgan istehkomli manzilgoh qoldiqlari, deb taxmin qilish imkonini beradi (Xodjaniyazov, 1986, 24-27-betlar; 1995, 111-bet).

**Qizilqal`a.** Qoraqalpog`iston Respublikasi Beruniy tumani Beruniy shahridan 27 km shimolda joylashgan (14, 15-suratlar). Yodgorlik 65 x 63 m o`lchamda, deyarli kvadrat shaklda, burchaklari bilan olam tomonlariga qaragan (66, a, `rasm). Qal`a devorlari ancha yaxshi saqlangan, ba`zi joylarda balandligi hozir ham 13- 16 m ga etadi, materik ustiga kvadrat shakldagi (39-41 x 39-41 x 10-13 sm) xom g`isht terib ko`tarilgan. Tashqi devorning qalinligi 1,60-1,90 m, ichkisiniki 1,10-1,60 m (76, a, `s, y-rasm). Tashqi devorda bir-biridan (kirish tuynugi o`qi bo`yicha) 1,60-2 m maso-fada joylashgan ikki qator shinaklar qo`yilgan (78, p-rasm). Tashqi devor eni 8 m bo`lgan, 0,36-0,40 m turtib chiqqan qirrali (to`g`ri burchakli) pilyastr bilan bezatilgan. Ular orasidan eni 3,25 m, pilyastrchalik turtib chiqqan gul ustunlar joy olgan (74, 75-rasmlar). Eni 1,42 m bo`lgan kirish joyi qal`a janubi-shar-qiy devorining markazida joylashgan. Kirish janubi-g`arbiy devor tomon o`tish joyi bo`lgan to`g`riburchakli inshoot (17 x 12 m) bilan himoyalangan. Uning peshdarvoza inshootiga bo`yi 26 m, eni 1,55 m, 15 nishab bo`lgan pandus orqali o`tish mumkin.

Ikki devor o`rtasida, shimoli-sharqiy devordan tashqari, 14 x 8,40 m va 12 x 10 m o`lchamli to`g`ri burchakli burjlar mavjud. Burj xonalari ichkaridan to`g`ri burchak shaklida, bo`yi 6 va 8 m, eni 8 va 6 m. Tashqarisidagi pilyastr bezaklar uchta devorda saqlanib qolgan.

Bu erda ikki qazishma, uchta stratigrafik shurf ochildi, bundan tashqari, er yuzasi tozalandi. II qazishma natijasida qal'aning shimoli-sharqiy devoriga tutashgan (I-II asrlarga oid) ikki xona ochiddi. Ko'plab sopol ashyoviy material (99-rasm), tosh, shisha, jez buyumlar, devoriy rasm qoldiqlari va mil. avv. II-I asrlarga oid suv o'tkazgich quvurlar topildi (Xodjaniyazov, 1982, 9-17-betlar; 1986 b, 51-65-betlar; Xodjaniyazov, Mannlov, 1983, 471-bet).

Tashqi devor va burjlarda 1,40-1,50 m oraliqda bir qator nay-zasimon shinaklar qo'yilgan; tirqishning eni 0,18-0,24 m, shinak ustiga bostirilgan g'ishtlar tamg'alangan (77, 45, 70-rasmlar). Bitta g'ishtda «T» simon tamg'a ustida besh belgidan iborat bir qator yozuv bor. Belgilar loy ustidan barmoq bilan 2-3 mm botirib qo'yilgan.

Devorning burjlar oralig'idagi har bir qismida, shinaklar-dan tashqari, burjdan 4-5 m masofada ikkitadan tuynuk qo'yilgan. Tuynuklar eni 0,80 m, balandligi 1,50-1,75 m o'lchamda, ikki tomoni ochiq yarim doira ravoq shaklida. Ularning quyi chekkasi shinaklarning quyi chekkasi bilan bir chizikda joylashgan. Tuynuklar ham, devor ham bir xil o'lchamdagi xom g'ishtdan terilgan.

Qal'a devori bo'ylab, undan 10 m masofada balandligi 2 m, eni 0,80-1 m paxsa proteyxizma bo'lgani aniqlandi.

Janubi-sharqiy devorning ichki tomonida darvozaning ikki tarafida maydoni 12,5x6 m li ikkita xona qoldig'i mavjud. Hovli markazida kvadrat shakldagi pastak, yassi do'nglik (18x18 m) bor. Uning o'rtasida chetiga tosh terilgan quduq joylashgan.

Qal'adan yig'ib olingan sopol material (94-rasm) I-III asr-lardagi Xorazm so'nggi antik madaniyatiga taalluqli (Xodjaniyazov, 1982 a, 41-46-betlar; 1984, 64-68-betlar; 1986 a, 57-64-betlar; Xodjaniyazov, Man'shev, 1983, 47-bet).

Katta Guldursun. Shahrison Qoraqalpog'iston Respublikasi Ellikqal'a tumani hududida joylashgan. Uning tarhi noto'g'ri to'rtburchak shaklida, o'lchami 350 x 230 m, burchaklari bilan olam taraflariga yo'nalgan (12-rasm). Kirish joyi janubi-sharqiy de-vorning o'rtasida bo'lib, tarhi to'g'riburchakli peshdarvoza adashtirma

yo'l bilan himoyalangan. Antik davrga oid tashqi devor va burjlar ayrim joylarda 13-15 m balandlikda saqlanib qolgan. Ularning tsokol` qismi paxsa, undan tepasi esa 40x40x10-12 sm o'lchamli xom g'isht. Devorda bir-biridan 1,52-1,90 m masofada shohmot tartibida joylashgan shinaklar bo'lgan. Shinak teshigi-ning kirish tomoni eni 20-23 sm, balandligi 62-68 sm. Shinak bostirmasidagi g'ishtga bitta va ikkita parallel chiziq tarzidagi tamg'a bosilgan (77, 18, 30, 55, 59-rasmlar). Terib olingan materi-alidan kelib chiqib, qal'a, ehtimol, xorazmshohlar davrida yuzaga kelgan, deb belgilash mumkin. Qal'ani qayta qurish paytida antik otish yo'lagining ichki devori buzib tashlangan, tashqi devoriga ta-qab paxsa urilgan (25-surat). Oqibatda shinaklar qal'a ichiga qara-gan bo'lib chiqadi (Xodjaniyazov, 1982, 52-53-betlar; Xodjaniya-zov, Manmlov, 1983, 470-bet).

Kichik Qirqqizqal'a Qoraqalpog'iston Respublikasi Ellik-qal'a tumanidagi Buxan Meroy shirkat xo'jaligi erlarida joylashgan (11-surat). Qal'a istehkomi har xil tarhga ega bo'lgan, bir-biriga yondashgan ikki-g'arbiy va sharqiy qismdan iborat bo'lgan (22-rasm). G'arbiy qism sharqdan g'arbga qarab cho'zilgan, bo'yi 80 m, eni 70 m bo'lgan noto'g'ri doira shakliga ega. Doira 38-40 x 38-40 x 10-12 sm o'lchamli xom g'ishtdan ko'tarilgan qo'shdevor bilan o'rab olin-gan. Tashqi devorning eni (ikkinchi qator shinaklar balandligida) 1,60 m, ichkisiniki- 1,40 m, yo'lakniki-2 m. Tashqi devor asosga tomon 78-80 nishab (78, s1-rasm).

Qal'aning tashqi devoridan butun perimetri bo'ylab ikki qator nayzasimon shinaklar qo'yilgan (79,s-rasm). Shinaklarning o'qi va ularning qatorlaridagi oralig'i bir-biriga mos kelmaydi. Pastki qatordagi shinaklar orasidagi masofa - 1,25-1,30 m, yuqori qator-dagilari orasi esa 1,90-2 m. Birinchi qator shinaklar poldan 0,80 m balandlikda joylashgan. Ularning eni 20-24 sm, kirish tuynugi balandligi 50 sm, chiqishiniki-1,45-1,50 m. Shinaklar somonsuvoq qilingan.

Kirish joyi shahriston ichida sharqiy tomonda, devor chizig'idan ancha ichkarida, 10 m ga yaqin yo'lak hosil qilgan holda joylashgan. Devorida bir-biridan 1,25-1,35 m masofada shinaklar joylashgan.

Qal`aning sharqiy qismi oval qismiga (56 x 50 x 120 m) taqalgan segmentdan iborat bo`lgan. Devor asosan yuvilib ketgan, ba`zi joylarda tagigacha yuvilib ketgan g`ov holiga kelib qolgan. Devor-ning qalinligi 3 m ga yaqin, paxsadan urilgan. Qal`a burchaklarida va qal`a janubiy devorining o`rtasida joylashgan tashqi darvozalar yonida, uning oval va segment qismlari bir-biriga yaqinlash-gan joyda burjlar qurilgan. Burj 7 m ga yaqin balandlikda saqlanib qolgan, xonalari yo`q; u tuproq uyumi bo`lgan baland paxsa asosdan iborat bo`lgan (1 m ga yaqin balandlikda saqlanib qolgan).

Kirish yo`li konstruksiyasi bu erda ham o`ziga xos echimda bajarilgan. Uning janubiy devori, oval qismiga 8,50 m etmasdan, o`tmas-burchak tarzida shimolga buriladi va 9 m uzunlikda, eni 8,50 m li kirish yo`lini hosil qilgan holda ko`zga tashlanib turadi. Shahris-tonga uzunligi 50-60 m, eni 3-4 m bo`lgan do`nglikning janubiy yonbag`rida joylashgan tabiiy pandus orqali kirilgan.

Bevosita yo`lak poli ustida hamda shurfning materik usti qatlamida yotgan madaniy qatlamda mil. avv. IV-III asrlarga oid sopol material aniqlangan (88-rasm). Sopoldan tashqari tosh yadrolar, urchuqboshi, mitti idishlar, six tagliklari va idish zanglari, ma-halliy kulrang marmardan yasalgan laganlar ham bor.

Kuzatishlar natijasini jamlab, yodgorlik devori sistemasini va uni davrlashtirishni rekonstruksiya qilish mumkin. Birinchi bosqich shahrystonning yarim oval qismi qal`a devorlari qurilgan vaqtga mos keladi. U mil. avv. IV-III asrlarda dehqonchilik erlarini himoya qilish uchun qulay strategik punktdagi chegara qal`asi sifatida barpo etilgan. O`sha vaqtda qal`ada, Xorazmning boshqa ko`pgina shaharlarida bo`lgani kabi, ikki qavatli otish yo`lagi bo`lgan va u, ehtimol, gumbaz bostirmali bo`lgandir. Qal`a devorining har bir qavatida nayzasimon jangovar shinaklar qo`yilgan.

Milodning boshida, aftidan, qal`a devorini tiklash va mustahkamlash borasida ish olib borilgan. Otish yo`lagining pastki qavatida qurilgan. Shahrystonning segmentsimon qismi ham shu davrda bunyod etilgan. Aftidan, uning yuzaga kelishi qal`aning chegara punkti sifatidagi ahamiyati oshib borgan bilan bog`liq bo`lsa

kerak. Qal`aning ikkala qismi oval istehkomning sharqiy devori o`rtasida rekonstruktsiya qilingan darvoza orqali tutashgan bo`lsa ke-rak. III asr oxiri-IV asr boshida shahriston, ehtimol, suv etish-masligi tufayli bo`shab qolgan (Gulyamov, 19576, 109-bet; Xodjani-yazov, 1982a, 24-32-betlar; 1985, 87-bet; 1990, 82-91-betlar).

**Qo`rg`oshinqal`a.** Qoraqalpog`iston Respublikasi Ellikqal`a tumani hududida joylashgan (12-surat). Shahriston burchaklari olam taraflariga yo`nalgan 132 x 89 m o`lchamdagi to`g`ri burchak shaklida (25-rasm). Qo`shdevor materik qatlam ustiga qurilgan va ayrim joylarda 14-16 m qalinlikda saqlanib qolgan. Tashqi devorning qalinligi asosida 2,35 m, ichkisiniki-2-2,20 m. Otish yo`lagining eni 2,35 m. Tashqi devor asosga qarab 85 nishab qilib ko`tarilgan.

Devorning quyi qismi materikdan 1,52 m balandlikda paxsadan ko`tarilgan, keyin loy qorishmada xom g`isht (40-41 x 40-41 x 10-11 sm) terilgan. G`ishtga bitta, ikkita parallel chiziq yoki kesi-shuvchi to`g`ri yoxud egri chiziqlardan iborat tamg`a, hatto barmoq ham bosilgan (77, 2, 17, 29, 38, 43, 50, 56, 58, 63, 67, 68-rasmlar).

Qal`a devori uzun tomonda uchtdan, qisqa tomonda bittadan burj bilan kuchaytirilgan (burchak burjlari bundan mustasno). Ular to`g`ri burchakli va yarim oval shaklda ishlangan. Har bir devordagi burjlar oralig`i har xil. Shimoli-sharqiy devorda ular bir-biridan 27-37 m masofada, janubi-sharqiy devorda esa 6-31 m masofada joylashgan. Ularning eni 6,80-8,40 m bo`lib, 7,60-8 m turtib chiqqan.

Burchaklarni himoya qilish uchun har xil kombinatsiyalardan foydalanilgan: shinaklar qiyalatib qo`yilgan, burjlar qo`shaloq va yakka qurilgan (13-surat: 81, ` , s, 1-rasm). Qal`a devorida, burjlarda shinaklar va darcha o`rinlari qoldirilgan.

Kirish joyi janubi-sharqiy devorning o`rtasida bo`lib, to`g`ri burchak shaklidagi 10,90 x 19,80 m o`lchamli peshdarvoza inshooti bilan himoyalangan. Adashtirma yo`l devorlarida shinaklar qoldiril-gan. Qal`a har tarafdin (janubi-g`arbiy tarafdin tashqari) kvad-rat shakddagi xom g`ishtdan ko`tarilgan proteyxizma bilan o`rab olingan. U qal`a devori chetidan 9-10 m qochib turadi. Qal`aning janubi-g`arbida,

proteyxizmadan uch metr masofada eni 5 m ga yaqin, chuqurligi hozir 1,50 m ga yaqin bo`lgan xandaq bo`lganligi aniqlandi.

Otish yo`laklaridan hamda qazilgan shurfdan olingan ashyoviy materiallar orasida mil. avv. IV-III asrlarga oid yirik idish-larning parchalari borligini alohida qayd etib o`tish zarur (87-rasm). Yo`lbars tasviri tushirilgan idish parchalari shu davrga taalluqli (Tolstov, 1948, 82, 5-jadval).

Strategiya nuqtai nazaridan muhim joyni egallagan Qo`rg`oshin-qal`a mil. avv. IV-III asrlarda yuzaga kelgan, aftidan, qadimgi Xorazm davlatining ichki hududlarini dasht qabilalarining shimoli-sharq tomondan bo`ladigan hujumidan himoya qilgan.

Qal`a mavjudligining ikkinchi bosqichida (I-III asrlar) adash-tirma yo`lga janubi-sharqdan kirilgan. Bu yo`lning ichki bo`shlig`ida qum qatlami ustidan g`isht to`shalgan. Pandus barpo qilingan. Katta Qirqqiz kanalida suv etishmasligi tufayli, aftidan, III-IV asrlar oxirida Qo`rg`oshinqal`a va uning atrofidagi qishloqlar bo`shab qolgan (Gulyamov, 1957, 109-bet; Xodjaniyazov, 1982a, 33-40-betlar; 1984, 36-46-betlar).

**Dumanqal`a.** Maydoni 8 gektarga yaqin bu yodgorlik Qoraqalpog`iston Respublikasi Ellikqal`a tumanidagi Oxunboboev shirkat xo`jaligi hududida joylashgan (18-surat). Yodgorlik bir-biriga tutash uch qismni o`z ichiga oladi. Bular: shimoliy (250 x 200 x 130 m); sharqiy (90 x 90 m), g`arbiy (170 x 155 m) qismlardir (47-rasm). Sharqiy qism qolganlariga nisbatan ilk davrga taalluqli. Uning tarhi kvadrat shaklda. Shimoliy va janubiy devorda paxsa hamda xom g`ishtdan bunyod etilgan, o`lchami 40 x 43 x 40-43 x 10 m bo`lgan burjlar qoldig`i saqlangan. Shimoli-g`arbiy burchagida eni 2,60 m li yo`lak ko`zga tash-lanadi. Tashqi devorning qalinligi 2,50-3 m, ichkisiniki-2 m ga yaqin. Keyingi bosqichlarda janubi-sharqiy burchakda donjon (alo-hida burj) barpo etilgan.

Sopol materiallarga ko`ra (86-rasm), Dumanqal`a (sharqiy qis-mi) I-III asrlarga oid, deb hisoblanadi. Amirobod kanali quyi oqimida joylashgan Dumanqal`a antik

davrda vohaga shimoldan kirish yo`lini to`suvchi tayanch qal`a bo`lgan (Gulyamov, 1957, 100-bet; Xodjaniyazov, 1986, 27-30-betlar).

Xorazm vohasi-Markaziy Osiyoning qadimgi sug`orma dehqonchilik zonalaridan biri. Amudaryoning o`ng va so`l sohalaridagi qadimdan sug`orib kelinayotgan erlar qadimgi Xorazm yoki Xoraz-miya deb atalgan yagona tarixiy-madaniy va geografik hududga kirgan (P`yankov, 1972).

O`rta Osiyoda axomaniylar davrigacha «Katta Xorazm» va «Qadimgi Baqtriya davlati», degan davlat birlashmalari mavjud bo`lganligi to`g`risida tarixiy manbalarda ma`lumot juda oz (Tols-tov, 1948a, 44-45-betlar; Gafurov, 1972, 59-60-betlar).

Keyinroq Gerodot Osiyoda har tomondan tizma tog`lar bilan o`rab olingan tekislik mavjudligidan, tog` tizmalarida esa besh dara borligidan xabar beradi. Bu tekislik bir vaqtlar xorasmiyaliklarga qarashli bo`lgan. U o`sha xorasmiyaliklar, girkaniyaliklar, parfiyaliklar, saranlar va taxmanaylar chegarasida yastanib yotadi. Tekislikning adog`idagi tog`dan katta Akes daryosi oqib chiqadi. Daryo dastavval besh irmoqqa bo`linib, mazkur xalqlar erlarini sug`organ (Gerodot, 1U6 17). D.Markvart, keyinroq esa S.P.Tolstov ushbu ma`lumotlarga asoslanib, bu erda axomaniylar davrigacha Xorazm boshchiligida qudratli «Katta Xorazm» davlat birlashmasi mavjud bo`lgan, degan xulosaga kelishgan. Ular Xorazmning o`zini Zardusht ta`limotining afsonaviy vatani va bu ta`limot yoyilgan dastlabki viloyat-Ar`yanam Vayja bilan ay-nan, deb hisoblashgan (Markvart, 1932, 5, 8, 10, 11-betlar; Tolstov, 1948a, 286, 341-betlar).

S.P.Tolstov fikricha, bu jarayonning ildizi mil. avv. XIV-XIII asrlarga, ya`ni hind-evropa etnogenezi sarchashmalaridan bo`lgan qabilalarning katta konfederatsiyasi davriga va tutallanishi mil. avv. XIII-XII asrlarga borib taqaladi (Tolstov, 1948a, 341-bet).

Biroq ularning «Katta Xorazm» tarkib topishiga olib kelgan ko`chish yo`nalishi hozirga qadar ham munozaraga sabab bo`lmoqda. Ayrim olimlar xorazmiylar dastavval janubda yashaganlar (Gafurov, 1972, 59-bet), so`ng axomaniylar davrida

shimolga tomon siljiganlar, deb taxmin qilishadi (Tarn, 1951, 478-480-betlar, Fray, 1972, 71-72-betlar; P`yankov, 1972, 19-betlar; Vaynberg<sup>4</sup>, 1979, 49-52-bet-lar). Boshqa olimlar esa, aksincha, xorazmiylar Amudaryoning quyi oqimida muntazam yashashgan (Tolstov, 1948, 103-105-betlar; D`ya-konov, 1971, 142-bet; Vorob`eva, 1979, 38-42-betlar) hamda O`rta Osiyoning katta hududlarini nazorat qilishgan (Livshits, 1963, 153-bet), deb hisoblashadi. Uchinchi taxmin ham bo`lib, unga ko`ra xorazmiylar ayni vaqtda Quyi Amudaryoga ham, janubga ham yoyilib ketishgan (Negtap, 1914, 470-471-betlar). Mil. avv. VIII-VII asrlardagi Xorazm va unga chegaradosh mamlakatlarning bu siyosiy tarixi muammolari qay tarzda hal qilinmasin, bunday yirik birlashma mavjud bo`lganligi faktining o`zini hozir shubha ostiga qo`yib bo`lmasligi mutlaqo ravshan (P`yankov, 1972, 19-bet; Vorob`eva, 1979, 41-bet; D`yakonov, 1961, 349 -350-betlar; Gafurov, Tsibukidis, 1980, 59-bet; Turebekov, 1990, 108-bet; Sagdullaev, 1995, 39-40-betlar). Shu bilan birga, Xorazm vohasida ilk sak madaniyatining ochilishi va uning janubiy aloqalari xususiyatining aniqlanishi, aftidan, «Katta Xorazm» kontseptsiyasi bilan bog`liq murakkab tuzilmalar-dan voz kechish imkonini beradi (Rapoport, 1998, 29-bet).

«Baqtriya podsholigi» va «Katta Xorazm» birlashmasi, ehtimol, barqaror bo`lmagandir, oqibatda axomaniylar imperiyasi oldida taslim bo`lib, mil. avv. 545 va 539 yillar oralig`ida uning tarkibiga qo`shilgandir (Dandamaev, Lukonin, 1980,184-bet; Askarov, Shirinov, 1993, 143-bet).

Mil. avv. VII-VI asrlarda Xorazm xo`jalik, jamiyat va madaniy ukladida tub o`zgarishlar yuz bergan. Irrigatsiya-dehqonchilik xo`jaliklari ilg`orlik bilan rivojlangan, ulkan kanallar barpo etilgan, kulolchilik va boshqa xil kasb-hunarlar taraqqiy etgan (Tols-tov, 1962, 89-93-betlar).

Xorazmning axomaniylarga bo`ysunishi uning siyosiy tarixida muhim voqea bo`ldi. Shu munosabat bilan ikki xil qarash mavjud: ayrim olimlar Xorazm Eron shohining oliy hokimiyatini va xiroj to`lash shartligini ixtiyoriy tan olgan, deb

⁴ В.И. Вайнбергнинг Куюсай маданияти намояндalari бўлган хоразмийлар мил. avv. VII асрда Эроннинг шимолий минтақаларидан келганликлари ҳақидаги фикри ҳозирча олимлар томонидан қўллаб-қувватланмаяпти (Итина, 1979, 5-6-бетлар; 1981, 12-бет)

hisoblashsa (Tolstov, 1948, 105, 107-betlar), boshqa olimlar saklar va xorazmiylar tobe emas, ittifoqchi hisoblanganlar, deyishadi (Gafurov, 1972, 229-bet). Nima bo`lganda ham, bir narsa ayon: Xorazm birmuncha vaqt sug`dlar, oriylar, parfiyaliklar bilan birga axomaniylar tarki-bida bo`lgan va 16-satrapiyaga kirgan. Bu haqda Doroning Bihistun kitobalarida eslatilgan (P`yankov, 1972, 13-14-betlar; Xlopin, 1983, 14-bet).

Xorazmning qadimgi dunyo sharqiy-despotik monarxiyasi tarkibiga qo`shilishi uning quldorlik tuzumi yo`liga uzil-kesil o`tganligini belgilab berdi, savdo va madaniy aloqalarni, hunarmandchilikning rivojlanishini, iqtisodiyotning yuksalishini rag`batlantirdi. Axomaniylar ma`muriyatining ishonchli kishilari uchun qurilgan katta va murakkab qo`rg`onlar paydo bo`ddi, irrigatsiya ri-vojlandi (Tolstov, 1948, 103; Vorob`eva, 1973, 21-bet).

Xorazm axomaniylar hukmronligidan qachon xalos bo`lganini aniq ko`rsatish qiyin. Har holda mil. avv. IV asrda uning Eronga qaram bo`lganligi to`g`risida hech qanday ma`lumot yo`q. Muzaffar Aleksandrqa nisbatan Xorazm butkul mustaqil pozitsiyaga ega bo`lgan. Qadimgi mualliflar (Arrian, Kurtsiy) guvohlik berishicha, mil. avv. 328 yil bahorida Makedoniyalik Aleksandr Baqtrda sulh muzokaralari uchun 1500 suvoriy bilan kelgan Xorazm hukmdori Fra-tapenni (yuqorida zikr qilinganidek, Arrianda Farasman deyil-gan) qabul qilgan. Yunon manbalarida Xorazm hukmdori «podsho» deyiladi, bu esa o`sha davrda bu erda kuchli davlat hukm surganidan dalolat beradi (Arrian, IV, 15, 4, 5, 6; Kvint Kurtsiy Ruf, VIII, 2). Biroq manbalardagi Xorazm kolxlar va amazonkalar eriga qo`shni bo`lgani to`g`risidagi ma`lumotlarni muayyan darajada aniqlash za-rur. Aftidan, bu o`rinda mil. I asrdagi Iberiya podshosi Farasman bilan mil. avv. IV asrdagi Xorazm podshosi Farsman (Fratapen) voqealari chalkashtirib yuborilgan ko`rinadi (Gafurov, Tsibukidis, 1980, 260-bet).

Arxaik davrda bunyod etilgan irrigatsiya tizimi «qanhxa» davrida ancha kengayib, murakkablashgan. Sug`oriladigan maydon kengaytirilgan, ekin turi ko`paygan. Xorazmda tariq, arpa, bug`doy, uzumdan tashqari shaftoli, o`rik, olxo`ri,

anor etishtirilgan. Uzunlikdan sharob tayyorlangan. Dehqonchilik bilan barobar chorvachilik ham mavjud bo'lgan. Biroq uning dehqonchilikka nisbatan hissasi kamayib borgan. Xorazm iqtisodiyoti va madaniyatining rivojlanishi shaharsozlik rivojlanishiga tabiiy ta'sir ko'rsatgan. Harbiy istehkomlar, xususan davlat harbiy istehkomlari sohasida ilgarilash bo'lgani qayd etiladi (Tolstov, 1948, 119-bet).

Arxeologik materiallarga ko'ra, mil. avv. II-I asrlarda, O'rta Osiyoning barcha dehqonchilik mintaqalardagi kabi, Xorazmda ham moddiy madaniyat va xo'jalik rivojlanishida keskin o'zgarish yuz berib, tanazzulga yuz tutilganligi qayd etiladi. Bu holat arxeologik jihatdan Xorazmning ko'hna yodgorliklarida o'z izini qoldirgan.

Kulolchilikda keskin o'zgarishlar bo'lgani kuzatiladi (Vorob'eva, 217-bet).

Mil. avv. II asrdan iqtisodiy va madaniy aloqalar rivojlanishida O'rta Osiyoni G'arb va Sharq bilan bog'lagan mashhur «Ipak yo'li» singari muhim omil amal qila boshladi. Bu yo'l shoxobchalaridan biri qadimgi Xorazm orqali o'tardi.

Biroq tarixiy adabiyotlarda Sug'd, Marg'iyona va, shu jumladan Xorazm ham Kushon podsholigi tarkibiga kirganligi to'g'risida fikrlar mavjud (Gulyamov, 1957, 99-bet; Tolstov, 1948, 151-bet; 1962, 94, 222-223-betlar; Grishman, 1975, 141-bet). Boshqa olimlar bu fikrga qarshi bo'lib, Xorazmdan topilgan oz miqdordagi kushonlar tangalari savdo aloqalarigagina ishora qilishi mumkin, deb hisoblashadi (V.Masson, 1966, 79-84-betlar; Masson, 1968, 22-23-betlar; 1975, 42-48-betlar; Fray, 1972, 279-bet). Bu boradagi yangi numizmatik faktlar ko'proq Xorazm Kushon hukmdorlariga tobe bo'lganligi ehtimoliga qarshi guvohlik beradi (Vaynberg, 1977, 89-bet). V.V.Masson adolatli ravishda ta'kidlaganidek, o'sha davrda Xorazm ravnaq topib borayotgan mamlakat bo'lgan. Ko'plab qo'rg'onlar, qal'alar, turli kattalikdagi shahar va shaharchalar murakkab irrigatsiya tizimiga birlashgan kanallar sohillari bo'ylab bir-biri bilan baqamti mavjud bo'lgan (V.V.Masson, 1969, 91-bet). Xorazm davri yil hisobi o'rnatilgan, bu hakda buyuk xorazmlik olim Beruniy xabardor bo'lgan. Arxeologik qidirishlar jarayonida buni tasdiqlovchi ma'lumotlar qo'lga kiritildi. Xorazmning ko'rib chiqilayotgan davrdagi siyosiy mustaqilligini va madaniy o'ziga xosligini badiiy madaniyat materiallari

tasdiqlaydi (Pugachenkova, 1979, 223-bet). Shunday qilib, Xorazm, aftidan, avvalgidek mustaqil davlatligicha qolgan. U Kushonlar davlatiga bo'ysungan bo'lsa ham, bu hol qisqa vaqt va nomigagina bo'lgan.

I-III asrlarda Xorazmda iqtisodiyot yanada gullab-yashnadi. O'ng sohil Xorazmda ham, so'l sohil Xorazmda ham irrigatsiya tizimi rekonstruktsiya qilindi. Shahar tipidagi manzilgoh bunyod etiddi, ichki tarhi sektsiyalarga bo'lingan katta imorat ko'rinishidagi yangi tipdagi manzilgohlar, kichik-kichik qo'rg'onlar (bir-ikki xonali uylar) qurildi. Ko'pxonali yirik binolar, bog' uchastkalari, is-tehkomli shaharlar shahar manzilgohlarining asosiy tipi bo'lib qolaverdi. Shahar maydoni markaziy ko'chadan boshlab, undan to'g'ri burchak ostida davom etib ketgan tor ko'chalar bilan jips qurilgan to'g'ri mavzalar tarzida kengayib bordi (Tuproqqal'a). Harbiy istehkomlar va qurilish texnikasi takomillashdi. San'at (rassom-lik, haykaltaroshlik, musiqa va b.) hamda yozuv takomillashdi. Kulolchilik keng quloch yozib rivojlandi. Idishlar va naqshlarning yangicha turlari yuzaga keldi (Vorob'eva, 1959, 218-bet). Bu davrda zardushtiylik xorazmliklarning diniy tasavvuri sifatida saqlanib qoldiki, Tuproqqal'a shahristonidagi «otashkada»lar va ostadonlarda dafn etish bundan dalolat beradi. Qadimgi mahalliy dinlar (ma'buda Anaxitaga, Quyoshga, ajdodlarga sig'inish) ham davom etdi. Bundan tashqari, koroplastikaga hind-buddaviy va dasht obrazlari to'g'risidagi tasavvurlar uncha singmagani (stupa, maymunlar tasviri, o'tirgan holatdagi yalang'och erkaklar haykalchalari), kuchli ta'sir ko'rsatmagani kuzatiladi (Litvinskiy, 1975, 198-bet).

IV asr boshida Xorazm quldorlik jamiyati sharoitida mumkin bo'lgan darajada to'liq ravnaq topibgina qolmay, balki unda quldorlik tuzumi inqirozining alomatlari ham paydo bo'ldi. Vohani dasht tarafidan o'rab turgan antik qal'alar tanazzulga yuz tuta boshladi. III-IV asrlarda gullab-yashnagan qadimgi Xorazmda V-VI asr-larda keskin sinfiy kurash va varvarlar bosqinchiligi ila kechgan quldorlik tuzumi emirilishi bilan bog'liq chuqur ijtimoiy bo'hron pallasi boshlandi. Bu voqealar o'sha davrlar yodgorliklarida yorqin aks etgan: irrigatsiya tarmog'ining qisqarishi, shaharlar va hunar-mandchilik tanazzuli, qishloqda ijtimoiy hayotning og'irligi,

xususiyy uy-joylarning qattiq mustahkamlanishi, devorlarida sanchilgan yoy o`qlari topilgan, vayron etilgan va o`t qo`yilgan qo`rg`onlar hamda qasrlar shundan darak beradi (Tolstov, 1948, 321-bet).

Amudaryo quyi oqimida yarim asrdan ziyod vaqt davomida arxeologik tadqiqotlar keng miqyosda olib borilganiga qaramay, Xorazmning qadimgi tarixiga oid ko`p masalalar kam o`rganilganicha qolmoqda. Xorazmning qadimgi poytaxti masalasi ham shular jumlasidan. Arab-fors tarixiy manbalarida, jumladan, at-Tabariy va boshqa mualliflar asarlarida Xorazmdagi «uchta shahar»: Fil (Pil, Kat), Hazorasp va Urganch haqida yozilgan. O.G.Bol`shakov Ibn al-Asom matniga havola qilib, bu erda bitta xandaq bilan o`rab olingan uch shahar nazarda tutilgan, deb hisoblaydi. Yana u, at-Tabariy viloyatdagi shaharlar soni to`g`risida hech narsa demagan, deb yozadi (Belinitskiy, Bentovich, Bol`shakov, 1973, 171-bet), G.Goybov bu matnni birmuncha boshqacha: «Xorazmning markazi umumiy g`ov bilan o`rab olingan uch shahardan iborat bo`lgan»,-deb tarjima qiladi (Goybov, 1983, 132-bet).

Al-Fir-Katda joylashgan bu poytaxt shaharda qadimgi Xorazmning yana boshqa eng muhim markazi-Tuproqqal`a shahristoni ham bo`lib, II-III asrlarda bu er Xorazm shohlari sulolaviy markazi va podsho qarorgohlaridan biri bo`lgan (TKD, 1984, 287-288-betlar). Shu munosabat bilan Xorazm poytaxti bo`lgan shahar izlarini balki ushbu shaharlar yaqin atrofidan qidirish lozimdir. Bunda Tuproqqal`adan 13-14 km janubi-sharqda va al-Fir-Katdan shimoli-sharqda 17 km ga yaqin masofada joylashgan Oqchaxonqal`a shahristoni e`tiborni o`ziga tortadi.

G`.Xojaniyazovning fikricha quyidagi faktlar ham shunday joylashtirish to`g`ri-ligidan dalolat bersa kerak:

1) Oqchaxonqal`a-qadimgi Xorazmning maydoni bo`yicha (Qal`aliqir 1 dan keyin) eng yirik (56 gektar), mil. avv. IV asr-mil. IV asr boshiga oid deb hisoblanadigan qudratli harbiy istehkomlarga ega shahari;

2) Oqchaxonqal`a Xorazm shohlari qarorgohlaridan biri va Xorazm shohlari sulolaviy dinining markazi bo`lgan Tuproqqal`a shahristoni hamda mil. IV asr

boshidan Xorazm poytaxti bo'lgan Pilqal'a-Kat (Kos) joylashgan qadimgi «poytaxt» viloyatdan o'rin olgan (30-surat);

3) aftidan, yuqorida zikr etilgan poytaxt shaharlar kirgan bu maxsus poytaxt mintaqaviy tashqi uzun Oqchaxonqal'a devori bilan o'rab olingan;

4) yozma manbalardagi ma'lumotlar (Ibn Qavqal) ko'hna poytaxt o'rnini qadimgi Xorazmning Katga qo'shni bo'lgan aynan shu viloyati bilan bog'laydi;

5) nihoyat, Oqchaxonqal'aning topografik tarkibida istehkomlar qattiq mustahkamlangan, muhim diniy inshootlar joylashgan o'ziga xos «muqaddas shahar»ning mavjudligi.

Mazkur misollar Oqchaxonqal'a axomaniylarga qaramlikdan xalos bo'lgan, mustaqil shakllangan qadimgi Xorazm davlatining birinchi eng qadimgi poytaxti, deb hisoblash imkonini beradi (Yagodin, Xodjanliyazov, Statov, 2005). Tadqiqotchilardan e.e.Nerazik ham, yaqinda Xorazmning ilk o'rta asrlarga oid shaharlarini o'rganib, Qozoqliyotgan (Oqchaxonqal'a) qaysidir davrda qadimgi Xorazmning poytaxti bo'lgan, degan xulosaga keldi (Nerazik, 2002, 130-bet).

Xorazmning qadimgi poytaxti nomlarida ham ko'plab umumiy jihatlar borligi anikdanmokka. Chunonchi, ilmiy doiralarda keng ma'lum bo'lgan «Qiyot»-«Kat»-«Kas» nomlari qadimgi Xorazm tili-dan tarjima qilinganda, ma'lumki, «dashtdagi devor» ma'nosini bergan (Yoqut). «Avesto»dagi «Vara» so'zi «Pil» yoki «Fir» so'zlari bilan bog'langan va qadimgi qal'alar, devorlar, istehkomlar, shahar inshootlari ma'nolarini bildiradi (Dusimov, Tillaeva, 2001, 25-27-betlar). Ushbu materiallardan kelib chiqib, qadimgi Xorazm poytaxtining nomlari bir-biriga juda yaqin, hatto o'xshash so'zlar bilan atalgan bo'lishi mumkinligini ham istisno etmaymiz. Shuningdek, Xorazm-ning ilk o'rta asrlardagi poytaxti-Kasning nomi Oqchaxonqal'a-ning uzun devoridan kelib chiqqan bo'lishi ham istisno emas.

O'rta asrlar mualliflaridan faqat Ibn Xdvqal «Kitob al-masolik valmamolik» asarida uning (Xorazmning) poytaxti Darjash deb atalganini, noma'lum sabablarga ko'ra vayron bo'lganini yozgan. O'shanda xorazmiylar unga yondosh qilib Kas nomi bilan ma'lum bo'lgan yangi shaharni barpo etishgan (MITT, 1939, 183-bet).

Ehtimol, Xorazmning keyinchalik unutilgan poytaxti-Oqchaxonqal`aning eng qadimgi nomi Darjash bo`lgandir.

So`nggi yillarda Oqchaxonqal`ada olib borilgan tadqiqot ishlari qal`aning suv ostida qolib ketganligini ko`rsatmoqda. Bu mil. IV asr boshida davlat markazini Pil (Fil-Al Fir) Bu qal`asiga ko`chirib o`tkazilgan ehtimolini oydinlashtiradi.

Xorazmning, umuman Xorazm davlatining qadimgi davri tarixi, uning Vatan tarixida tutgan o`rni va roli masalasi juda katta ahamiyat kasb etadi. O`zbekiston Prezidenti Islom Karimov ham 1998 yil avgust oyida tarixchilar, adabiyotchilar, jurnalistlar va boshqalar bilan bo`lib o`tgan uchrashuvda ham Xorazm tarixiga, uning davlatchiligi masalasiga diqqat qaratdi.

Xorazmda davlatchilikning shakllanishi haqida dastlabki yozma ma`lumotlarni zardushtiylikning muqaddas kitobi bo`lmish «Avesto»dan topamiz. Ingliz tarixchi-sharqshunos olimi V.Tarn, nemis sharqshunos-tarixchisi I.Markvart, rus sharqshunos olimi V.V.Bartol`d, sharq-shunos-arxeolog olimlar SP. Tolstov, B.G`afurov, M.G.Vorob`eva, A.S.Sagdullaev va boshqalar «Avesto»dagi «Ar`yanam Vaeju» aynan «Katta Xorazm» davlat uyushmasi hududlarining o`zginasidir degan xulosaga kelganlar.

Xorazmning poytaxt⁵ shahri Kat to`g`risidagi ma`lumotni biz, IX isrda yashab ijod etgan arab tarixchisi Belazurining «Kitab Futux tsl-Buldan» «Mamlakatlarni istilo qilish» nomli asarida uchrata-M1P. Belazuri Katni shunday ta`riflagan: «Kat mamlakatning eng ixshi mustaxkamlangan (poytaxti) markazi bo`lib, uning maydoni musulmonchilikka qadargi Samarkand bilan teng bo`lgan».

Xorazmning markazi Kat va bir necha qal`alari to`g`risida to`liqroq ma`lumotni biz X asrning birinchi yarmida yozib bitirgan fors geografi Abu-Ishoq Ibrohim ibn Muhammad al-Farisi al-Istaxriyning «Kitob al-masalik valmamalik» («Io`llar va mamlakatlar haqida kitob») degan asarida uchramiz. Istahriyning yozishicha, davlatning poytaxti, xorazmliklar tilida «Kae» - deb ataladi, uning mustahkam ko`rg`oni bor, ammo unda hech kim yashamaydi. Uning eski shahari (madinas) bo`lgan,

⁵ Абу Райхон Беруний. Асарлар т. I: «Осар ул боқия». -Т., 196 -б.

uni dare yuvib ketgan, uning orka tomonidan aholisi yangi kal`a qurgan, dare yakinlashib kolgach, uni ham dare yuvib ketadi degan ma`lumot bor. Jamoa masjidi ko`rg`on ortida, Xorazmshohning saroyi jamoa masjidi yonida bo`lgan. Shahar (madina) o`rtasida daryodan chiqarilgan anhor bor. Bu anhor (qal`a bilan bozorni ikkiga bo`lib turibdi), shahar bilan bozor o`rtasidan o`tgan. Qal`aning uzunligi I farsahning uchdan bir qismini tashkil qiladi, uning kengligi ham shunga teng. Darvozasi qal`aning dare yuvgan qismida bo`lib, yo`q bo`lib ketgan, boshqa tomoni, daryo yuvib ketgan qismining orqasida».

Al-Istahriy shu asarning yana bir joyida Xorazmning poytaxti haqida boshqacha ma`lumot ham yozib koldirgan. Unda: Xorazm (Kat, Kas to`g`risida) shahar (madina) serhosil, oziq-ovqati mo`l, turli mevalari serob, faqat yong`oq yo`k. U qal`ada paxta va jundan har xil kiyimlar tayyorlashadi, ularni uzoq xorijiy mamlakatlarga olib ketishadi. U erlik aholining xususiyatlaridan biri boylik va o`zining mardligini ko`rsatishdir. Ular (xorazmliklar) ko`p erlarda uchrashadi va ular sayohatni yaxshi ko`rishadi. Xurosondagi katta shaharlarning hammasida xorazmliklar boshqalarga nisbatan ko`pchilikni tashkil etadi. Ularning tili, xurosonliklardan ajralib turadi. Xurosonning hech bir tumanida Xorazm tilida so`zlashadigan mintaqqa yo`q. Ularning kiyimlari kalta kamzol va qalpoq. Ularning fe`l-atvori Xurosonliklar oldida yashirin emas. Ularning aholisi (xorazmliklar) o`g`izga karshi mardlarcha jang qiladi, ularga qaram bo`lmaydi. Ularning mamlakatida oltin, kumush va qimmatbaho tosh konlari yo`q. Boyliklarining asosiy qismi turklar bilan savdo qilish va mol boqishdan keladi.

Al-Istahriy poytaxt Katdan tashqari Xorazmda yana 12 ta qal`aning nomini keltirgan

Pil-Kat qal`asida turib Xorazmda hukmronlik qilgan Xorazmshohlar ro`yxatini qomusiy-olim al-Beruniy o`zining «Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar» asarida ko`rsatgan:

1. Afrig`,
2. Bogra,
3. Saxasek,

4. Askajamuk,
5. Askajvar,
6. Saxr,
7. Shaush,
8. Xamgir (Xamjerd),
9. Buzgar,
10. Armux,
11. Saxr II,
12. Sabri,
13. Arjuvar,
14. Asqadjumuk,
15. Shoushafar,
16. Turksebos,
17. Abdulla,
18. Mansur,
19. Iroq,
20. Muhammad,
21. Ahmad,
22. Abu Abdullah Muhammad

Masalan, Aqchaxon jaxon miqyosida «Ellin davriga» asos solgan Aleksandr Makedonskiyning O`rta Osiyo milloddan avvalgi 328 yili Shu vaqtdagi belgili hukmdorlarning biri bilan yuqori darajada uchrashuv bo`lib o`tdi. Uchrashuvda belgili grek tarixchisi Arrianning yozishicha, Qora dengiz bo`yidagi xududlarga bostirib borish masalasi qaraldi. Lekin greklarning Xindistonga yurishi natijasida Kavkaz masalasi keyinga qoldirildi. Bundan avval 329 yili bo`lib o`tgan ushbu uchrashuvni tashkillashtirilgan, shu vakttda O`rta Osiyoda mustaqil davlat Xorazm podshosi Farasmanning poytaxt shaxri tarixda xozirgi vaqtga qadar jumboq bo`lib kelayotgan masalalarning biri hisoblanadi.

Gekatey, Miletskiy, Ktesiy, Ksenafont, Kvint Kurtsi kabi qadimgi grek olimlari yoki ulardan keyin Pompey, Torg, Strabon, Pleniy Starshiy, Polibiy, Diador, Arrion, Ptelemey kabi grek rim olimlarining mehnatlarida Xorazm davlati Xorazm shahri, xorazmliklar degan ma'lumotlardan boshqa faktlar uchrata olmaymiz. Masalan: Gekatey Miletskiy shu vaqtdagi janubiy Orol bo'yidagi davlatni «Xorazm» deb atab qolmay uning paytaxtini ham shunday atagan.

Agarda O'rta asr arab fors tarixchi, geograflari asrlariga nazar tashlaydigan bo'lsak ularda ertadagi mualliflarga qaraganda bir qancha aniq ma'lumotlarni uchratishga bo'ladi. Masalan: o'zlari IX-X asrlarda yashaganiga qaramastan at tabariy va al maqubiylar VI-asr oxiri va XIII asr boshlaridagi poytaxning fir (l) qal'a ekanligini ko'rsatadi.

XI asrda yashab o'tgan Abul Fazl Baygaxining ko'rsatishicha poytaxt Xorazm qal'asi bo'lgan. Yuqorida keltirgan ma'lumotlar orasida arab geografi Ibn Haykal tomonidan yozib qoldirgan ma'lumot alohida ahamiyatga ega. Bu geografning ko'rsatishicha davlatning dastlabki poytaxti «Darjash» deb atalib, o' belgisiz sabalarga ko'ra buzilishi bilan o'ning yonida Kat nomi bilan yangi qal'a tiklandi.

Mo'g'ullar bosqini oldidan Orol bo'ylarida bo'lgan XIII asrdagi belgili arab geografi va adabiyotchi, tarixchi Iako't eski Fir (l) shahrining uning vaqtida Almansura atalganligini ma'lum qiladi.

1.2. Mavzuning tarixshunosligi

Xorazm shaharlari tarixi Matyoqub Madaminovning kitobida juda yaxshi, kompleks o`rganilgan. U quyidagi fikrlarni ilgari suradi<sup>6</sup>. Miloddan avvalgi 1 ming yillik boshlarida O`rta Osiyoda Xorazm bilan bir qatorda Baktriya, Areya, (Ariana), Parfiya, Girkaniya, Marg`iyona, Suguda, Farg`ona kabi viloyatlar mavjud bo`lgan. Xorazm Ahmoniylar bosqiniga qadar (miloddan avvalgi VI asr), o`lka asosiy qismini birlashtirib turuvchi siyosiy markaz hisoblangan.⁷ Qadimgi Xorazm hududida eramizning XIV asrlarigacha 64 qal`a aniqlangan bo`lib, shulardan 32 qal`a bo`yicha ko`pgina ma`lumotlar mavjud. 20 tasida statsionar arxeologii qazishmalar bajarilgan.

«Katta Xorazm» birlashmasi, mashhur olimlarimiz A.Asqarov va T.Shirinovlarning fikrlari bo`yicha miloddan avvalgi 545-539 yillar oralig`ida Axamoniylar tomonidan istilo qilinib, uning XUT-satropligi aylantirilgan⁸.

1936-1937 yillari Xorazm vohasida birinchi uzbek arxeologi akademik Yahyo G`ulomov tadqiqot ishlarini boshladi. U 1937 yili eski Kat qal`asining mudofaa devorlarida kuzatuv ishlari olib bordi. Katning shimolida joylashgan Pil-Fir qal`a to`g`risida, yozma manbalar asosida va arxeologik kuzatuvlar natijasida o`zining muhim fikrlarini bildirdi.

1937-yildan boshlab, Xorazm vohasida professor S.P.Tolstov boshchiligida Xorazm arxeologik etnografik ekspeditsiyasi o`z ishlarini boshlaydi. Shu ekspeditsiyaning ilmiy xodimi A.Terenojkin 1937 yili Qoraqalpog`iston Respublikasining Beruniy va To`rtko`l (qisman hozirgi Ellikqal`a) rayonlarida arxeologik tekshiruv ishlarini olib bordi. Uning fikricha, Kat qal`asining qadimgi bo`lagi bo`lgan Pil qal`a o`ziga xos qurilishga ega bo`lib, milodiy III-IV asrlarda vujudga kelgan. Shabboz qal`asining mudofaa devorlari, Kechirmasbobo, Shayx-Abbos Valiy makbaralarining paydo bo`lgan vaqtini u eramizning XVIII-XIX asrlaridan ilgari

⁶ Мадаминов М. Хоразмнинг қадимий ва ўрта асрлар шаҳарсозлиги тарихи. -Т., «Истиқлол»-2009. 62-63-бетлар.

⁷ Азамат Зиё. Ўзбек давлатчилиги тарихи. -Т., «Шарқ», 2000, 28-6.

⁸ Мадаминов М. Хоразмнинг қадимий ва ўрта асрлар шаҳарсозлиги тарихи. -Т., «Истиқлол»-2009. 14-бет.

bo'lmaganligini qayd qildi. Shuningdek, A.Terenojkin Xorazmning XI-XII asrlardagi turar-joylari bo'yicha ish olib borib, ularni to'rt turga (tipga) bo'lgan⁹.

Qoraqalpog'istonda 30-yillardan boshlab arxeologik tadqiqot ishlarini olib borgan akademik Ya.G'.G'ulomov o'z vaqtida grek Gekatey Miletskiydan belgili qadimgi poytaxt qal'ani ulkamizning Beruniy tumani xududida tadqiqot ishlarini olib boshlashni taklif etgan. Professor S.P.Tolstov o'zining 1937-yildan boshlab olib borgan arxeologik tadqiqotlarning dastlabki natijalari asosida poytaxning 305 yili Tuproqqal'adan Pilqal'aga ko'chirilganligi haqqida fikr yuritadi, lekin keyingi yillardagi tadqiqotlar shuni ko'rsatadikiy Tuproqqal'a poytaxt emas, davlatning diniy marosimlarini o'tkazadigan markazi ekanligi aniqlandi. Akademik A.Asqarov tomonidan qadimgi poytaxning qo'y qirilgan qal'a bo'lishi mumkinligini ham aytgan.

Shu keyingi yillari o'lkamizda Qoraqalpog'iston Avstraliya xalqaro arxeologik ekspeditsiyalar, tadqiqotlar olib borilmoqda. Ular poytaxt qal'ani aniqlashda avalgilardan boshqacha yo'l tutti, ya'niy potsho yoki xon nomi bilan bog'liq estaliklarni izlashni maqul ko'rdi va shu bo'yicha ilimiy ma'lumotlar bilan rivoyatlar, afsonalar taqqoslashi natijasida huqumdor nomi bilan bog'liq estalikning hozirgi Beruniy tumani xududida hammasi belgili bo'ldi. Ushbu tumanning «Ozod» kolxozi xududida joylashgan Aqchaxon qal'asi bo'lib hisoblanadi.

Aqchaxon ismini qoraqalpoq xalq dostonlari ichida «Qublon» dastonida ham uchratamiz.

1913-yili ulkamizda tuproqshunos bo'yicha tadqiqot ishlarini olib borgan olim agranom N.A.Dimo yozib qoldirgan kundaliklari orasida hozirgi Beruniy xududi bo'yicha quydagi ma'lumotlarni uchratamiz. «Sho'raxon» uchastkasiga tegishli

⁹ Мамбетуллаев М, Юсупов Н, Хожаниязов Ф., Матрасулов Ш. Хива по итогам исследований 1984 года. Вестник КК ФАН УзССР, №3, 1985, с 76-84; №2, 1986, с. 34-40; Мамбетуллаев М., Ягодин В.Н. К оценке хронологии и исторической динамики культурного слоя древней Хивы. ОНУз, №8,1986, с.43-51; Мамбетуллаев М, Ходжаниязов Ф. Работы Хивинского отряда, археологические открытия. 1984 года. М., «Наука», 1986, Мамбетуллаев М, Матрасулов Ш. Изучение стратиграфии г Хивы. Вестник КК ФАН УзССР, №3, 1988, с. 80-85; Мамбетуллаев М. Разрез крепостной стены Ичанкалы. Вестник КК ФАН УзССР, №4, 1989; Мамбетуллаев М. Раскопки оборонительных сооружений Хивы. Вестник КК ФАН УзССР, №4, 1992; Мамбетуллаев М. История и культура Южного Хорезма античной эпохи, (города и поселения в IV в до н.э. - Бга.н.э.) АДЦ. -Т., 1994, с. 7-10.

boʻlgan qadimgi dehqonchilik erlarida eski qoʻrgʻonlarning, hovlilarning har xil eski qurilishlarda tomorqa va ariqlaring qoldiqlari juda koʻp. Hamma joyda kulol va shisha idishlarning siniqlarini uchratish mumkin. Ularning ichda «istemes» koʻli boʻyida joylashgan boshqa qoʻrgʻonlardan oʻzining kattaligi bilan ajralib turadigan «Aqchaxon qalʼa» oʻrnatilgan. Shu joyda filolog olimlar S.Bahadirova va K.Mambetnazarovlar tomonidan afsonalar yaratildi.

II-BOB. ELLIKQAL`A VA BeRUNIY TUMANLARIDAGI TARIXIY ARXeOLOGIK QAL`ALAR VA ULARNING ARXeOLOGIK JIHATDAN O`RGANILISHI.

2.1. Ellikqal`a va Beruniy tumanlaridagi tarixiy-arxeologik maskanlar haqida afsonalar.

Xorazm va Kat xaqida afsona. Xorazm va xorazmliklar to`g`risidagi afsona X asrning oxirlarida arab sayohatchisi al-Makdiysining «Ahsan at-taqosim fi-Mamarifat Al-Aqolim» - nomli geografik asarida keltirilgan. Aytishlariga qaraganda, qadimda Sharq mam-lakatlaridan birining podshosi o`zining yaqin amaldorlaridan 400 kishidan qahrlanib, ularni aholi yashaydigan erdan 100 farsah uzoqlikdagi erga olib borib tashlashni buyurgan emish. Bu hozirgi Kas (Kat, Beruniy) qal`asi o`rniga to`g`ri kelar ekan. Ko`p vaqt o`tgandan keyin podsho u erga odamlarini yuborib, ko`rib kelishni buyurgan. Podsho odamlari ularning tirik ekanini, o`zlariga chayla, qopqon qurib, baliq tutib hayot kechirayotganini kuribdilar. U erda o`tin ko`p ekan. Ular qaytib kelgandan keyin podshoga ko`rganlarini aytib beribdilar. Shunda podsho so`rabdi, ular go`shtni nima dey-ishadi? «Xur yoki xvor» deb javob berishibdi. Podsho yana o`tinni nima deb ataydilar deb so`rabdi. Elchilar «razm» deb javob beribdilar. Shunda podsho: «Ularga u mintakani berdim va u erlarni «Xorazm» deb ataymiz», - debdi. Podsho ularga 400 turk qizlarini eltib qo`yishni buyuribdi, shuning uchun ham ularning tashqi qiyofasi turklarga o`xshaydi. Rivoyatda aytilishicha, podsho ularga Amudaryodan kanal ham o`tkazib bergan emish. Shundan so`ng, Xorazmliklar dare atrofida shaharlar kurib, tirikchiliklari rivojlanib ketibdi. Balxan esa, suvsizlikdan cho`listonga aylanibdi. Mening eshitishimcha Nisa va Abivardning aholisidan ayrimlari borib, Balxan atrofidan qushlarning tuxumini yig`ib kelarmish. Ularning ayti-shicha, sigir va otlari yovvoyilashib ketibdi. Men ulardan: «Nima uchun sizlarning boshlaringiz cho`zinchoq boshqalarnikidan ajralib turadi»- deb so`radim. Ular shunday javob berishdi: «Bizda kadimda uch narsaga amal kilingan, buning yordamida boshqalardan ustun bo`lib, g`alaba qozonilgan. Birinchisi: Biz dushmanlarga asir tushib qolsak, ular bizlarni qulga aylantirib sotishgan. So`ng bizlarning ulamo va hokimlarimiz ayollarga: «...bola

tukkanlaringizda xaltacha tikib, unga kum solib bola yotganda boshiga bog`lab ko`ying»,- deyishgan. Shu sababli, boshimiz uzunchoq bo`ladi va shu belgidan bizlarni tanib qulga aylantirmasdan, kaytarib yuborishgan. Ikkinchisi: tan-glpi 4 danak og`irlikda zarb etishgan, shuning uchun ham savdogarlar tangani olib ketisha olmaydi. Xorazmga kumushni boshqa mamlakatlardan olib kelishadi. Uchinchisini unutdik.

Shuni bilib qo`yingki, sharkda Xorazm, g`arbdagi Sidjilmasa o`xshaydi. Xorazmliklarning xulki va odatlari berberlarga o`xshaydi. Xorazm er maydoni 80 x 80 farsah, qishloq va qal`alari bir-biriga yaqin joylashgan, ariq, anhorlari ko`p, qo`ylari ham serob. Xorazm turklar bilan savdo qiladi. Ularning poytaxtini Kas deb atashadi».

Xorazmning o`rta asrdagi poytaxti Kat qal`asi to`g`risidagi afsonaviy ma`lumotlarning asosiy mazmuni qal`a nomining kelib chiqishi haqida bo`lib, uning qachon, kim tomonidan bunyod qilganligi noma`lum. Ammo, milodiy 305 yili Xorazmshoh Afrig` shu erda o`ziga maxsus saroy kurdigani al-Beruniy tomonidan yozib qoldirilgan.

Shunga qaramay ularni diqqat bilan o`rganilsa, muhim bir xulosaga kelishimiz mumkin. Bu ham bo`lsa, Xorazm mintakdsidagi o`troq hayot, shaharsozlik, davlatchilik, poytaxt vazifasini o`tagan shaharlar barpo qilish tarixan uzok o`tmishga borib taqaladi. Bu qadar qadimiy asoslar zamonlar osha chin ma`nodagi xotiralardan ucha boshlab, rivoyatlar va afsonalar bilan bezalgan shaklda tarixga guvoxdik berib turibdi.

Xorazm arxeologiya - etnografiya ekspeditsiyasining topografik tekshiruvlar bo`limi 1956 yili B.V.Andrianov tomonidan sug`orish inshootlari bo`yicha olib borilgan tadqiqotlar jarayonida Beruniy tumanidagi «Ozod» jamoa xo`jaligining shimoli-sharkidagi baland qizilqum barxanlari orasida Akchaxon yodgorligi ochilib, topografik xaritaga tushiriddi va kushonlar davri bilan sanaldi. Shu bilan birga bu erlarda qadimgi sug`orilgan erlar va Toshxirmon tepaligi ochildi.¹⁰

¹⁰ Ходжаниязов Ф.Х. «Акчакон» ёки тарихда минг йил жумбоқ бўлиб келган номаълум қалъа ҳақида. Жайхун №1 Нукус 1999, 14-19-б. Андрианов Б.В. Древние оросительные системы Приаралья. М., «Наука», 1969, с. 135.

IV-X asrlarda Kat Xorazmning poytaxti bo'lganligini arxeologik tadqiqotlar olib borgan tanikli olimlar ham o'z asarlarida tasdiqlaydilar. Uning eski bo'lagi Pil kal'ada esa, miloddan avvalgi 1V-III asrlar va milodiy VI-VIII asrlar davomida hayot bo'lgan.

Ellikqal'a va Beruniy tumanlaridagi yodgorliklarini arxeologik jihatidan muntazam o'rganish XX asrning 30-yillari o'rtalaridan boshlandi va bu ish hozirgacha davom etmokda. Uni to'rt bosqichga bo'lish mumkin: urush davrigacha (1936-1940 yillar) olib borilgan tadqiqotlar; urushdan keyingi davrda (1945-1958 yillar) olib borilgan tadqiqotlar; 1959-1990 yillarda olib borilgan tadqiqotlar va mustaqillik yillarida olib borilayotgan tadqiqotlar.

Bu o'lka yodgorliklarini tadqiq qilishning birinchi va keyingi bosqichlari akademik Ya.G'.G'ulomov, S.P.Tolstovlarning nomi, sobiq SSSR FA EI Xorazm arxeologiya ekspeditsiyasi faoliyati bilan bog'liq. 1936-1940 yillarda qadimgi Xorazmning Katta Guldursun, Pil qal'a, Hazorasp, Qal'ajiq, Olmaotishkan, Xiva, Jigarband va boshqa shaharlari Ya.G'.G'ulomov tomonidan o'rganildi. Olim o'sha paytdayoq Xiva shahri kushonlar davrida Ichan qal'a doirasida qisman saqlanib qolgan mudofaa inshootlari negizida qurilgan, deb hisoblangandi. Ya.G'.G'ulomovning «Xorazmning sug'orilishi tarixidan» asari 50-yillar boshida so'l sohil Xorazm yodgorliklari gidrografiya va tarixi bo'yicha barcha materiallarni, shu jumladan yozma manbalar hamda etnografiya materiallarini ham o'z ichiga olgandi. Ya.G'. G'ulomov 1936 yilda Hazorasp qal'asini tekshirib, u mil. avv. IV-III asrlarda yuzaga kelgan deb oldindan belgilab bergandi (Gulyamov, 1941, 4-bet; 1957, 82-83-betlar, 141 va keyingi betlar).

1937 yilda professor S.P.Tolstov rahbarligi ostida Xorazm arxeologiya (1945 yildan arxeologiya-etnografiya) ekspeditsiyasi tuzildi. Shundan so'ng Orolbo'yi yodgorliklarini muntazam tadqiq qilish ishlari jadal boshlab yuborildi. Xorazm arxeologiya eks-peditsiyasi dastlabki yillardan boshlab shug'ullangan ilmiy muammolar orasida Xorazmdagi musulmonlikka bo'lgan yodgorliklar tarixi muhim o'rin tutdi. Ekspeditsiyaning birinchi mavsumi ochil-gach, I-III Ayoqzal'a, Duman qal'a, Jildiq qal'a rekognostik tarzda tekshirildi, Ya.G'.G'ulomov boshlagan

Katta Guldursun va Pil qal'a vayronalarini tekshirish ishlari davom ettirildi. Antik davr Xorazm yodgorliklari tavsifining ilk bor berilishi bu ishning juda muhim natijasi bo'ldi. Umuman arxeologiya qidirish ishlari yakunlari Qoraqalpog'iston Respublikasi To'rtko'l - bir qismi hozirgi Ellikqal'a va Shabboz tumanlarining shimoli-sharqidagi cho'l joylar qadimdan sug'orilgan erlar bo'lganligini ko'rsatdi (Terenojkin, 1940, 165-190-betlar).

Xorazm ekspeditsiyasining S.P.Tolstov, Ya.G'.G'ulomov va e.A.Polyakovdan iborat tarkibdagi qidirish guruhi 1938 yilda ishni davom ettirdi. Antik yodgorliklardan Qo'yqirilganqal'a, Qo'rg'oshin-qal'a, Bozorqal'a, Jonbosqal'a, Qizilqal'a, Tuproqqal'a¹¹, Katta va Kichik Qirqqiz, Anqaqal'a, Qo'ziqirilganqal'a tekshirildi (Vakturskaya, Vorob'eva, 1952, 615-616-betlar). Bu ish natijasida mil. avv. IV asr-mil. IV asr yodgorliklari katta majmui va ularning sanasi aniqroq belgilandi (Tolstov, 1939, 172-199-betlar).

1939 yilda Xorazm ekspeditsiyasi arxeologik qidirish ishlarini uch yo'nalishda olib bordi. Birinchi yo'nalish Amudaryoning Chorjo'ydan To'rtko'lgacha bo'lgan har ikki sohilini o'z ichiga oldi. Natijada o'ng sohiddagi Ustik, Tuproqqal'a (o'ngsohil), Doshqal'a va so'l sohildagi Qo'shqal'a I, Tuproqqal'a (so'lsohil), Doyaxotin, Jigarband, Hazorasp qal'alari tekshirildi. Uchinchi-Charmanyob yo'nalishida Ko'narliqal'a, Dovdanqal'a, Qal'aliqir I va 2, Ko'hnavaz: Ko'zaliqir, Shohsanam, Zamaxshar, Govurqal'a 1 va 2 tekshirildi.

Ikkinchi yo'nalish o'ng sohil Xorazmning qadimgi sug'orilgan erlarini qamrab oldi. Bu erlarning tarhi chizildi, batafsil arxitektura o'lchovi o'tkazildi (Jonbosqal'a, Ayozaqal'a 1 va 3 va b.), terma material yig'ildi (Bozorqal'a, Qo'yqirilganqal'a, Anqaqal'a, Pilqal'a), Ayozaqal'a 3 va Jonbosqal'ada qazish ishlari olib borildi. Qadimgi sug'orish tizimini tadqiq qilish natijasida o'rta asrlarga oid manbalarda

¹¹ Хоразм воҳасида 7 та қадимги қалъа Тупроққалъа номи билан аталади. Биринчиси мил. I-III асрларга тааллуқли бўлиб, Эллиққалъа тумани ҳудудида (Қорақалпоғистон Республикаси); иккинчиси мил. avv. IV-III асрларга мансуб бўлиб, Хоразм вилоятининг Шовот тумани ҳудудида, учинчиси мил. avv. IV-III асрларга тааллуқли бўлиб, Хива тумани ҳудудида, тўртинчиси ҳам мил. avv. IV-III асрларга мансуб бўлиб, Янгиарик туманида, бешинчиси мил. avv. IV-III асрларга тааллуқли бўлиб, Хазорасп туманида жойлашган, олтинчи ва еттинчилари мил. avv. V-IV-III асрларга мансуб бўлиб Туркменистон Республикаси Тошҳовуз вилояти ҳудудида жойлашган.

qayd etilgan Amudaryo o'ng sohilidagi ka-nallar o'rnini aniqlash mumkin bo'ldi (ershov, 1941; Tolstov, 1941; Vakturskaya, Vorob'eva, 1952, 618-621-betlar).

Ekspeditsiya 1940 yilda o'zining asosiy ish hududida-Amudaryo o'ng sohilidagi qadimgi sug'orma erlarda qazish va qidirish ishlarini olib bordi. 1938 yilda aniqlangan Tuproqqal'a shahristoni tekshirildi. Bu erda kech antik Xorazm shahari tarhi ilk bor aniqlandi. Anqaqal'a, Qavatqal'a, Qo'yqirilganqal'alar tarhi istiqbolni mo'ljallab chizildi, Bozorqal'ada terma material yig'ildi, shurf qazildi. Eresqal'a, Qavatqal'a shahristoni, Dumanqal'a va janubi-sharqiy Qoraqalpog'istonning boshqa yodgorliklari sxematik tarhi chizildi, arxitektura o'lchovlari o'tkazildi.

Shunday qilib, ikkinchi jahon urushi boshlanguniga qadar Xorazm arxeologiya ekspeditsiyasi xodimlari tomonidan qadimgi Xorazmning ko'plab yodgorliklari oldindan o'rganiddi. Natijada Xorazm madaniyatining mil. avv. IV-III asrlardan mil. XIV asrgacha bo'lgan davrni qamrab oluvchi tavsifi ilk marta yuzaga keldi.

Urushgacha bo'lgan davrda olib borilgan ishlar yakuni S.P.Tolstovning «Qadimgi Xorazm» monografiyasida berildi (M., 1948). Hozirgi mezonlarga ko'ra juda kam bo'lgan arxeologik material asosida Xorazm tarixi eng qadimgi zamonlardan o'rta asrlargacha davrlashtirib berildi. Antik Xorazm yodgorliklari tarixiga ayni shu kitobda birinchi darajali ahamiyat qaratildi va mudofaa inshootlarining tarixiy sharhi hamda tasnifi keltirildi. Harbiy istehkomlar masalalaridan tashqari qadimgi Xorazm harbiy ishi va qurollari sohasida ham qiziqarli fikrlar aytiladi. Antik Xorazm to'rt davrga bo'lindi: uy-joy devorlari bo'lgan shahriston madaniyati (mil. avv. VI-IV asrlar), «Qanhxa» madaniyati (mil. avv. IV asr-mil. I asr), «kushonlar» madaniyati (mil. II-III asrlar) va «kushon-afriq» o'tish madaniyati (mil. III-V asrlar). Bundan tashqari, 1950 yilda V.Ogorodnikovning S.P.Tolstovning mazkur asariga yozilgan taqrizi e'lon qilindi (Ogorodnikov, 1950).

Ikkinchi bosqich urushdan keyingi yillar bo'lib, bu bosqichda Xorazm arxeologiya ekspeditsiyasi keng ko'lamda ish olib bordi. Bunda Xorazmning qadimgi va o'rta asrlar yodgorliklarini aniqlash hamda o'rganish ham muhim o'rin

tutdi. Ayni mahalda kech antik davrda Xorazm qal`asozligining cho`qqisi bo`lgan Tuproqqal`a shahristonida ko`p yillik statsionar qazish ishlari boshlandi. 1946 yildan o`ngsohil va so`lsohil Xorazm yodgorliklari arxeologik aviaraz-vedka qilindi va suratga olindi. Qoraqalpog`iston Respublikasining qadimgi sug`orma erlari, Turkmanistonning Toshhovuz viloyati shimoliy chekkalari, shuningdek Quyi Amudaryo ilk bora arxeologik aviarazvedka qilindi va suratga olindi.

Ko`zaliqir va Qal`aliqir-1 shahristonlarini tadqiq qilish natijasida qadimgi Xorazmning arxaik davriga kirib boradigan harbiy istehkomlar tizimining ko`plab xususiyatlari ma`lum bo`ldi (Tolstov, 1958, 143-163-betlar; 1962, 98-104-betlar). Qo`yqirilganqal`a ibodatxona-maqbara istehkomida 1951-1957 yillardagi qazish ishlari davrida qiziqarli material qo`lga kiritildi (KPDX, 1967). Arxeologlar Yu.A.Rapoport va S.V.Trudnovskayalar tomoni-dan olib borilgan ishlar Sulton Uvays tog`idagi Govurqal`a har-biy istehkom inshootlari xususiyatini ko`rib chiqishda katta yordam beradi (Rapoport, Trudnovskaya, 1958, 347-366-betlar).

Xorazm ekspeditsiyasi xodimlari 1958 yildan boshlab qadimgi Xorazmning hozirgi madaniy zonada joylashgan arxeologik yodgorliklarini qazishga kirishdilar. Shulardan biri Xorazm viloyati Hazorasp tumani markazi hududida joylashgan Hazorasp qal`asi edi. 1959-1960 yillarda ham shahristonda qazish ishlari davom etdi. Qal`a devorlari mil. avv. IV asrdan mil. XIX-XX asrlargacha bo`lgan davrda ko`p marta qayta qurilgani va ta`mirlangani ma`lum bo`ldi (Vorob`eva, Lapirov-Skoblo, Nerazik, 1963).

O`rta asrlarga oid Shohsanam shahar-qal`asida olib borilgan qazish ishlari natijasida ilk antik davrdan to mo`g`ullar istilosigacha bu erda hayot uzluksiz davom etgani aniqlandi. Otish yo`laklari va nayzasimon shinaklari bo`lgan, ko`rib chiqilayotgan davrga taalluqli qal`a devorlari ochildi (Rapoport, 1958, 405-406-betlar). Yangi antik yodgorliklar (Bo`ldimsoz, Mang`ir qal`a, Kaparas va b.) aniqlandi.

Uchinchi bosqichda olib borilgan ishlar natijasida qadimgi Xorazm yodgorliklari tadqiqoti ancha kengaydi. Tuproqqal`a (GTK, 1981; TKD, 1984), Ko`zaliqir (Vishnevskaya, 1971; 1972; 1978; 1979), Qal`aliqir 2 (Vaynberg, 1987),

Xivadagi Tuproqqal`a (Lapirov-Skoblo, 1969), Govurqal`a 3, Qo`rg`oshinjal`a (Kolyakov, 1986, 1991), Kichik Qirqqizqal`a (Gertman, 1987) istehkomlari batafsil o`rganildi. Antik istehkom Kaparas (1971 -1975), elxaras majmuida (1973- 1975) qazish ishlari olib borildi. O`rta asrlarga oid shaharlar Jigarband (1974-1976) va Sadvarda (1972-1975) ilk antik davr Xorazm harbiy istehkomlari printsiplariga to`liq javob beruvchi qadimgi istehkomlar borligi aniqlandi (Tolstov, Itina, Vinogradov, 1967, 303-307-betlar; Itina, 1975, 193-207-betlar; Vishnevskaya, 1975; 1976; DYuX, 1991, 15-20-betlar).

Xorazm ekspeditsiyasining urushdan keyingi davrda olib borgan ish yakunlari S.P.Tolstovning «Oks va Yaksartning qadimgi del`talari bo`ylab» (1962) kitobida, Xorazm ekspeditsiyasining o`n bir jildidan iborat asarlarida, ekspeditsiya materiallari chop etilgan o`nta kitobda, ekspeditsiya xodimlarining monografiya va maqolalarida berilgan. Ular orasida qadimgi Xorazmning alohida yodgorliklari: Sulton Uvays tog`idagi Govurqal`a: Ko`zaliqir, Ko`hnauaz, Shohsanam va boshqalarda olib borilgan arxeologik qazish ishlari natijalariga bag`ishlangan materiallar bor (TXAEE, I-XI. t., M., 1952-1979; MXE, I-X kitoblar. M., 1953-1975).

Qadimgi Xorazm harbiy istehkomlarini o`rganishda katta ahamiyatga ega bo`lgan qurilish texnikasi va materiallariga alohida maqola va maxsus dissertatsiya bag`ishlangan (Voronina, 1952; Gertman, 1989 va b.).

Qadimgi Xorazm istehkomlari bilan bevosita bog`liq qishloq manzilgohlari to`g`risidagi urushdan oldingi va urushdan keyingi ma`lumotlar e.e.Nerazikning kitobidagi (1976) antik davr manzilgohlariga bag`ishlangan bobda umumlashtirib berilgan. Qishloqlar faqat istehkomli yirik manzilgohlar (Katta Guldursun, Bozorqal`a, Tuproqqal`a va b) atrofida emas, balki kichik hajmdagi manzilgohlar (Qo`rg`oshintepaqal`a, Jonbosqal`a va b.) atrofida ham qad ko`tarib borganligi aniqlandi. Bu istehkom manzilgohlar bir paytlar voha tizimini tashkil qilgan va alohida kanallardan sug`orilgan. Ularning har biri muayyan vohaning markazi bo`lgan.

Qadimgi Xorazm yodgorliklarini o'rganishning uchinchi bosqichi ham O'zbekiston Fanlar akademiyasi Qoraqalpog'iston filialining N.Davqoraev nomidagi Tarix, til va adabiyot instituti (1991 yildan e'tiboran O'zFA Qoraqalpog'iston bo'limi Tarix, arxeologiya va etnografiya instituti) xodimlarining ishi bilan bog'liq.

70-yillar boshidan qadimgi Xorazm yodgorliklari keng ko'lamda o'rganila boshlandi. Arxeologiya ishlari asosan Amudaryoning so'l sohilida avj oldirildi.

Qadimgi Xorazm harbiy istehkomlari hamda qurilish texnikasi masalalari «Arxeologiya SSSR» monografiyasida ham ko'rib chiqilgan (Yagodin va b., 1985, 323-328-betlar).

Muallif harbiy istehkomlar masalasini bundan buyon ham har tomonlama o'rganish zarurligini hisobga olib, 1974-2006 yillarda ham mustaqil, ham O'zbekiston Fanlar akademiyasining Qoraqalpog'iston filiali Tarix, til va adabiyot instituti arxeologiya otryadlari tarkibida qadimgi Xorazm harbiy istehkom inshootlarida tadqiqot ishlarini olib bordi. Katta va Kichik Qirqqiz-qal'a, Qo'rg'oshinqal'a, Eresqal'a, Ayozaqal'a 3, Anqaqal'a, Qizil-qal'a, Sulton Uvays tog'idagi Govur qal'a, Oqshaxon qal'a va qadimgi Xorazmning boshqa mudofaa inshootlari o'rganildi.

Qo'rg'oshinqal'a, Katta va Kichik Qirqqizqal'a, Qizilqal'a, Anqaqal'a va boshqa qal'alarda qadimgi Xorazm harbiy istehkomlari bo'yicha ilgari ma'lum bo'lmagan materiallar qo'lga kiritildi (Xodjaniyazov, 1981; 1984a; 1986; 1995; Xodjaniyazov, Manmlov, 1983 va b.).

Qadimgi Xorazmning eng yirik shaharlaridan biri-Oqshaxon-qal'ada (mil. avv. IV-III asrlar-mil. IV asr) boshlagan qazish ishlari istiqbolli bo'lishi mumkin, bu erda mudofaa tizimining yangi elementlari aniqlandi. Oqshaxonqal'aning mintaqaviy «Tashqi»-uzun devori topildi (Xodjaniyazov, 1995).

Oqshaxon qal'ada 1995 yildan boshlab O'zbekiston Respublikasining mustaqillik yillarida qadimgi Xorazm shaharlarini tadqiq qilishning so'nggi bosqichi to'g'ri keladi. Zero, mamlakatimiz mustaqillikka erishganligi sharofati bilan bu

borada chet ellik olimlar bilan birgalikda ishlashimiz uchun keng yo`l ochildi. O`zbekiston Fanlar akademiyasining Qoraqalpog`iston bo`limi Tarix arxeologiya va etnografiya instituti va Avstraliyaning Sidney universiteti olimlari hamkorlikda arxeologik tadqiqotlar olib borishmokka (Yagodin, Xelms, Xodjaniyazov, 1996 va b.)

Biz yuqorida qadimgi Xorazmda olib borilgan arxeologik tadqiqotlarni qisqacha tahlil qildik.

2.2. Ellikqal`a va Beruniy tumanlaridagi tarixiy obidalarning arxeologik jihatdan o`rganilishi.

Arxeologik izlanishlar natijasida qadimgi qal`alar o`rganilib, ilmga katta yangilik kiritildi. Shularning biri:

Qavat qal`a №2 - b.e.d IX-VIII asrlarga tegishli bo`lib, maydoni 250 x 260 metrni tashkil etadi. Qavat qal`adan 2 kilometr janubiy sharq tomondagi hududidan idish siniqlari, qal`a qoldiqlari, har xil suyaklar topilgan. Bu erda topilgan ashyolar «Amirobod madaniyati»ga xos bo`lib, b.e. bo`lgan davrning IX-VIII asrlarga tegishli degan xulosaga kelingan. [materialy. 1986]

Qavat №3 - b.e.davrnin g ikki minginchi yillarning boshiga to`g`ri keladi. Maydoni 12 x 11 metrni tashkil etadi.

Makon joy-ularning ba`zilari erto`la shaklida ishlanib, uning ichida er o`choq, har xil chuqurlar mavjud. Joyning ichida yirik qora mollarning va mayda jonzotlarning suyaklari, temirdan ishlangan pichoq, cuyak bigizlar, idish, siniqlari topilgan. Ulardan tashqari loydan ishlangan kichkina ot shaklidagi o`yinchoq topilgan. Topilgan idishlarning soni 200 donaga etgan. Ular «Toza bog`yop madaniyati»ga tegishli bo`lib, 1956, 1957, 1956 yillari ilmiy izlanishlar olib borilgan.

Qavat qal`a №5-b.e.davrnin g IV minginchi yillariga to`g`ri keladi. Janubiy Aqchadaryo del`tasining g`arb tomonida joylashgan. Madaniy qatlamlar saqlanmagan. Bu erda maydalanib ketgan idish siniqlari, chaqmoq tosh bo`laklari uchrashadi. Hozirgi vaqtda bu er ekinzorlikga aylantirilgan. [Materialy. 1986]

Qavat qal`a №7-b.e. bo`lgan davrnin g IV minginchi yillari Ayir qal`adan 1 kilometr g`arbda madaniy qatlamlari joylashgan. Unda er o`choqlar, har xil chuqurlar, 200 donaga yaqin kuzalarning siniqlari topilgan. 3 mingga yaqin ishlatilgan chaqmoq toshlar topilgan. Ularning ichida bolta, burg`i, qirg`ich va hokazolardan iborat. 1958, 1959, 1960 yillari o`rganilgan. Hozirda bu erlarning hammasi ekinzorlikga aylantirilgan.

Temir davridan keyin Janubiy Orol bo'ylarida, shu jumladan hozirgi Ellikqal'a tumani hududida ajoyib qal'a qo'rg'onlar tiklanib, ularning aksariyati bizning vaqtimizgacha tabiatan yaxshi saqlangan. Aniqroq aytganda, O'rta Osiyoning qum barxanlari bilan ko'milgan bu estaliklar tabiyatning kuchli shamol va yomg'irlaridan yaxshi saqlangan.

Kichik Qirqqiz va katta Qirqqiz qal'a. Ellikqal'a tumani xududiga qarashli Buxan-merey sovxozining hududida katta va kichik Qirqqiz qal'a joylashgan bo'lib, qiyshiq doira, uchburchak shakliga ega bo'lgan ikki bo'lakdan iborat. Qo'rg'onning qiyshiq doiraga o'xshash asosiy bo'lagi bizning eramizgacha bo'lgan davrning IV-III asrlariga tegishli bo'lgan. Ikki qavatli o'q otish galeriyasi bizning eramizning boshiga kelganda pastgi qavatli to'rtburchakli xom g'ishtlar bilan qayta o'rigan va mustahkam qilib berkitib tashlangan. S.P.Tolstovning ko'rsatishiga qaraganda katta va kichik Qirqqiz qal'ada bizning eramizning I-IV asrida xalqlar yashagani aniqlandi. Ikkinchi marta VII-VIII asrlarda qaytadan ta'mirlanib qal'aning to'rt tomoni mustahkam g'isht bilan devor bilan o'ralgan. Devorga tutash ikki qavatli minoralarda teshikchalar ikki qator bo'lib, dushmandan qal'ani himoya qilish uchun foydalangan.

Qal'aning orqa devori o'rtasida kiradigan darvoza oldida labirint inshooti qurilgan. Kirish joyi qal'a devorining janub tomonida bo'lgan bo'lishi ehtimoli bor. Qo'rg'on katta bo'lmagan pastak tosh qir tepaligi ustida pishmagan g'ishtdan qurilgan. Qal'aning ichidan tuproq, g'isht qoldiqlarining topilishining o'zi, ular qurilish materiallari sifatida qo'llanilganligidan dalolat beradi.

Qal'aning qurilish rejasiga qaraganda tutash massiv joylashgan. Ko'proq mayda xonalar bo'lgan, g'ishtdan qurilgan katta xonada uy binosi joylashgan.

Qal'adan 30-50 metr janubda ko'p xonali bino bo'lib, undan temir qoldig'i uyimi va temir eritiladigan pech topilgan.

e.e.Nerazikning ko'rsatishiga qaraganda, qal'adan 3 kilometr janubiy g'arbda eramizning VII-VIII asrlarga tegishli temir tayyorlash va ishlov berish maydoni, 12 x 13 metr keladigan ustaxona qoldig'i topilgan.

1984 yilda Katta Qirqqizqal`a yaqinidagi taqirlikdan tangalarga liq to`la ko`za topilgan. Ko`za ichidagi mis tangalar ko`p asrlar davomida tuzli tuproq va nam ta`sirida chirib, maydalanib ketgan ekan. Tangalardan biri chirimay qorayg`an holatda bizgacha etib kelgan.

Uni avaylab tozalaganda mis tanganing oldingi tarafiga Xorazm podshohining o`ng tomonga qarab turgan saqolsiz rasmi tushirilgan. Uning boshidagi tojiga, quyoshga uxshash tushirilgan. Quyosh ustida yangi tug`ilgan oyning rasmi bor. Tanganing chap tomoniga chavondoz Siyavushning rasmi tushirilgan. Siyavush mingan otning oldingi tarafi Siyavush tomoniga qayrilib qarayotgan dutorga o`xshash musiqa asbobida qunt bilan musiqa chalayotgan yosh san`atkor ayol tasvirlangan. Bu san`at sohibasi boshiga qadimgi xorazmlik qizlar to`y va bayramlarda, sayillarda kiyadigan taxiya, egniga uzun va engil ustki kiyim kiygan.

Siyavushning qiyofasi juda xira ko`rinadi. Ot esa harakat qilib borayotgan tarzda tasvirlangan.

Tangadagi kompozitsiya islomgacha bo`lgan davrda xotin-qizlar juda nozik va sehrli hisoblangan. Musiqa va qo`shiq aytish, uyin o`ynash san`atlarini o`rganib olib, uni ko`pchilik oldida namoyish etib kelganini ta`savur qilishimiz uchun asos bo`ladi.

Ma`lumki, S.P.Tolstov o`zining «Drevnyaya Xorazm» nomli asarida ko`rsatishicha, Xorazm tangalarida soqolsiz podshoh tasvirlangan tangalar eramizning V-VI asriga to`g`ri keladi. Topilgan tangada soqolsiz podshoh rasmi bo`lganligi, Siyavush va musiqa chalayotgan ayol rasmi tushirilgan tomonida qadimgi xorazm yozuvi bitilganligi eramizning V-VI asrida yasalgan deyishimizga imkon beradi.

O`sha davr san`atining namunasi bo`lgan tangadagi musiqachi ayol tasviri qadimgi xorazmda xalq teatri san`ati juda qadimiy davrlardan boshlab taraqqiy qilib kelganligini ko`rsatadi.

Xudo siyavushning oldingi tomonidan joy olgan, uning hurmatiga, otga minib, sehrli kuy chalib, xudoni o`ziga sehrlab quygandek, ayol siymosi tasvirlangan.

Biz uchun qiziqarli tomoni shundaki, qadimgi xorazmliklar qiyofasi-tangadagi podshoh va otga o'tirib musiqa chalayotgan san'at sohibasi timsolida tasavvur qilishimizga imkon beradi. Podshohning qiyofasi hozirgi xorazmdagi yashovchi evropoid xalqiga mansub o'zbek va turkmanlarning aralash avlodiga o'xshab ketadi.

Xorazmda ishlangan tangalar o'ziga mos naqsh solinganligi, podshoh qiyofasi aniq aks etganligi, siyavush va uning otining rasmi tushirilganligi bilan boshqa tangalardan ajralib turadi. Tangadagi siyavush va musiqa xudosi, quyosh va oy tasvirlanishi islomgacha bo'lgan xorazmda ibtidoiy diniy tasavvurlar ilk o'rta asrlarda ham saqlanib kelganligidan dalolat beradi.

Kichik Qirqqizqal'a haqida mahalliy Buxan-Merey qishloq fuqarolari yig'ini turg'unlari haqida har xil rivoyat-afsonalar saqlangan. Kichik Qirqqizqal'a qadimgi davrlardagi «Qul qal'asi» deb atalgan va shu xududga yaqin joylashgan Ayazqal'a bilan bog'laydi. Haqiqatdan ham qal'aning nomi boshqa bo'lgan bo'lishi ham mumkin. Chunki, hozirgacha bizning eramizgacha IV-III asrlarda qurilgan Xorazmning bitta ham qal'asining nomi haqida man'balarida uchramadi. Yozma man'balarda davlat va uning poytaxt qal'asi «Xorazm» nomi bilan atalib kelinmoqda. Kichik Qirqqiz bilan katta Qirqqiz qal'alari qoraqalpoq xalq dostoni «Qirqqiz» bilan bog'liq bo'lishi ham ehtimoldan holi emas. [Materialy. 1986., Xojaniyazov. 1990]

Bo'rli qal'a. b.e. davrda IV b.e. va b.e. IV asrlar Bo'rliq tegishli qal'a, Beruniy shahridan 33-34 kilometr shimoliy g'arbda Sulton Uvays tog'i tepaliklarining birida joylashgan. Qal'a o'zi joylashgan erning rel'efiga qarab moslashib, maydoni 120 x 95 metrni tashkil etadi. Qal'a ikki qator g'isht devorlar bilan o'ralib, tashqi devorlarida o'q otish uchun merganlarga joylar qo'yilgan. Devor oralig'idagi uzun bo'yiga ishlangan dahlizlar gumbaz tarzida bostirilgan. Qal'aning darvozasi orqa tomonida joylashgan.

Bizni eramizgacha tegishli IV-III asrlariga tegishli uch turar joy o'rni tekshirildi. Izlanishlar natijasida qadimgi Xorazm yozuvining nusqasi, bezanish narsalari, xo'jalik buyumlari topildi. B.e. I asrida Bo'rli qal'a o'z himoyasini

yo`qotadi. Qal`a ichida antik davrga tegishli g`ishti, o`rta asrda solingan minor hammasi aniqlandi (Qal`a 1946, 1947, 1971 yillari o`rganilgan). [Materialy. 1986]

Bo`rli qal`a №2. I asrga tegishli bo`lib, Bo`rli qal`adan 2 kilometr g`arbda joylashgan. 4 m dan 7,5 metrgacha balandlikda tepa shaklida saqlangan. Ayrim joylarda uning ikki qator solingan devorlari ko`rinadi. Devorlar eni 39-40 x 39-40 m, qalinlig`i 12-13 sm bo`lgan katta xom g`ishtlardan terilgan. Qal`ada Kushan madaniyatiga xos idish siniqlari, har xil loydan ishlangan hayvonlarning haykallari topilgan. Bekinis 1947, 1948, 1971 yillari o`rganilgan.

Katta Guldursin qal`a. B.e.davr IV-III va b.e. XII-XIII asrlariga tegishli esdalik, u to`rtburchakli shaklda bo`lib, ko`lami 350 x 230 m. Qal`aning ikki qatorli eng avvalgi devorlari b.e.d IV-III asrlarda qurilgan. XII-XIII asrlarda qayta tiklangan. Bu davrda qo`rg`on tashqarisidan paxsa devorlar yopishtirilib solinishi bilan birga ayrim joylarda eski ichki devor buzib olib tashlangan. Shuning uchun qo`rg`on atrofi yangidan qo`shimcha bekinish minoralari va ikkinchi devorlar bilan o`rilgan. Qal`aning darvozasi uning g`arb tarafida joylashgan. Qal`a 1937, 1940 yillarda tekshirilgan.

Yildik qal`a. I asr. Qo`rg`on to`rtburchak shaklidan iborat bo`lib, ko`lami 50 x 50 m tashkil etadi, devorlarining balandligi 8 m. Qo`rg`on ikki qavatli bo`lib, uning ichida ko`plagan har xil xonalar mavjud. Qal`a ostida ertaroq davrga tegishli qoldiqlar bo`lishi mumkin.

XII-XIII asrlarda qo`rg`on qayta foydalanilgan. [Materialy]

Qirqqiz qal`a b.e.d. IV-III va b.e. V-VI asrlarda qal`a Buxan-Merey qishloq fuqarolari yig`ini joylashgan. Qo`rg`on to`rtburchakli shaklda bo`lib maydoni 250 x 215 m tashkil etadi. Qal`a ikki qavatli bo`lib, devor bilan o`ralgan. Har 25,5 m dan qo`rg`on devorlari bo`ylab to`rtburchakli ikki qavatli to`pxona bilan mustahkamlangan. Devorlar paxsadan va to`rtburchakli katta xom g`ishtlardan qurilgan. Hozir 10 metrdan ortiq balandlikda saqlangan. uning har bir qavati yog`och bilan bostirilgan bo`lib, unda o`q otish teshiklari va tarozi qo`yilgan.

Qal`aning shimoliy - sharqiy va janubiy - sharqiy devorlariga yopishtirilib saroy solingan. Darvoza qo`rg`onining shimoliy - sharqiy tomonida joylashgan. Qal`a ichidagi buzilgan joylarni qazib tekshirmay aniqlash qiyin. Qal`ada b.e.d IV-III, b.e III-IV asrlariga tegishli idish siniqlari ko`plab uchrashadi. V-VI va IX-XI asrlarga kelganda hayot uning faqat ma`lum bo`laklarida - saroyda bo`lgan bo`lishi, ehtimol.

**Qo`rg`oshin qal`a b.e.d. IV-III b.e. II asrlar.** Qal`a Ko`kcha posyolkasidan 5-6 kilometr janubiy - sharqda tabiiy balandlikda joylashgan. To`g`ri to`rtburchaklik shakldagi maydoni 132,9 x 89,2 metrga teng. Qal`ani o`rab turgan ikki qator devorlarning qalingligi 7 m, balandligi 14-16 m. Devorning pastgi tomoni paxsadan solinib yuqori tomoni katta xom g`ishtlardan o`rilgan. Qo`rg`on devorlarin bo`ylab qo`yilgan to`pxonlar va uning tashqarisidan qo`shimcha tiklangan devorlar qal`aning kuchli bekiniske ega ekanligidan darak beradi. Janubiy sharq tomonida joylashgan qal`aning darvozasi o`z oldiga kichkina bekiniske ega. Qo`rg`on devorlari ikki qavatdan iborat bo`lib, uning har tomonida devorni teshib ishlangan mergan joylar bor.

Qal`a 1938, 1968, 1981, 1983-84 yillari o`rganilgan.

Qo`rg`oshinqal`a b.e.d II b.e I asrlarga oiddir. Estalik Qirqqiz qal`aning oyoq tomonida, Qo`rg`oshin qal`aning janubiy sharqida va g`arb tomonida joylashgan. Ularning maydonining ko`lami 67 gektar. Alohida-alohida o`tirgan qonis makonning har biri o`zlarining hovlilariga, dehqonchilik erlariga ega. Estalik 1938, 1955, 1964, 1968 yillari o`rganilgan.

Izlanish davrida kompleksning Xivushka va Vima Kadfiz chiqargan tangalar, oltindan ishlangan arslon bolasining boshi (3x2,5 sm) topilgan.

To`proq qal`a Markaziy Osiyodagi eng katta estaliklardan biri. Qal`adan topilgan bebaho ma`lumotlar o`rta va yuqori o`quv muassasalarining darsliklariga, arxitektura va san`at tarixi bo`yicha Markaziy Osiyo umumjahon madaniyati tarixidan munosib o`rin olgan. Shuningdek, eramizning boshida jahon miqyosida

tuzilgan Kushan imperiyasi, Markaziy Osiyo madaniyati tarixi bilan shug'ullanuvchi butun dunyo olimlari To'proq qal'a manbalaridan foydalanmoqda.

Qal'a avvaldan chizilgan loyiha - reja bo'yicha (tayyorlangan) qurilgan. Uning bilan shug'ullanuvchi guruh vakillari o'zlarining eski diniy dasturlari, san'at, hunarmandchilik va arxitektura tarixi bilan yaxshi tanish bo'lganliklari bilan ajralib turadi. o'sha davrdagi rivojlangan sharq madaniy markazlaridagi arxitekturadan xabardor bo'lgan. Qal'a qurilishida qadimgi Mesopotamiya va Vavilon andozalaridan foydalanganligi seziladi.

Antik davrlardagi yozma manbalarga qaraganda qal'a qurilishiga katta e'tibor berilib, u maxsus komissiya tomonidan amalga oshirilgan.

Unda eng muhim masalalar qatoriga o'sha qurilish yuritiladigan muhit tozaligiga har jihatdan alohida e'tibor qaratilgan. Bunga oddiy xalq usuli qo'llanilgan. O'sha erning jonzoti otib olinib, uning ichki a'zolari (yurak, jigar, boteke) tekshirilishi orqali, o'sha erdagi suvda, o'simlik dunyosida ham kasallikning bor yo'qligi aniqlangan. Shundan keyingina qal'a qurilishiga ruxsat etilgan. Olimlarning fikricha Tuproq qal'a, umuman olganda, Janubiy Orol bo'yidan barcha qadimgi qal'alar shu tartibni hisobga olgan holda qurilgan. Demak, bundan 2000 yil avval xududimiz ekologik jihatdan judayam toza bo'lgan.

Shuning bilan bir qatorda, qal'a qurilishi uchun maydonchanning qulayligi, erning tuzilishi, uning qurilish materialiga yaqinligi va hokazo holatlar hisobga olingan. Shu ko'z-qarashlardan Tuproq qal'a uchun o'rin juda muvaffaqiyatli tanlangan. Qal' Amudaryodan yiroqda Sultan Vaysdagi tog' tizimlariga yaqin bo'lib, karvon yo'li bo'yida joylashgan.

Tuproq qal'a Qoraqalpog'iston Respublikasi Ellikqal'a tumanida joylashgan. Uning joylashuvi meridian bo'yicha cho'zilayotgan geometrik to'g'ri to'rtburchakdan (500 x 350 m) iborat bo'lib, ikki qator qalin qo'rg'on devorlar bilan o'ralgan.

Uning atrofii chuqur qilib qazilgan handak bilan o'ralgan. Handak suv bilan to'ldirilgan. Qal'aga faqat osma ko'prik orqaligina kirilgan.

O`sha paytdagi harbiy arxitektura muofaqiyatlari namunasida solingan qal`a darvozasidan ichkariga kirish begona odamlar uchun mushkul bo`lgan. Darvozadan ichkariga kirganda shimoldan janubga qal`ani ikkiga ajratib turgan ko`cha chiqadi. Eni 10 metrcha bo`lgan bu markaziy ko`cha va unga bog`langan mayda ko`chalar yordamida qal`a ichidagi barcha joylarga kirish mumkin bo`lgan.

Markaziy ko`chani kesib o`tadigan mayda ko`chalar, qal`a ichini o`nlab kvartallarga ajratib turadi. Bu kvartallarda qal`a aholisining joylari bilan bir qatorda, har xil hunarmanchilik ustaxonalari, bozorlar, do`konlar, hatto maktablar bo`lgan. Markaziy ko`chaning oxirida, orqadagi qo`rg`on devor bo`ylab solingan katta saroy ibodatxonaga olib keladi. Saroy o`zining qurilishi bo`yicha qal`a ichidagi qal`ani eslatadi. Fanda «Oliy saroy» atalgan bu qurilish ikki qavat qalin qo`rg`on devorlar bilan o`ralib, unga mustahkam darvoza o`rnatilgan. Muqaddas deb hisoblangan qal`aning eng baland qismi bo`lgan bu qurilishning ulug`vorligi oddiy ko`z bilan qaraganda ham sezilib turadi.

Eramizning 2-4 asrlariga tegishli qal`aning qismining ko`lami 80 x 80 metr bo`lib, maxsus tayyorlangan maydonchaga qurilgan. Balandligining o`zi 14,5 metrni tashkil etadigan maydoncha katta ko`lamdagi xom g`ishtlardan terilib, u «Oliy saroy»ning asosiy vazifasini bajargan. G`ishtlarning orasiga elim loy o`rniga daryo tubidagi suvga qongan qumlardan foydalanilgan. Aniqlanishicha bunday qumlar o`ziga nam tortmaydigan hususiyatga ega bo`lishi bilan birga, er silkinishi vaqtida ham o`sha imoratning chidamliligini oshirgan. Shu sababli antik davrda qurilgan deyarli barcha qal`alarning qurilish ishlarida ma`lum darajada qumlar ishlatilgan. Ularning qatoriga Qirqqiz qal`a, Qo`rg`oshin qal`a, Qizil qal`a, Shilpiq kiradi.

Shunaqa juda mustahkam tayyorlangan fundament ustiga qurilgan Tuproq qal`a saroyining birinchi qavatidagi yuzlab, ikkinchi qavatida o`nlab xonalarning XX asrga yaqin saqlanib, bizning kungacha etib kelishi, yuqorida aytilganlarning guvohi hisoblanadi.

erdan 30 metrcha balandlikda joylashgan «Oliy saroy» darvozasiga yasama loydan qiya qilib solingan maxsus yo`l orqali chiqiladi. Yo`ldagi qorovulxonalar

bilan darvozadan o'tib, alebastrdan ishlangan haykallar qator o'rnatilgan saltanatli dahlizga va u orqali barcha xonalarga borishga bo'lgan. Uning katta xonalari toshdan ishlangan doira va to'rtburchaklik shaklidagi kolonna bazalar ustiga o'rnatilgan ustun yog'ochlar yordamida bostirilgan. O'rtacha va kichik xonalar bo'lsa trapetsiya shaklida katta xom g'ishtlar bilan yig'ma shaklda bostirilgan.

Hashamatli podshohlar zali mavjud. Eshikka qarama-qarshi tomonda baland qilib ishlangan supa joylashgan. Uni ustida, devor chuqurlarida to'qilgan to'r bilan bekitilgan saroy amaldorlari bilan qushlar qurshavindagi podshoh haykallari o'rnatilgan. Mahalliy soz yaxshi loydan tayyorlangan barcha haykallar rangli buyoqlar bilan bezatilib, ularning ustidagi rang barcha liboslarni aks ettirgan. Shuningdek, shunaqa ochiq rangli buyoqlar yordamida shu zalning devorlariga har xil rangdagi rasmlar solingan. Devorlarning barchasi tekis oppoq qordek qilib ishlangan «alebastr zali» bor. Undan chap tomonda «g'alaba zali» mavjud. Bu erda devorlardagi maxsus chuqurlarga haykal o'rnatilgan. Markaziy ko'rinishda G'alaba xudosi Nikaning podshohga g'alaba gulchambarini kiydirish saltanati berilgan. Unga qo'shni zalning devor chuqurlarida o'rnatilgan podshoh haykallarining har tomonida qurol-yaroq osib, sovut kiygan qora tanli askarlar bor. Shu qora tanli askarlarning haykallari ochilgan dastlabki vaqtlari ularni Afrikadan olib kelingan askar-qullar deb qabul etilgani bilan, keyingi davrda ularni Hindistonli askarlar deya yuritilmoqda. Tuproq qal'ada mahalliy askarlardan tashqari boshqa mamlakatlarning ham askar vakillari bo'lganligini ko'rsatadigan manba bo'lib hisoblanadi.

Qora tanli gvordiyachilar zalidan keyin devorlarida uzum-anor va boshqa har xil daraxtlar orasida o'tlab yurgan ohularning haykallari, rasmlari solingan. «Ohular zali» devorining yuqori qismiga qanotlari bilan gavdalari katta qilib ishlangan burgut tumshuqli qush rasmi o'rnatilgan.

Oliy saroyda hali siri oxirigacha ochilmagan zallari ham bor. Ularning birida kuyidagicha ko'rinishda berilgan. To'rtburchakli katta xona devorlarida o'rnatilgan haykallar podshohlarga ham, askarlarga ham hatto saroy amaldorlariga ham o'xshamaydi. Chuqurlarda juft-jufdan gir kapalak aylanib yurgan raqqosalar

rasmilari o`rnatilgan. Raqqosalarning hammasining yuzlariga niqob (maska) kiyganlikdan, ularning erkak yoki ayol ekanligini faqat ayoqlaridangina ajratish mumkin. Niqoblarning biriga cho`zinchoq yuzli, uzun saqolli, ingichka burunli, bodom qovoqli, katta ko`zli, echkining qulog`idek qulog`i bor ko`rinish berilgan; Ikkinchi niqobda shish qovoqli, do`moloq ko`zli, qora tanli afsonaviy maxluqning ko`rinishi berilgan.

Tuproq qal`aning bu zali, sharob xudosi Dioniske bag`ishlangan bo`lishi ehtimoli bor. Chunki, Markaziy Osiyoda xuddi shunaqa diniy mistik o`yinlar sharob xudosi Vakxa-Dionis hurmatiga atab o`tkazilganligi ilmiy jihatdan isbotlangan.

Saroyning asosiy qismidan boshqa ham zallar mavjud. Bu zallarning devorlari og`ir va katta haykallar bilan emas, yumshoq ko`rkam ranglar bilan bezalgan. «Yo`lbars va qirg`ovil» nomli zal devorlarida rangli buyoqlar bilan hayvonot dunyosining haqiqat ko`rinishidan lavha berilgan. Ikkinchi bir zalda sozanda arfa chalayotgan ayol, uzim yig`uvchilar boshiga yirtqich qush shaklida toj kiygan podshoh, otlarning ko`rinishi berilgan qizil rangli devorlar bor. Ko`ksiga anor mahsulotlarini bosib turgan onalik xudosi - Anaxita ko`rinishi ham bor. Yana bir xonada podshoh kotiblari rasmlari bor. Shuningdek yuqorida aytilgan xonalar bilan birga, podshoh xazina xonasiga tushgan soliqlarning hisobi yozilgan arxiv, qurol-yoroq saqlash xonalari joylashgan.

Saroy bilan bir qatorda qal`aning ichidagi bir necha kvartallar tekshirib ko`rildi.

Mana shunday kvartallarning biridan (A) zoroastrizm diniga xos muqaddas ibodatxona topilgan. Uning yonidagi xonadan oltin surtilgan kumush shyg`ynlar kiygizilgan arxar shohi va uning aylanasi ko`plagan shiysha idishlar, uzuk, zirak, munchoq singari bezanish buyimlari, oltin fol`ga va loydan ishlangan odam haykallari topildi.

Ikkinchi bir kvartalda (B) qal`a aholisining yashash joylari bilan bir qatorda kamon ishlaydigan, shuningdek boshqa hunarmanchilik ustaxonalari aniqlandi. Umuman qal`a ichida olib borilgan izlanishlar eramizning boshlaridan 6 asrlargacha qal`a fuqarolarining turmushi, kasbi, diniy e`tiqodi, madaniyatini yaqinroq

tushunishga imkon beradi. Qal`adan 100 m shimolda «Pastki saroy» joylashgan. 1976 yildan boshlab olib borilgan arxeologik izlanishlar, uning asosida 1,5-2 m balandlikda fundament borligi, uning ustiga 150 ga yaqin xonalarning qurilganligi aniqlandi. Ularning aksariyat ko`pchiligi ibodatxona qurilishi va unga bog`liq xonalardan iborat ekanligi ma`lum. Xonalarning devorlari rangli buyoqlar bilan bezatilib, ularda oliy saroydagidek og`ir haykallar uchramaydi. Masalan, xonalarning birida o`lganni yo`qlash-aza tutish ko`rinishi juda mahoratli rangli buyoqlar bilan ko`rsatilgan.

Pastgi saroydan 50 m g`arbda ochiq maydoncha ham bor. Ko`lami 125 ga (1250 x 1000 m) teng bo`lgan bu maydoncha geometrik to`g`ri to`rtburchaklik shaklida balandlik bilan o`ralgan. Balandlik maydonining eni 10 m, balandligi 3-4 m. Bu maydoncha dunyodan ko`z yumgan podshohlarni u dunyoga uzatish, yangidan taxtga kelgan podshohga toj kiydirish - kabi muhim tadbirlarni o`tkazish uchun xizmat qilgan. Shuningdek, Abu Rayxon al-Beruniy asarlarida berilishicha «podshohning qaytishi» deya nomlangan «Navro`z» bayramida podshohlarning fuqaro xalq bilan uchrashuvi ham ushbu maydonda o`tkazilgan. Unda har xil musobaqalar tashkillashtirilgan.

Tuproq qal`aning shimoliy g`arbiy burchagidagi shoh saroyi devoridagi b.e. III asrga tegishli rasm va haykallar katta ahamiyatga ega. Devorlarda o`rnatilgan rasmlar har xil ranglar bilan bezatilgan. Rasmlar saroy devoriga qalin buyoqlar bilan ishlangan. Oq, qora, ko`k, qizil, sariq, ochiq va to`liq yashil ranglar qo`llanilgan. Ayrim joylarda qalin qora buyoq qizil va sariq ranglar ko`proq ishlatilgan. Qal`aning janubiy - sharqiy devori tuproqdan tozalanganda pastgi qismidagi yo`ldan yalong`och holdagi ayol tasvirlangan haykalcha topilgan.

Tuproq qal`adagi xonalarning ko`pchiligi naqsh bilan bezatilgan. Qazib olingan binolar ichida ikkinchi qavatdagi beshinchi xonaga ko`p bezak berilgan zal bo`lganligi bilan ajralib turadi. Xona 4 ustunli, katta zal bo`lgan. Zalda ko`pgina bayramlar o`tkazilgan. Zalning devorlarida qora va sariq turdagi yo`llarning bir-biri bilan kesilishidan paydo bo`lgan bezakli tasvirlar ishlangan. Bu yo`llarga har xil

gullar tasvirlari solingan. Shular qatorida uchburchak shakldagi katta arfa chalayotgan ayolning sarg`ish tustagi nafis ishlangan tasviri butunligicha saqlanib qolgan. Musiqachi ayol qo`liga bilakuzuk taqqani tasvirlangan. O`sha xonada topilgan boshqa bir tasvirda tik qarab turuvchi ayol yuzining tepa qismini tasvirlovchi fragment parcha kishi fikr-hayolini o`sha davr olamiga olib kiradi.

Fragmentlarning ikkinchisida bo`ynini mag`rur holda burib turgan ayol boshining yon tomonidan bir qismi tasvirlangan bo`lib, unda ayolning yoqasi bezatilgan, qora sochi qizil ro`mol bilan turmaklanib qo`yilgan. Arfa chalayotgan ayol xonasi ostidan ikki torli cholg`u asbobining pardasini ushlab turgan odamning qo`li tasvirlangan naqsh namunasi qazib olindi.

Bir qancha binolarning devorlarida naqshlarning saqlanib qolgan qismida eni 0,5-0,75 metr keladigan bezakli tekis devor bo`laklari topilgan. Saroyning g`arb tomonidagi binolarning biridan topilgan ko`k rangli tekis devor bo`laklari kishi diqqatini o`ziga tortadi. Bu tekis devor bo`laklarida baliqlarning oq-qizil yo`lda zangor to`lqinlarda suzayotganligi tasvirlangan, bu to`lqinlar haqiqatda harakatlanayotgandek tasavur hosil qiladi. Tasvirning pastgi qismi qora va qizil fonda berilgan.

Qo`shni xonalardagi kulrang tekis devor qoldiqlari baliqlarning qora tangachalari tasvirlangan. Tekis devor qoldiqlarning usti qizil bo`lib, unga odamlar va otlarning tasvirlari tushirilgan va naqshli ramka bilan o`rab olingan. O`sha burchakning orqa burchagidagi xonalarda ishlangan tasvirlarga qizil fonda rang berilgan.

Ayrim xonalarda yo`lbarsning uch tasviri, otning 4 tasviri, qirg`ovil qushning qizil fonda ko`kish rangda, shuningdek odamning yon tomonidan ko`rinishi, boshining yuz tomonidan ko`rinishi, ko`zini tasvirlovchi fragmentlar qazib olindi. Saroyning Markaziy maydonchalaridagi xonalarning birida devorga ishlangan bir kompozitsiyaga birlashtirilgan oq kiyimli, tik turgan ayolning va qora kiyim kiygan erkak kishining tasviri yaxshi solinganligi bilan ajralib turadi. Tuproq qal`adan yarim yalong`och holda raqsga tushayotgan ayollar siymosining tasviri tushirilgan

tasvirlarning topilishi antik davr Xorazm badiiy madaniyati tarixini ko`z oldimizda yanada jonlantirib ko`rsatadi.

Tuproqqal`ada eramizning III asriga tegishli masqaroboz niqobi, qum soat shaklidagi qo`sh nog`ora, raqsga tushuvchilar zali va boshqa naqshlar bilan bezatilgan zal va xonalarning topilishi bu davrda Xorazmda madaniyat taraqqiy etganligidan dalolat beradi.

Ayniqsa, raqsga tushuvchilar zalidagi ommaviy raqsga tushish payti tasvirlangan fragment ona xudosi Minaning hayot uchun kurashi va o`limiga bag`ishlangan. Mina Xorazmda ona urug`i urf-odatlarida asosida hukmron bo`lgan, keyingi davrda uning siymosi xudo qiyofasiga ko`chgan. Qadimgi xorazmliklarning «Mina kechasi»da minaga afsun va duo o`qishlari, keyinchalik unga xudo sifatida sig`inib, ommaviy raqsga tushishlari Xorazmda sahna san`ati taraqqiy etganligini bildiradi.

Zardushtiylikni qo`llagan qadimgi xorazmliklar minaning o`limini yaxshilik tangrisi Axuramazdaning yomonlik, yovuzlik tangrisi Axrimandan vaqtincha engilishiga bog`lab, minaning jinlar, arvoqlar bilan olishuvini yuzlariga niqob kiyib olib o`yin harakatlarida ifodalab beradi. Qadimgi greklardagi Dionis bayramiga o`xshatib, qadimgi Xorazmda ham «Mina kechasi» marosimini «Niqob bilan raqs tushuvchilar» zalida o`tkazgan, ehtimol.

Boshqa bir xonada yurak tasviriga o`xshatib ishlangan naqsh fonida qoshlari to`g`ri, qiyshiq ko`zli, quloqlariga og`ir zirak taqqan, gulli kiyim kiygan ayol tasviri kishi diqqatini tortadi.

Tuproqqal`a devor tasvirlari naqsh motivlari ko`pligi bilan ham ajralib turadi. Devor tasvirlari Xorazmning janubiy - sharqiy va janubiy - g`arb mamlakatlarining tasviriy san`ati va urf-odatlarini eslatadi.

Bu o`sha mamlakatlar bilan Xorazmning madaniy aloqalari ta`siri natijasida bo`lgan bo`lishi ham mumkin. Shunga qaramay, Tuproqqal`a devor kompozitsiyalari Xorazmda mustaqil, o`ziga xos rassomlik maktabi bo`lganligini aytib o`tishga asos bo`ladi.

Qadimgi Xorazm madaniyati o'rgangan olim S.P.Tolstov ham buni alohida ko'rsatib o'tgan: «Xorazmda mustaqil badiiy markaz bo'lgan deya tasdiqlaydi. Markaz o'rta dengiz va o'rta sharqning madaniy badiiy markazlari orasida alohida o'ringa ega bo'lgan deya aytish imkonini berad.

Tasvirlar rel'efli chiziqlar va ko'pgina ranglar uyg'unlashganligi bilan ajralib turadi. Naqsh motivlarining assortimenti ham boy, ham turli-tumanligi bilan kishini hayratda qoldiradi. Motivlar xonalardan topilgan bo'lib naqsh namunalarida o'z aksini topgan. Ularda o'simliklar, har xil geometrik shakllar, gulchambarlar, gullar va gul yaproqlari va har xil bezaklar tasvirlangan.

Naqshlik san'ati Xorazmda rassomlik singari o'ziga tegishli mavzuga egaligi bilan ajralib turadi. Bezaklar orqali Xorazm xalqlarining, shu jumladan O'rta Osiyoda milliy to'qimachilik rivojlanganligini ko'ramiz.

Biz uchun Xorazm tsivilizatsiyasining merosxo'rlari bo'lgan hozirgi O'rta Osiyo xalqlari amaliy xalq san'atining ildizlari juda qadimgi zamonga borib taqaladi.

Tuproqqal'a badiiy bezaklarda haykallar ham alohida ahamiyat kasb etgan. Haykallar asosan loydan, ganchdan pishirilip tayyorlangan. Katta haykallar barel'eflar qurilishi arxitekturasi bilan chuqurlashtirilgan devor tasvirlari bilan chuqur mazmunga ega.

Tuproqal'a haykaltaroshlik san'ati materiallarining ko'plab topilishi bilan ham mashhur. 9 xonadan kuydirilmagan loydan yasalgan haykallar qazib olingan. Haykallarning umumiy soni 138 bo'lib, shundan ikkitasining boshi singan, gavdasi butun, bundan tashqari 4 bosh 12 bosh kiyimli, 1 boshsiz, oyoq-qo'lsiz butun gavda, kiyim bosh va shularga o'xshash son-sanoqsiz parchalar topilgan. Haykal parchalari orasida chavondozi rel'efi tasviri, otning o'ta bezatilganligini aytib o'tish joiz.

Haykallarning juda yaxshi ishlangan ba'zilar odamga nisbatan bir yarim 2 barobar baland qilib ishlangan. Ular o'ziga xos har xil ranglarga bo'yalgan; yuziga odam gavdasining rangi berilgan; kiyim boshi oq, yashil, qizil qora va boshqa ranglarda tasvirlangan. Haykallarning aksariyati arxeologlar «podshohlar zali» deya

nom qo'yilgan zalda topildi. Bu katta zal saroyning shimoliy g'arbida joylashgan bo'lib, 20 x 20 metrni tashkil etadi. Har bir zinada bir guruh haykallar o'rnatilgan bo'lib, 3-5 erkaklar, ayollar va bolaning haykallar saqlanib qolgan.

O'tirgan holatdagi katta haykallar podshohlarniki, atrofdagi haykallar ularning oila a'zolariniki va xudolarniki bo'lgan. Zinalarning biridan topilgan, qo'lida qizil olma ushlagan ayol gavdasi bu fikrga dalil bo'la oladi. Bu haykal hosildorlik xudosi Anaxita yoki Mina uchun xarakterli timsol hisoblanadi. «Qizil bosh», «Vazamir qal'lig'ining boshi» deya atalgan haykallar qadimgi xorazmliklar qiyofasida ko'z oldimizda gavdalanadi. Haykallarda siyavushiyar «portretli galereyasi»ning paydo bo'lishi Tuproqqal'dagi saroy butun Xorazm podshohlarining saroyi bo'lganligidan dalolat. Tuproqqal'aning o'zi Beruniyning yozishicha, eramizning 305 yilida Kat shahriga ko'chirilishicha shohlar o'tiradigan poytaxt bo'lishidan dalolat beradi.

Tuproqqal'dan topilgan boy materiallarni o'rgangan professor S.P.Tolstovning ko'rsatishicha «Qadimgi Xorazm yuksak va o'ziga xos badiiy madaniyat yaratdi. Shakllarning ulug'ligi bilan kishini lol qoldiradi. Monumental arxitektura, loydan yasalgan haykallar, rel'eflarning ajoyib plastikasi Qadimgi Xorazm medal' yasovchi rassomlarining nafis san'ati va naqshlardagi rang chizilma obrazlarining uyg'unligi, Qadimgi Xorazm tsivilizatsiyasini yaratgan kishilar tafakkurining mustaqilligi, kuchli va etukligidan dalolat beruvchi yaxlit majmuani tashkillashtirgan».

Tuproqqal'dagi «podshohlar saroyi»ning katta bo'lganligini aytib o'tish o'rinli. Chunki qadimgi estaliklar ichida bu saroyga teng keladigan saroyning yo'qligi fikrimizning dalilidir. Tuproqqal'a saroyida IV asrda bo'm-bo'shlik alomatlari sezilgan bo'lishiga qaramay, VI asrda hayot yana jonlangan. Qal'ada XII-XIII asrlarda ham kishilar yasash joylari barpo etgan, unda odamlar yashaganligini ko'rsatuvchi izlar bor.

1946 yildan boshlab 30 yildan oshiq vaqt olib borilgan arxeologik izlanishlar natijasida Tuproqqal'dagi avval fanda noma'lum yangi arxeologik qurilishlar, skul'pturalar, tasvirlangan san'at asarlari arxivining ochilishi dunyo miqyosida ilm va fanning eng yuksak boyligi bo'lib hisoblanadi.

Ayir qal'a VII-VIII va IX-X asrlar. Estalik Bo'ston shahridan 8 kilometr g'arbda joylashgan. Qal'a to'g'ri burchakli shaklda bo'lib, maydoni 55-55 m. Qal'aning tashqi himoya devorlari loydan solingan, hozirgacha saqlangan balandligi 2,5-3 m, qalinligi 2,8 m. Devorlarini teshib ishlangan mergan joylar saqlangan. Qal'aning tiklik devorining o'rtasida katta ikki xonadan iborat saroy joylashgan. Uning devorlarining balandligi 5 m, qal'a ichida turar joy bo'lmalarining qoldiqlari saqlangan. Estalik 1955-1958 yillari o'rganilgan.

Ayoz qal'a №2 VII-VIII-asrlar. Ayoz qal'a №2 Sultan Uvays tog'i tekisliklarining birida, tabiiy tepalikning boshiga joylashganligi sababli uning joylashuvi shu erga moslashib qurilgan. Maydoni 65-36 m. Qal'a devorlari 5,75-7,65-metr balandlikda saqlangan. Devorlarning pastki tomoni paxsa loydan solinib, yuqorisi katta xom g'ishtlardan ishlangan. Devorda mergan joylarning o'rinlari bor. Devor ustida qo'rg'on soqchilari yuradigan eni 2,32 metr aylanma dahliz saqlangan. Qal'a ichida bir necha uzun xonalar joylashgan. Qo'rg'on darvozasi, uning janub tomonida joylashib, u ham alohida devorlar bilan mustahkamlangan. Qal'aga uzunligi 60 m, eni 2 m bo'lgan yo'lak orqali ko'tarilishga bo'ladi. Bu yo'lakka qo'shimcha minoralar o'rnatilgan. Qal'a 1939, 1971 yillari o'rganilgan.

№8 Qo'rg'on. VIII va X asrlar. Ko'rg'on «Kirqqizobod» xo'jaligi hududida joylashgan. U 4 metrlik bo'lib, maydoni 38 x 38 m. Qo'rg'on to'rt tomonining qalinligi 2.5 m, balandligi 5 m bo'lgan paxsa devorlar bilan o'ralgan. Qo'rg'onning sharqiy devorining qoq markazida xajmi 12 x 12 m bo'lgan saroy joylashgan. Uning saqlangan balandligi 9 m. Qo'rg'onning janubiy - sharqiy burchagida X asrda vayron etilgan katta joy qoldiqlari bor. Ushbu joyda qo'rg'onning darvozasi ham mavjud. Qo'rg'on ichida dahliz shaklida bo'lgan bir qancha xonalar qazib tekshirilgan. Ularning ayrimlari pishgan g'ishtlardan (25-30) (25-30 x 5sm) solinganligi aniqlandi. Shuning bilan birga, X asrda qo'rg'onga kirish og'zi kichraytirilib, unga yog'och darvoza qo'yilgan. Qo'rg'on 1937, 1938, 1958 yillari o'rganilgan.

№9 Qo`rg`on. VII-VIII asrlar. Qo`rg`on «Qirqqizobod» xo`jaligining hududida joylashgan. U trapetsiya shaklida bo`lib, maydoni 32 x 52 x 37 x 55 m. Uning shimoliy tomoni vayron etilgan katta joyning (28 x 23 m) o`rni saqlangan. Bu joyda antik davrga tegishli bo`lgan 4 burchakli uy hayvonlarini saqlaydigan xonalarning bor ekanligi aniqlandi. Qo`rg`on devorlari paxsadan solingan. Tekshirish paytida temirdan ishlangan muhr topildi. Unda qirg`iy bilan ov qilish jarayoni tasvirlangan.

Qo`rg`on 1938 -1956 yillari o`rganilgan.

**Ayir-qal`a.** VII-VIII va IX-X asrlar. Yodgorlik Bo`ston shahridan 8 kilometr sharqda joylashgan. Qal`a to`g`ri to`rtburchakli shaklda bo`lib, maydoni 55 x 55 metrdan iborat. Qal`aning tashqi himoya devorlari loydan ishlangan. Saqlangan balandligi 2.5-3 m, qalinligi 2.8m. Devorlarining teshib ishlangan mergan joylari saqlangan. Qal`aning janubiy devorining markazida katta 2 xonali gumbazli saroy (donjon) joylashgan. Uning devorlarining balandligi 5 m, qal`a ichida turar joy xonalarining qoldiqlari saqlangan. Yodgorlik 1955-1958 yillari o`rganilgan.

**Ayoz-qal`a.** №2.VII-VIII asrlar. Ayozqal`a №2 Sulton Uvays tog`larining birida tabiiy tepalik boshiga joylashganligi sababli, uning loyihasi shu erga moslashtirilib qurilgan. Maydoni 65 x 36 m. Qal`a devorlari 5,75-7,65 m balandlikda saqlangan. Devorlarning pastki tomoni paxsadan solinib, yuqorgisi katta xom g`ishtlardan solingan. Uning yuqorgi tomonlari yarim doira shaklida bezalib, devorda mergan joylarining o`rinlari bor. Devor ustida qo`rg`on soqchilari yuradigan eni 2,32 m aylanma dahliz saqlangan. Qal`a ichida bir necha uzun xujralar mavjud. Qo`rg`on darvozasi uning janubiy tomoni joylashgan. U ham o`ziga yarasha devorlar bilan mustahkamlangan. Qal`aga uzunligi 60 m, eni 2 m bo`lgan yo`lak orqali ko`tarilsa bo`ladi. Yo`lak bo`yicha qo`shimcha minora o`rnatilgan. Qal`a 1939-1971 yillari o`rganilgan.

Ellikqal`a poytaxti bo`lgan Bo`ston shahrining g`arbida Qavatqal`a xarobalari joylashgan. Qavatqal`ada XI-XII asrlarda o`rta asrlar qishloq feodal saroyi joylashgan. Qavatqal`a atroflari shudgorlanib, dehqonchilik qilingan. Gavxo`ra

kanalidan ariqlar orqali dalalarga suv tarqalganligini tasdiqlovchi dalillar bor. Xosildor erlarda dehqonchilik qilingan, bog`lar barpo etilib, mevalar etishtirilgan.

**Qavatqal`a vohasi.** XII-XIII asrning boshlari. O`zining markaziy qal`asi Qavatqal`aning nomi bilan atalgan voha Govxo`ra kanali buylab uzunligi 15, eni 3-4 kilometr maydonda joylashgan.

Bu atrofda bir necha ming yillar davomida tirikchilik bo`lgan. Vohada VII-VIII asrlarga tegishli madaniy qoldiqlar ko`p uchraydi. IX-X asrlarda xalq jipslasha boshlagan, XII-XIII asrning boshlari vohaning eng rivojlangan davri bo`lgan. Mana shu buyuk Xorazmshoxlar davrida bu atrofda xar xil saroylar, bog`lar, hovlilar va xokazo qurilishlari jadallashgan. Uning markaziy bo`limida 90 ga yaqin hovli 3 qo`rg`on joylashgan. Ular asosan, kanallarga yaqin yoki kanallar bo`yida joylashgan. Kavatqal`a atrofida dehqonchilik qishloqlar, qabristonlar, porxanlarning xonasi, masjid va shunga o`xshash diniy jamoatchilik o`rinilar ham bo`lgan. Qabriston g`arbida kanallarning kesishgan joyida maydoni 200 x 150 m bo`lgan eski bog` joylashgan. Voha xalqlari asosan, dehqonchilik bilan shug`ullangan, shuningdek, hunarmandchilik ham rivojlangan. Uning sharqiy chegaralarida kulolchilik pechlari, shimoli-g`arbida esa shisha yasovchilarning ustaxonalari joylashgan. Voha 1937, 1940, 1956, 1966, 1970, 1972 yillari o`rganilgan.

Kichik Qavatqal`a atrofidagi kulolchilik buyumlarini ishlab chiqarish joylari XII-XIII asrlarga to`g`ri keladi. Kichik Qavatqal`a atrofidagi maydonda kulol pechlari, undan chiqqan ko`pchilik qoldiq saqlangan. Hozir bu erlar ekin maydonlariga aylantirilgan. Yodgorlik 1956 yili tekshirilgan.

Qal`a atrofidagi 90 dan ziyod dehqon istehkomlari bo`lgan. Ular ham feodal hokim majburiyatlarini bajarganlar.

Qavatqal`aning o`zi o`rta asrlarga tegishli Xorazm uchun feodal qurg`on shahar bo`lgan. Qal`aning ichki tomonidan har xil rangdagi naqshlar bilan bezatilgan ulkan saroy binosi topilgan. Qal`aning atrofini aylanib oqadigan kanal xam bo`lgan. Qal`a atrofida 4 qo`rg`on bo`lib, qo`rg`onlarda saroy qoldiqlari borligi xam aniqlangan.

Qavatqal`aning to`g`ri to`rtburchakli shakldagi bir burchagi turtib tashqariga chiqqan, o`q-yoyga o`xshash ark burchaklarida kichkina uyumlari, to`rtburchak shaklidagi istehkomlar bor bo`lgan. Qo`rg`onning turar joylari 4 burchak shaklida bo`lib, devor bo`ylab joylashgan.

Boshqa qo`rg`onlarda xam devorlarga ko`plagan o`yma naqshlar ishlangan. Kichik saroylar xam o`z navbatida kishida katta taassurot qoldiradigan o`ziga xos bezaklar bilan ajralib turadi.

Arab sayohatchisi Istaxriy X asrdayoq Xorazmda siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayot rivojlanishi natijasida savdo aloqalari kengaytirilganligi, boyliklarining ko`payganini, xalqning mardligi haqida to`xtab o`tgan: «Xorazm-hozildorli, oziq-ovqati va mevalari ko`p shahar, faqat yong`og`i yo`q; bu erda paxta va jundan ko`p narsalar tayyorlanadi va bu narsalar uzoq-uzoqlarga olib ketilgan. Xalqning ajralib turadigan xususiyati-boylik va mardlikni ko`rsatishga intilish» deb baho bergan.

1219 yilda Xorazmga kelgan arab geografi Yoqutning Gurganj shahri haqidagi tarifi ham e`tiborga loyiq:

«Boyliklarining mo`lligi ham poytaxtning kattaligi, xalqning ko`pligi, din va har xil mazxablar har xil aralashgan joy dunyoda Xorazmning bosh qal`asiga o`xshash boshqa shaharda bo`lmasa kerak.»

Keltirilgan misollar Xorazmning X-XIII asrlarda nihoyatda taraqqiy etganligini ko`rsatadi. Shu bilan birga Xorazmning ajralmas qismi bo`lgan Qavatqal`a vohasi ham, Qavatqal`aning o`zi ham «Xorazm shoxlari» davrining iqtisodiy qudrati bir qancha rivojlangan joylardan biri bo`lgan deb aytishimizga to`la asos bor.

Vohadan topilgan sopol mahsulotlari orasida qizil, yashil va oq rang bilan naqsh tushirganlari xam bo`lib, ular VII-VIII asrlardagi afrig`iylar davri madaniyati namunalaridan hisoblanadi. Qavatqal`a va uning atrofidagi qo`rg`onlardan XII-XIII asr amaliy san`atiga tegishli bir qancha materiallar topilgan. Har xil rangli va bezakli, feruza rangli suv idishlari, ovqat eydigan, choy ichadigan idishlar, qora sirlanmagan idishlar «Buyuk Xorazm shoxlari» davri madaniyatining rivojlanib borganligidan dalolat beradi.

Mo`g`ullarning Xorazmga xujumi sababli Xorazmshoxlar davlati o`sishtan to`xtadi. Xorazm madaniyati toptaladi. Qavatqal`a voxasidagi shaharlar vayron etiladi, shahar xalqining ko`pchiligi qirib tashlangan. Ayrimlari Mo`g`ulistonga qul sifatida olib ketilgan.

**Narinjon qal`a.** VII-VIII, X-XI va XIII-XIV asrlar. Qal`a Guldursindan 6-8 kilometr shimoli-g`arbda joylashgan, maydoni 500 x 500 m. Qal`a VII-VIII asrlarda qurilib, X-XI asrlarda kengaygan. XIII-XIV asrlarda xududi janubiy tomoniga yanada kengayib, mudofaa devorlari bilan o`ralgan. XIV asrda Narinjon maqbarasi qurildi. So`ngra qal`a qabristonga aylantirilgan. Yongorlik 1936-1937 yillari o`rganilgan.

**Teshikqal`a.** VII-VIII asrlar. Qal`a hududida joylashgan. U 4 burchakli loyiha bo`yicha qurilgan bo`lib, maydoni 90 x 100 m. U loy paxsadan tiklanib, xozirda 8-9 m balandlikda saqlangan devorlarining 4 burchagida minoralar joylashgan. Uning qoq markazi xom g`ishtdan (35-37 x 9 sm) o`rilgan. Maydoni 20 x 24 m bo`lib, saroy joylashgan. Devorlari gadoradolar bilan bezalgan. Saroyning darvozasi shimoliy - g`arbiy tomonida joylashib, qal`a bilan darvozasi yonidagi osma ko`pir orqali bog`langan. Saroy ichida 8 xona bor. Markaziy xonada pishgan g`isht bilan o`rilgan quduq bor.

Qo`rg`on ichida saroyni aylanib qurilgan 2 xonali joylar bir qator joylashgan. Tadqiqod davrida ko`p sonli idishlar, kiyimlarning qoldiqlari, suyak va metallardan ishlangan qurollar, Xorazm podsholari Chagan va Shausharadalarning nomidan quyilgan mis tangalar topilgan. Meva daraxtlarining danaklari, uzumning danagi, jo`xori va tariqning doni qal`a xalqining dehqonchilik, bog`dorchilik bilan shug`ullanganligidan darak beradi. Topilmalar ichida loyga bosilgan muhrning tamg`asida to`rt xolli xudoning va yovvoyi hayvonni ov qilish jarayoni tasvirlangan. Teshikqal`a 1937 -1938 yillari o`rganildi.

Ellikqal`aga tegishli Qirqqiz xo`jaligi hududidagi O`rdakxona ko`lining janubiy yoqasida Uyqal`a xarobaxonalari joylashgan. Uyqal`a so`zi uydagi qal`a, past joyda

qurilgan qal'a degan ma'noga ega. Qal'a haqiqatdan ham Burgutqal'a vohasining orqasidagi past tekislikda joylashgan.

Uyqal'a VII-VIII asrlar. Burgutqal'a voxasining eng janubida joylashgan: Uyqal'a to'rtburchak shaklida bo'lib, maydoni 19200 m² egallaydi. Uning janubiy devori yonida saroy tiklangan. Uning 8 m balandlikda saqlangan, paxsadan ishlangan devorlari uchtdan minoralar bilan mustahkamlangan, darvoza janubiy devorda joylashgan. Saroy darvozasi bilan osma ko'prik orqali bog'langan. Qo'rg'on 1938, 1939, 1953-1960 yillari o'rganilgan.

Uyqal'a devorlari qalin bo'lmasa xam, mustaxkam. Devorlarining yuqori qismi 1 m qalinlikda bo'lib, antik davrga xos bino qoldiqlari qal'aga mustahkam asos bo'lib xizmat qilgan. Bu o'sha davrda devor buzuvchi mashinalardan qal'ani ximoya qilish uchun muhim vosita bo'lganligini aytib o'tish lozim. Uyqal'aning asosi 3 m qalinlikda bo'lgan. Devorlarining balandligi 7-8 m atrofida bo'lib, yuqorisidan dushman xujumiga yo'l qo'ymaslik choralari ko'rilgan. Qal'a mudofaachilari minorlar orasidan ko'prikchalar orqali birinchisidan ikkinchisiga o'tgan. Uyqal'aning devorlari to'g'ri to'rtburchakli, oldiga turtib chiqqan inshootga ega bo'lgan, bir qancha zinalari ham bor. Qal'aga kirish joyi ham mustahkam istehkomga ega bo'lishi bilan ajralib turadi. Uyqal'a o'rnatilgan joyning ko'lga yaqinligi bu eramizdan oldingi kishilar ovchilik bilan shug'ullanganligini tasdiqlovchi dalillarga ega.

Qal'a atroflaridan eramizgacha bo'lgan IV-III asrlarga tegishli sopoldan ishlangan suv soladigan ko'za xumlar, gul soladigan tuvak, kosalar topilgan. Bu Kangy davrida ham qal'a atroflarida qal'a xalqining yashaganligidan dalolat beradi. Bu erda Kushonlar davrida ham odamlar istiqomat qilganligini tasdiqlovchi madaniyat izlari bor. Uyqal'a ulkan ko'rinishdagi saroy bo'lib, unda Xorazmlik dehqonning katta oilasi yashagan va qal'a atrofida dehqonchilik bilan shug'ullangan.

Uyqal'ada VII-VIII asrda xalqlar yashagan. Bu davr fuqarolar urushi jadallashgani bilan xarakterlanadi. Uyqal'aning minoralarida ham askarlar navbatma-navbat jangovar xolatda turib, shaharni qo'riqlaydi. Shuningdek, bu qal'a

himoyachilari ham kichik qo'rg'onlarda yashovchi dehqonlarni xam bo'ysundirish uchun urushlar olib borgan.

Uyqal'aning xarobaxonaga aylanishiga birinchi navbatda, arab qo'shinlarining ayovsiz olib borgan qirg'inbarot urushlari sabab bo'lgan. Urushlar oqibatida Burgutqal'a vohasidagi kanal IX-X asrlarga kelib, birato'la tamom bo'ladi.

Yakka Porson qo'rg'oni. IV-VIII asrlar. To'g'ri to'rtburchak shaklida maydoni 74 x 54 metrni tashkil etadi. Yakka Porson kuchli harbiy qo'rg'on bo'lgan. U 2 qator devor bilan o'ralgan, tomonlari minoralar bilan o'ralgan. Ko'rg'onning qoq markazida, hokimning saroyi joylashgan. Qal'adan har xil munchoqlar, ipak va paxtadan tikilgan kiyim qoldiqlari, teridan ishlangan oyoq kiyimlar, korzina, yog'och va teriga qora siyoh bilan yozilgan hujjatlar, qo'rg'on hokimining muhri topildi. Muhrda tumshug'ida gulchambar olib kelayotgan tovu tasvirlangan. Ko'rg'on 1940, 1979, 1961, 1963, 1964, 1977 yillari o'rganilgan.

Xorazmning o'troq dehqonlari qo'shni xalqlar bilan, ayniqsa, Sirdaryo vohasidagi, Edil, Yoyiq atrofidagi ko'chmanchilar bilan iqtisodiy, madaniy va savdo aloqalarini olib borgan. Edil, Yoyiq erlaridan topilgan Xorazm hunarmandlari ishlagan ko'za, kosa va Sirdaryoning atrofida topilgan yodgorliklardan topilgan Xorazm tangalari bu aytganlarimizning guvohi bo'la oladi.

Djanbas 4 Kaltaminor madaniyati. Ibtidoiy ovchilar va baliqchilar makoni.

1939 yili S.P.Tolstov marxum o'zbek akademigi A.G.Gulomovlar Antik davrning shaxarchasi Jjanbas qal'ada arxeologik tekshirish ishlari yurgizilgan vaqtda qal'a atrofidagi erlarda ham kuzatuv ishlari yurgizildi va Djanbas qal'adan 1.5 km janubiy-g'arbda birinchi marta ibtidoiy davrda odam yashagan makon ochildi va u Djanbas-4 nomi bilan tarixga kirgizildi¹². Bu makon joyda 1940 yil yoz mavsumida boshlangan qazilma ishlar 1945 yili tugatildi. Makon joy hozirgi Kaltaminor kanalining oxirida joylashgan bo'lib, adabiyotda Kaltaminor madaniyati nomi bilan yurgizildi. Makon joyda olib borilgan arxeologik qazishmalar natijasida makon markazida katta o'choq bo'lib, unda doimiy o't yoqilib turganini ko'rsatadi va

mehnat quollarining qoldiqlari, ya'ni toshdan tayyorlangan (chaqmoqtoshdan) Pichoq, bigiz, siyqalovchi va boshqa xildagi mehnat faoliyatini ko'rsatuvchi qurol qoldiqlari topilgan. O'choq atrofida ovqat qoldiqlari bu makonda yashaganlar ovchilik, baliqchilik bilan shug'ullanganligidan darak beradi. Markaziy o'choq bo'lgan. Shu bilan birga, uncha katta bo'lmagan o'choq qoldiqlari va ular atrofida topilgan baliq va sut emizuvchi hayvonlarning suyaklarining topilganligi, bu erda kichik oilalar yashaganligidan darak beradi. Djanbas-4 makonini tekshirish natijasida eramizdan avvalgi V-IV minginchi yillarda ham hozirgi Qoraqalpog'istonning janubiy tumanlarida ham aholi yashaganligidan darak beradi. Bu davrda aholi faqat ovchilik va baliqchilik bilan shug'ullanganini ko'rsatadi.

Kaltaminorliklar yashagan joy qamish va daraxtlar o'sgan to'qayzorlardan, ko'llardan iborat bo'lib, bu erda suvda suzuvchi qushlar gala-gala bo'lib yashagan. To'qayzorlar esa ular uchun qurilish materiallari, aholiga yoqilg'i beruvchi manba bo'lgan.

O'tmish tarixga nazar solar ekanmiz, Beruniy tumani hududi Katta Xorazm davlatining asosiy hududlaridan biri bo'lganligining guvohi bo'lamiz. Xorazmning keyingi davrlarda ham davlat darajasidagi mavqeini yo'qotmaganligini ko'ramiz. Xorazm hamisha O'zbekiston tarixining zarvaraqlaridan o'zining buyukligi bilan munosib o'rin egallaganligini o'rta va so'nggi asrlardagi poytaxt qal'alari misolida ham qo'rishimiz mumkin. Masalan, Kat qal'asi. Hozirgi Beruniy tumanining markazi Beruniy shahri hududida joylashgan. Kat qal'asi o'rta asrlarda «Fil shahri» nomi ostida at-Tabariy tomonidan 712 yil voqealarni tasvir etilishi munosabati bilan tilga olinadi. Uni birinchi marta «Xorazm» deb, IX asrda Ibn Xordadbek nomlagan. Qal'adan shimoli-g'arbiy va janubiy devor qoldiqlari saqlangan. G'arbiy devorning uzunligi 621 metr, janubiy devori 712 metr, shimoliy va sharqiy devorlari 660 metr bo'lib, kal'aning umumiy maydoni 44 ga. Qal'a devorlari har 33 metrli yarim aylana shaklidagi burjlar bilan ta'minlangan. Topografik kuzatishlar natijasida qal'ada to'rt darvoza bo'lganligi aniqlandi.

Pil (Fil-Fir) - Kat kal`a shahri afrig`iylarning qarorgohi ko`chirilmasdan ilgari ham mavjud ekanligi ma`lum bo`ldi. Uning eski bo`lagi Pil qal`ada o`tkazilgan arxeologik tadqiqotlar, qal`aning mavjud bo`lgan davri miloddan avvalgi 1V-III asrlar va milodiy VII-VIII asrlar davomida unda hayot davom etganligin ko`rsatadi. Hozirgi vaqtda mudofaa inshootlari yaxshi saqlangan. Qal`aning (230 x 227 m). Qal`a xom g`ishtdan qurilgan bo`lib, hozir uning devorlari nurab qolgan. Mudofaa devorlari ikki qavat bo`lib, tashqarisidagisi dumaloq burjlar bilan mustahkamlangan. Qal`a darvozasi janubiy devorida joylashgan bo`lib, murakkab aylanma kirish yo`llari bilan» ta`minlangan Qal`ada o`tkazilgan arxeologik tadqiqotlar, uning mavjud bo`lgan davri miloddan avvalgi IV-III asrlar va milodiy VII-VIII asrlar ekanini, unda hayot davom etganligini ko`rsatadi.

Qal`aning sharqi-janubiy burchagida to`rt burchak shaklidagi ko`shk (54 x 54 m) joylashgan. Uning devorlari paxsadan ishdangan bo`lib, tag qismida qalinligi 6 metr, balandligi 10-11 metrni tashkil qilgan. Ko`shkning shimol devoridagi darvozasiga tuproq ko`tarma yo`l orqali kirish mumkin. Ko`shkning mavjud bo`lgan davri VII-VIII asrlar hisoblanadi.

IX asrda yashab ijod etgan fors tarixchisi Belazuri bergan ma`lumotda: «Kat shu davrdagi Xorazmning eng katta mustahkamlangan qal`asi bo`lgan va uning umumiy maydoni Samarkandning musulmonlar davriga qadar bo`lgan maydoniga teng» ekanligini yozgan. Ayrim manbalarda qal`a maydoni 500 gektarga yaqinligi aytiladi. X asr oxirlarida Xorazm va uning poytaxti Kat to`g`risidagi ma`lumotni biz, arab sayohatchi-geografi al-Maqdisiyning «Ahsan at-taqasim fi ma`rifat ul-aqalim» degan asarida: «Kato`ngkirg`okda. Shahrisondeb, xdmaytishadi, kattaligi Nishopurga teng, u daryoning sharqida. Undagi Juma masjidi bozor ichida joylashgan. Uning yog`och ustunlari odam bo`yiga teng keladigan qora tosh ustida o`rnatilgan. Hokimiyatning qal`a o`rtasida (baland) kuxandizi bo`lgan, lekin uni daryo buzib yuborgan. Ularning qal`ada kanallari bor. U yaxshi qal`a, u erda allomalar yashaydi. Uning aholisi o`qimishli, xalqi yaxshi yashaydi, boy, mollari ko`p. Uning aholisi mohir binokorlar bo`lib, kur`onni yaxshi o`qiydilar, ular kabi qur`onni o`qiydiganlar hatto Iroqda ham yo`q.

Aytishlaricha, ularning qaddi-qomati kelishgan. Biroq uni hamma vaqt daryo olib turadi. Uning xalqi narirokka ko`chib, yana quraveradi».

O`rta asrlardagi al-Istahriy, ibn Xavkal va al-Makdisiylarning qo`lyozma manbalarida Katning katta kal`a ekanligi, kuxandiz va shahristoni borligi, ularda juma masjid Xorazmshoxdarning saroyi, hibsxona bo`lganligi, qal`ani ikki qismga bo`lib, Jardur kanali o`tganligi haqida ma`lumotlar yozib qoldirganlar.

Qal`aning bozori xamma narsaga serob bo`lgan va serqatnov bo`lib, savdo axli uchun hamma imkoniyat yaratilgan. Shu davrda, ibn Xavkalning yozishicha, qal`a ahli, eski shahar orqasida yangi shahar qurishgan.

Qal`a har safar Amudaryo suvidan falokatga uchraganini ham manbalarda kayd etilgan. Saljuqiylar sulolasidan Alp-Arslon, 1066 yilgi Xorazmga yurishi vaktida Kat qal`asida bo`lgan. U, Mirxondning yozishicha, shaharning vayrona bo`lib yotgan xarobalariga iltifotlik bilan nazar solib, hamma buzilgan binolarni qayta tiklatgan va yiqilib yotgan jamoa masjidning o`rniga yangi masjid binosini qurdirgan Qal`a XIII-XIV asrlarda ham Janubiy Xorazmda katta ahamiyatga ega bo`lgan. Kuchli mudofaa devori va suvga to`lgan xandaq bilan o`rab olinganligi Abulg`oziy va Umarxon asarlarida ham berilgan.

Hozirgi kunda qal`ada XIV asrga doyr Shayx Abbos Vali, Kechirmas bobo maqbaralari saqlangan. XX asr boshlarigacha katta minorasi sakdanib turgan. Shayx Abbos Vali maqbarasidan janubi-sharkda Jigarmand bobo maqbarasi borligi aniklandi. XVII asr oxirlarida suvsizlikdan qal`a aholisi Amudaryoning chap sohiliga ko`chirilib, u erda Kat kal`asini barpo etdilar.

Shunday qilib, sharqida Aqchako`l, orqasida Qizilqal`a joylashgan mahalliy xalq orasida «Qozoqli jatqan» nomi bilan belgili estalik avvalgi rivoyat, afsonalardan ma`lum bo`lganiday, shuningdek 1913-yili N.A.Dimo mehnatlarida Aqchaxonning qal`asi ekanligidan hech qanday gumon tug`ilishi mumkin emas. Shunda qachon va qanday qilib «Qozoqli jatqan» deb atalgan?

Mahalliy yoshi kattalarning aytishiga qaraganda 20 yillarining oxirida Qozoqstonda o`rin olgan ochorchilikga bog`liq Qizilqal`a, Aqchaxonqal`a,

Tuproqqal`a atrofiga ko`chib kelgan odamlar vaqtincha joylashgan. Ularning ayrimlari shu xududta yashab qolgan. Mana shularning biri xalq orasida nomi chiqqan Guzenbay og`a ermekbaev o`zlarining ocharchilik yillarida qanday ko`chib kelganliklarini 1981-1982-yillarida Qizilqal`ada tadqiqot ishlarin olib borganda aytib bergan edi. Shulardan Aqchaxonqal`a atrofida 40 yillarga kelib xo`jalik soni kamaygan edi. Natijada uzoq vaqtlar bu qal`ada xalq yashamay qumlar ostida qolib ketgan. Qal`aning avvalgi nomi unitilib, uning o`rniga ocharchilik yillarida ko`chib kelgan odamlarning millati nomi bilan atalib «Qozoqqal`a» yoki «Qozoqli jatqan» qal`a degan nom paydo bo`lgan. Buni qal`aning orqa sharqiy devorlari ustiga shu vaqtlardagi odamlar dafn qilingan. Shunga asoslangan holda «Qozoq ovliyo» deb atalgan kichkina qabrstoni tasdiqlab turibdi.

Aqchaxon qal`a ilimiy jihattan birinchi marotaba 1956-yili belgili bo`ldi. Uni ochgan tarix fanlari doktori B.V.Adrianov qumga qo`milib yotgan qal`aning faqat orqa burchaginigena ko`rgan va uni eramizning boshlarida solingan qal`alar qatoriga qo`shadi.

1982-1985-yillarida bu erda arxeolog G`.Xojaniyazov tomonidan arxeologik tadqiqotlar ishlari yurgizildi natijada asosiy xududi to`liq aniqlandi, uning qurilgan vaqti yana 400 yilga tenglashtirildi. Shu bilan bir qatorda bu esdalik qadimgi Xorazm davlatining poytaxt qal`asi bo`lishi mumkinligi haqida birinchi bor fikr aytili.

1994-yili O`zbekiston fanlar akademiyasi Qoraqalpog`iston bo`limining tarix arxeologiya va etnografiya instituti va Avstraliyaning sidney universiteti o`rtisida o`z-aro birga ishlashish haqida shartnoma imzolanadi. Ushbu shartnoma asosida 1995-yildan boshlab Aqchaxon qal`ada Qoraqalpog`iston Avstraliya xalqaro arxeologik ekspeditsiya o`z ishini olib bormoqda Qal`ada olib borilgan arxeologik qazishmalar jarayonida uning ichgi va tashqi qal`ada tashgil topganlagini aniqlagan. Qal`aning solingan vaqti va uning poytaxt qal`a ekanligi haqida 80-yillarda aytilgan fikrlar belgili darajada o`z isbotini tobdi.

Demak, entseklopedits olim Al Beruniy ma`lumotlaridagi 305-yili Kat qal`ada saroy solgan Afrix podsho to`g`ridan-to`g`ri ushbu Aqchaxon qal`adan poytaxtni Katga ko`chirgan.

Shunday qilib, hozirgi «Qozoqli jatqan» nomi bilan belgili bo`lgan qal`a olimlarning fikricha qadimgi Xorazm Darjash Aqchaxon qal`a bo`lib topiladi.¹³

Tashxirmontepa - Qoraqalpog`iston Respublikasi Beruniy tumani xududida Navoyi va Guliston fermer xo`jaliklari oraliqlarida joylashgan. Bu xududta tadqiqot ishlari olib borilishi juda qisqa bo`lgan. Birinchi marotaba 1956-yili Xorazm arxeolog-etnografik ekspeditsiya a`zosi qadimgi Xorazm suo`g`orish sistemasi bo`yicha etuk mutahasis professor B.V.Andrianov tomonidan ochilgan. Bunnan tashqari 1985-yili O`zbekiston fanlar akademiyasi Qoraqalpog`iston bo`limida tashkillashtirilgan Qoraqalpog`iston arxeologik ekspeditsiya a`zolari tomonidan Toshqirmon estaligida arxeologik ishlar olib borildi. Natijada estalik B.V.Andrianov tomonidan aniqlangan.

Kat – o`z zamonining katta olimi va enteklopedisti Abu Rayxon Al Beruniy 4-oktyabr` 973-yili Kat hozirgi Beruniy shahrida dunyoga kelgan. Olimning kindik qoni tomgan bu muqaddas qal`a haqida arablar bosib olgandan so`ng janubiy Orolbo`ylarida bo`lgan arab fors tarixchilari, geograflari bilan sayohatchilarning ilmiy asarlari kundalik daftarlarida Fil-Fir, Kat-Kas, al Mam, Sura, Shahriston va hokazo nomlarda uchratishimiz mumkin. IX-asrda Al Belazuriy va At Tabariylar Katga bog`liq ma`lumotlar yozib qoldirgan.

At Tabariy O`rta Osiyoni shu bilan birga janubiy Orolbo`ylarini arablarning bosib olishiga bog`liq o`zining asarlarida Fil qal`asi undagi podshoh saroylari haqida ma`lumotlar bergan. Dunyo yuzi islom davlatlariga sayyohlik qilgan belgili geograf Al Makdesi janubiy Orolbo`ylarida shu bilan birga Kat qa`lasida bo`ladi. 985-yili yozgan o`zining «Axsat at Makasin fi ma`rifat al akalim» asarlarida qal`a haqida quyidagilarni keltiradi.

¹³ Ходжаниязов Ф, Ягодин Г. Хеллес, Маклеран, 2001-йил 175-180-бетлар

«Shahrison» deb ataladigan Kas qal`asi o`zining maydoni jihatidan Neshafurga (Iran) barobar keladi. Masjitlar har biri odam bo`yi keladigan qora toshlarga o`rnatilgan ustinlar yordamida bostirilgan. Shahar bozorlari dunyoning to`rt tomonidan olib kelingan narsalar bilan to`li. 996-yili davlat markazi Gurgandjga hozirgi ko`hna Urganchga ko`chirilgani bilan Kat poytaxtdan keyingi ikkinchi qal`a bo`lib qola berdi. XIV asrda foris tarixchisi Mirxandi o`zining saljukiylar tarixiga bog`liq yozgan asarlarida Alp Orislonning 1066-yili Katga kelib, qal`aning vayron bo`lib yotgan erlarini qayta qurganligi va juma masjitini soldirganligini yozib qoldirgan. Mirxond keltirgan jumla 1017-yili g`aznaviylarning Xorazmga bosib kelishi oqibatida o`rin olgan bo`lishi mumkin. Ushbu voqeya Al Beruniyning tug`ilgan elidan G`azna qal`asiga bira to`la olib ketilishiga bog`liq. 1339-yili Katda bo`lgan marokkashli (tunis) arab sayohatchisi Ibn Batuta Kat qal`asining juda ko`rkam qal`a ekanligini yozib qoldirgan.

Amir Temurning janubiy Orol bo`ylariga kelishi va Kat qal`asiga etganida uning mahkam devorlari va suv to`ldirilgan quduqlarni ko`rib askarlariga quduqlarni cho`p bilan to`ldirishni buyiradi va qal`ani qamal qilib oladi. Abulg`ozining yozib qoldirgan ma`lumotlariga qaraganda suvsiz qolgan qal`a xalqi 1681-yili Anushaxon tomonidan daryoning chap tomoniga ko`chirildi. Yangi xududta paydo bo`lgan xalq Kat deb atala boshladi. Natijada daryoning chap tomonida ikkinchi Kat paydo bo`ldi lekin yangi xududdagi Katlilar o`zlarining eski vatanini unutmadi va musulmon bayramlarida eski Katda qolg`an Shayx Abboz Valining qabrini ziyorat qilib turgan. Vaqtning o`tishi bilan XVII- asrning oxiri XVIII asrning boshlarida eski Kat Shabboz nomi bilan qayta tiklandi.

**Sultan Uvays tog`i** – ziyoratgohi Qaratog` etaklarining Beruniy tumaniga qarashli xududida joylashgan. Bu mozor asosan «Ziyoratxonodan», «Qabrxonadan» turadigan yoki bo`limdan iborat. «Qabrxona» yoki gumbaz bilan bostirilib ichida uzunligi 8 metr bo`lgan sahna joylashgan. Mozorning oldi tomonida bir necha kichkina mehmonxonalar ung va ters ayvonlar, masjitlar bor. Masjitning maydoni 10x18, 20 metrga teng. Uning yana bir balandlikta joylashgan toshtagi izlar Sulton

boboning namaz o`qiganidagi tizasining izlari deb munajat tepa deb nom quyilgan. Sultan boboning kim ekanligi va uning tarixta bo`lgan bo`lmaganligi haqida fanda bir qator fikrlar bor. XII asrda yashagan fors tojish shoyiri Farid-Ad-Din Attarning XII asrdagi Shayxlarning umri asariga asoslana o`tirib, belgili sharxshunoschi Li Klimovich Sulton boboning uma xaliflik etgan davrida 643-yili arab ellarining birida dunyodan o`tgan bo`lishi mumkinligini aytadi. Uning o`lgan vaqti 653, 657, 658, 659, 660-yillar deb yurgizilib eng so`nggisi Alining xalifalik etgan davriga to`g`ri keladi. Etnograf G.P.Snesarev va bir qator olimlar Sulton boba tuya boqqan va cho`pon bo`lishi mumkinchiligi nazarda tutilgan.

Bizlar muhakoma qilayotgan bu mozorning qachon va kim tomonidan solinganligi hozirda fanda to`liq aniq emas. Lekin mozorga qo`yilgan peshtaxtda uning XIV asrga tegishli ekanligi aytilgan. Xalq orasida aytilib yurgan gaplarga qaraganda uning solinish tarixi Xiva xoni Allaqul (1825-1842) bilan bog`liq deyishadi.

Islom mafkurasining kuchli ta`siri bilan u Kichik Osiyodan Qashgarga va Orqa Hindistondan evro Osiyo xududlariga taralgan. U Qoraqalpog`istonda Sulton bobo yoki Sulton Uvays bobo, Qozog`istonda Oysil Qara, Turkmanstonda Uvays bobo nomlari bilan belgili bo`lsa, V.A.Gordlevskiyning ko`rsatishicha Turtsiyada Uaesil Qaraniy degan nom bilan mashhur.

Shunday qilib, Beruniy tumanining tarixiy joylarini o`rganar ekanmiz, davlatimizning buyukligiga yana bir karra ishonch hosil qilamiz. Prezidentimiz Islom Karimov aytganlaridek, davlatimiz buyuk, kelajagimiz ham buyukdir.

III-BOB. MUSTAQILLIK DAVRIDA DAVLATCHILIK TARIXIGA BO`LGAN MUNOSABATNING AHAMIYATI.

3.1. Mustaqillik davrida tarixga, ma`naviyatga, madaniyatga bo`lgan e`tiborning kuchayishi.

Beruniy tumani Qoraqalpog`iston Respublikasining janubida joylashgan bo`lib shimoliy-sharqdan Ellikqal`a, g`arbdan esa Amudaryo, shimoliy-g`arb tomondan Qorao`zak, Taxtako`pir tumanlari bilan chegaradosh. Tuman Amudaryoning o`ng sohilida joylashgan bo`lib xududi sohil bo`ylab 72 km. ga cho`zilgan. Jami maydoni 5,4 ming kvadrat kilometr va 29 ming 105 gektar ekin maydoniga ega. Tumanning 300 ming gektar erini Qizilqum cho`llari, Sulton Uvays tog` tizmalari, Bodoy, Tolliq, Sariotov to`qayzorlari, Oqchoko`l, Ayazko`l, Moshliko`l, Chakkako`l, Palvoshko`l kabi tabiiy suv xavzalari tashkil etadi.

Beruniy tumanining rel`efi xilma-xil va tumanda tog`larni, tog` etaklarini va past tekisliklaridan iborat.

Sulton Uvays tog`i Amudaryoning o`ng qirg`og`ida Beruniy shahri bilan Nukus shahri orasida joylashgan. U janubiy kenglik bo`yicha hamda shimol tomondan meridian yo`nalishida joylashgan bo`lib, Sulton Uvays tog`ining shimoldan janubga uzunligi 40 km.dan ortiq, kengligi 10-15 km hisoblanadi. Tog` atrofidagi Qizilqumdan shamollarning olib kelgan changlaridan to`plangai qum massivlari ham uchraydi.

Beruniy tumani Qoraqalpog`iston respublikasining boshqa tumanlariga nisbatan mineral resurslarga boy hisoblanadi.

Tuman keskin kontinental iqlimga ega. Harorat ezda 38-48° daraja bo`ladi. Qishda esa 45° darajagacha sovuq bo`ladi. Sovuq ob-havo 70-80 kun davom etadi. Issiq vegetatsiyalik davri Beruniy tumani sharoitida mart oyining birinchi o`n kunligidan boshlanib noyabr oyining birinchi o`n kunligining oxirigacha cho`ziladi.

Tumanning tashkil etilishi haqida umumiy ma`lumot. Beruniy tumani 1927 yil 3 iyulda tashkil topgan. Tumanni barpo etish bilan bog`liq ishlar 1928 yil fevral,

may oylarida yakunlangan. Ma`lum muddat mobaynida 1-may tumani deb ham yurigilgan. Tuman tashkil topganda aholisi 25988 fuqoradan iborat bo`lib, 2395 nafarini ya`ni 65% ni o`zbeklar tashkil qilgan. Islom Aliev, Sobir Klichev, Annaqlich Adakaevlar boshqardilar. 1931 yilda Santk-Peterburg shahridan ishchilar guruhi kelib Shobbozda Qoraqalpog`istondagi dastlabki MTS ni tuzdilar. 1936 yilgacha tumanda 9-ta jamoa xo`jaligi bo`lgan bo`lsa, biroz o`tib ular soni 75 taga, keyinchalik 105 taga etdi. 1965 yil ga kelib tuman sanoati keng miqiyosda rivojlana boshladi. Paxta tozalash zavodi, yog` zavodi to`la quvvat bilan ishlashga o`tdi. 1969 yilning bahori xavfli boshlandi. 13 mart tong otarida Amudaryo o`zanidan toshib qisqa vaqt ichida katta oqim bilan tuman markazining katta qismini suv bosib oldi. 3700 gektar er maydoni 4583 ta xonadon suv ostida qoldi. 1969 yili 16 mayda O`zbekiston oliy kengashi raesatining 607 sonli farmoniga ko`ra Beruniy respublika ahamiyatiga ega shahar maqomini oldi. 1973 yil tumanimiz buyuk bobokolonimiz Amu Rayxon Beruniy tavalludining 1000 yilligi sanasi sifatida kirdi. Shu yilning 8-sentyabrda shaharda yangidan bunyod etilgan Beruniy xieboniga respublikaning barcha joylaridan, tumanlardan rahbarlar, olimlar to`plandilar. Tavallud sanasida O`zbekiston Firqa Markaziy qo`mitasi kotibi Oqil Solimov, O`zbekiston fanlar akademiyasi prezidenti Obid Sodikov, vitse prezidentlari M.Nurmuxammedov, Ibroxim Mo`minov kabi o`nlab madaniyat arboblari ishtirok etdilar. Beruniy tumanida hozirgi kunda Kat qal`a, Fil qal`a, Qizil qal`a, Jampiq qal`a, Sulton-Uvays maqbarasi, shuningdek o`nlab tarixiy-arxeologik edgorliklar bor.

Amudaryoning o`ng qirg`og`ida joylashgan Kat shahri aksariyat barcha tarixiy davrlarda Markaziy Osiyodagi yirik madaniy iqtisodiy markazlardan biri hisoblangan. IX-XI asrlar Markaziy Osiyo madaniyatining eng gullangan davri bo`lib shu davrda yashagan buyuk olimlardan matematik, astronom va geograf Al-Xorazmiy. Faylasuf va tabiatshunos Forobiy mashhur tibbiyot olimi Ibn Sino va jahon faniga o`zining bebaho o`lmas asarlari bilan boyitgan qomusiy bilim soxibi Abu Rayxon Beruniy kabi allomalar etishib chiqqan. Muxammad Ibni Axmad Abu Rayxon Al Beruniy 973 yilning 4 sentyabrda Xorazm davlatining o`sha davrdagi

poytaxti bizning Beruniy shahrimiz o`rnida joylashgan Kat qal`asi yaqinidagi qishloqlardan birida tavallud topdi. Beruniyning birinchi yirik «Qadimgi xalqlardan qolgan edgorliklar» asarini 999-1000 yillarda ezib tugatdi. Beruniy geografiya, geodeziya, meteorologiya, kartografiya, geologiya, psixologiya, etnografiya, estetika kabi 20 dan ortiq fanlar bo`yicha 150 tadan ortiq ilmiy asarlar yozdi. Alloma birinchilardan bo`lib ernaing Quyosh atrofida aylanishini ilmiy tarzda asoslab berdi va o`rta asrlarda ilk globusni yaratdi. 1957 yilning 4 iyulidan buyon O`zbekiston Oliy Kengashi qaroriga ko`ra Abu Rayxon Beruniy tug`ilgan tuman uning nomi bilan yuritilmoqda.

Mana shu vaqtdan beri tuman buyuk vatandoshimizning muborak nomi bilan atalib kelmoqda.

Mustaqilligimiz sharofati bilan 1997 yil 18-19 dekabr kunlari Beruniy tumani xalqining yodidan hech qachon chiqmaydigan voqea sodir bo`ldi. Chunki shu kuni Respublika rahbariyati hamda «Bobur» nomidagi xalqaro jamg`arma raisi Zokirjon Mashrabov, «Beruniy avlodlari» xalqaro jamg`armasi, tuman hokimligi say`i-xarakatlari bilan bobomizning hoki Afg`onistonning Gazna viloyatidan olib kelinib, o`zi tug`ilgan yurt-Kat qal`asi yonidagi ramziy kabrga dafn etildi. Shu erda 18.5 gektar er Beruniy muzey majmuasi va bog`i uchun ajratildi.

Beruniy tumanida Kat kal`a, Filkal`a, Qizilqal`a, Aqchaxonqal`a, Qoratepa, Ayazqal`a, Sulton Uvays bobo makbarasi shuningdek, boshqada o`nlab tarixiy-arxeologik yodgorliklar bor.

Shunday qilib, Beruniy tumanining tashkil etilishi tarixi bilan tanishar ekanmiz, tuman shu kungacha juda uzoq yo`l bosib o`tganligining guvohi bo`lamiz. Ammo xalqning bunyodkorligi kundan-kunga oshganligini ko`ramiz. Shu bilan birga, tumanning ijtimoiy-iqtisodiy imkoniyatlari ham kengayib, rivojlanib bormoqda.

Madaniyat tarmoqlari aholini ma`naviy tomondan tarbiyalashda va rivojlantirishda katta ahamiyat kasb etib, ijtimoiy kategoriyalar qatoriga kiradi. Madaniyat tarmoqi ko`p tarmoqli bo`lib, bunga kutubxonalar, muzeylar, zoopark, madaniy dam olish parklari, klublar, adabiyot miyrosalar, teatr, filormoniyalar,

poligrafiya korxonalar kiradi. Bu tarmoqlar aholining madaniy - ma'naviy dunyoqarashini orttirishda va ma'naviy boyligini orttirishda muhim rol uynaydi.

Respublikada madaniyat va maorif tarmoqlariga kiradigan korxonalarning bazalari rivojlanmoqda. Uning asosiy vazifasi aholiga madaniy xizmat ko'rsatish darajasini yaxshilab, fuqarolarni Vatanga degan muxabbat, davlatlar orasida do'stlikni mustahkamlash, yaxshi dam olishdan iborat va shu yo'nalishda katta ishlar olib borilmoqda.

Shu jumladan Beruniy tumanida hozirgi vaqtda ommaviy va shu jumladan bolalar kutubxonalari soni 36, ulardagi kitoblar soni 267740, klub muassasalari 19, ulardan to'garaklar soni 109, shuningdek to'garaklarga qatnashadiganlar soni 1344 kishini tashkil etadi. Shuningdek tumanda bolalar musiqa maktabi, istirohat va madaniyat bog'lari bor. Tumanda kino qurilmalari soni 19, shulardan kinoteatrlar 2, ulardan joylar soni 1020 kishilik bo'lib hisoblanadi.

Shunday qilib, turar-joy fondini tuzishda davlat dasturiga kirmaydigan tashkilotlarning ulushi ko'tarilmoqda. 2000 yil respublika territoriyasida 239 ming kv m. turar-joy kurilishi tugallansa, Beruniy tumani bu yil foydalanishga berilgan turar-joy ob'ektlarini yanada oshirdi.

Qishloq aholisiga xizmat ko'rsatish va ushbu ehtiyojlarga bo'lgan talabni qishloq joylarning o'zida qondirish orasida jiddiy farq mavjud. Tabiiyki, qishloq aholisiga xizmat ko'rsatishning noyob va tanqis shakllari, uning yuqori bosqichlari tuman, viloyat va hatto mamlakat markazida amalga oshiriladi. Shu jihatdan xududning har xil darajadagi shaharlar-markaziy o'rinlar bilan ta'minlanganligi, ularning qishloq aholisi qatnovi uchun qulayligi, yo'l sharoitlari katta ahamiyat kasb etadi. Ayni vaqtda qishloq aholisining barchasi uchun zarur bo'lgan kundalik ehtiyojlar mumkin qadar ular yashaydiga joylarning o'zida qondirilishi maqsadga muvofiqdir. Bu esa qishloq joylarda aholiga xizmat ko'rsatish tarmoqlarining turi, tarkibi va tizimiga bog'liq.

Mohiyatan aholiga xizmat ko'rsatish sohalari kishilarning ijtimoiy talabini qondirsada, ular aslida ijtimoiy-iqtisodiy jabha hisoblanadi. Chunki mazkur sohalar negizini iqtisodiy munosabatlar, iqtisodiy ob'ektlar tashkil etadi. Bu va bunga o'xshash masalalar tuman

hokimiyatining diqqat markazida bo`lib, ishlar reja asosida, bosqichma-bosqich amalga oshirilmokda.

Aholiga turar-joy, kommunal xizmat ko`rsatish ishlari ham amalga oshirilmoqda.

Qoraqalpog`iston Respublikasi ijtimoiy rivojlanish vazifalarining biri aholiga turar-joy, kommunal xo`jaligi xizmati bilan ta`minlash kiradi. Aholini turar-joy bilan ta`minlash kelajak avlodning obodonligi, sog`liqni saqlash muammolarining asosi hisoblanib, bu tarmoqda bir qancha ishlar amalga oshirilmoqda. Hozirgi vaqtda respublika aholisiga yil sayin 1,81-1,94 mln kv m, turar-joy fondi berilmoqda. Bu o`tkan yilga qaraganda bir qancha ko`p darajada. 1976-80 yillarda besh yil ichida respublikada 2 mln 282 ming kv m. turoq. joy fondi tuzilsa, bu ko`rsatkich 1981-1985 yillarda 2 mln 366 ming kv m, 1986-1990 yillarda 3 mln 98 ming kv m. o`z ichiga oladi. Bu masala ham talab darajasida amalga oshirilmoqda.

Umuman olganda, Beruniy tumanida ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish, aholining turmush darajasi, ta`lim sohasidagi ijobiy o`zgarishlar qo`zni quvontiradi. Tumandagi aholiga xizmat ko`rsatish korxonalari, maktab, maktabgacha ta`lim muassalari va boshqa xizmat ko`rsatish markazlari talab darajasida tashkil etilgan. O`lka tarixini o`rganib, uning buyukligiga guvoh bo`lamiz va o`ziga xos ravishda faxr va iftixor tuyg`ulari paydo bo`ladi.

3.2. Mustaqillik davrida Ellikqal`a va Beruniy tumanlarining rivojlanishi.

Ellikkal`a tumani shimoldan Kizilkum chuli, Sulton Uvays togi, garbdan Beruniy, Taxtakupir, janubdan Amudaryo tumani va Xorazm viloyati, sharkdan Turtkul tumanlari va Navoiy viloyati bilan chegaradoshdir.

Tuman 1977 yilda tashkil topgan bulib, markazi Buston shaxri, jami er maydoni 541920 ga, shundan shaxar er maydoni 768 ga. Axoli soni 137,7 ming kishi, shu jumladan shaxar axolisi 18,3 ming kishi, kishlok axolisi 119,4 ming kishidan iborat.

Tumanda 13 ta ovul va 16 ta maxalla fukarolar yiginlari mavjud bulib, ularda 24520 oila istikomat kiladi.

Tuman kishlok xujaligi asosan paxta va gallachilikka ixtisoslashgan. Kishlok xujaligiga yarakli erlar 387479 gektarni tashkil kiladi, shundan ekishlik maydoni 28712 gektar va kishlok joylarida yashovchi fukarolarga 4094 gektar tomorka erlari ajratib berilgan.

Aqchako`l bo`yida, tuman markaziga kiraverishda salobat tukib turgan muhtasham San`at saroyining hashar yo`li bilan qurilgan. Zamonaviy me`morchilik andozasida, atrofi oynavand, tepa qismi kushrador qilib bunyod etilgan bu inshootning ichkarisi poytaxtimizdagi muhtasham Oliy Majlis binosidan andoza olingan... Urindiqlar, keng sahna, baland va salobatli ko`rinishga ega saroyining ichi chug`day lovullaydi. Sahna pardalariga qadalgan bezaktoshlar tepaga o`rnatilgan ulkan qandil nurlarida duru-javohirday tovlanadi.

Qoraqalpog`istonda yagona sanalgan shu san`at maskani atrofidagi anvoiy gullar, shovvullab osmonga otilayotgan favvoralar, yaltiroq va silliq toshlar yotqizilgan ravon maydon... bari-bari mamlakatimizning chekka shimolida o`ziga xos taraqqiy etgan tuman mavjudligidan dalolat berib turibdi.

Saroyning yon biqinida xuddi qadimgi Rim davlatining ochiq uyingohlari yanglig` qurilgan Amfiteatr sahniga 5 ming tomoshabin sig`adi. Bu erda respublika miqyosidagi turli tadbirlar o`tkazib kelinmoqda.

Ma'naviyat va ma'rifatning o'sib borayotganligini shundan ham bilsa bo'ladiki, 32 ta kutubxona, 12 ta klub muassasasi muntazam faoliyat ko'rsatmoqda. Ayniqsa, sport, bolalar sportining rivojlanib borayotgani quvonarli hol.

Bugun tumanda 3 ta zamonaviy tennis korti, 20 ming tomoshabinga muljallagan stadion, suzish havzasi, 17 ta futbol maydonchasi, 28 ta sport zali, 35 ta kichik futbol, 68 ta voleybol, 143 ta basketbol, 32 ta qultupi maydonchalari sport ixlosmandlari xizmatida.

Bu ko'rsatkichlarni mamlakatimizning boshqa tumanlari bilan muqoyasa qilib ko'rsak, Ellikqal'a nafaqat Qoraqalpog'istonda, balki O'zbekistonda zamonaviy qiyofada shakllanib borayotgan peshqadam tumanlardan biridir.

Chindan ham shunday, u Qoraqalpog'iston iqtisodiyotining tayanch tumani sanaladi. Buning boisi, avvalo iqtisodiy ravnaqning muhim omili-kichik va o'rta biznes salmog'iga e'tibor qaratilganidir. Hozirgi kunda tumanda 863 kichik va o'rta biznes sub'ektlari faoliyat ko'rsatmoqda. Ushbu tarmoq rivoji uchun byudjetdan tashqari mablag'lar hisobidan joriy yilning o'tgan olti oyida 66,7 mln. sum, bundan tashqari Orol jamg'armasi Bo'ston agentligi tomonidan 31,8 mln. sumlik kredit ajratildi. Ana shular hisobidan o'tgan va joriy yilning olti oyida 3910 ish o'rni ochildi.

Tumanda iqtisodiy tayanch sifatida Jahon banki agentligining filiali faoliyat ko'rsatmoqda. Ushbu loyihaga ko'ra 9 million AQSh dollari miqdorida kredit ajratildi. Bu mablag' tumanda keng ko'lamda sug'orish ishlarini olib borish, bir so'z bilan aytganda qishloq xo'jaligini rivojlantirishga sarf qilinayapti.

Ellikqal'a qiyofasi keyingi yillarda keskin o'zgardi. Asrimizning mo'jizaviy bunyodkorliklaridan biri deb e'tirof etilayotgan «Uchquduq-Miskin-Sulton Uvaystog'» temir yo'li ishga tushishi munosabati bilan bu erda hashamatli vokzal binosi qad rostladi. Ellikqal'a va Beruniy tumanlari xalq xo'jalik yuklarini ortish va tushirish stantsiyasi qurildi¹⁴.

¹⁴ Эллиққалъа. Ўзбекистон Республикаси мустақиллигининг 12 йиллигига бағишланади. // Бўстон шаҳри, 2003 йил, август. -Б.6-7

Hukumatimizning «Ta`lim to`g`risida»gi Qonuni va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»ni bajarish yuzasidan keng ko`lamdagi ishlar amalga oshirilmoqda. Bitta akademik litsey, 4 ta kasb-qunar kolleji faoliyat ko`rsatmoqda. Ularda 2250 dan ziyod yoshlar kasb sirlarini o`rganishmoqda.

Tumandagi umumta`lim maktablarida 31 ming ug`il-qiz fan sirlarini chuqur o`rganayapti. Mavjud ta`lim muassasalari moddiy-texnika bazasini mustahqamlash, yangidan o`quv o`rinlarini barpo qilish, zamonaviy ta`lim-tarbiya maskanlarini tashkil qilish ilojlari ko`rilayapti. O`tgan yili ikkita joyda hashar yo`li bilan 200 o`rinli maktab imorati qurib bitkazildi. Bugungi kunda 1500 o`ringa muljallangan 6 ta maktab binosi qurilishi ham ana shunday usulda olib borilmoqda. Homiylar tomonidan keyingi 2 yilda 88 ta maktabga 35 million 600 ming sumlik yordam ko`rsatildi.

Ayni chog`da tuman xalq ta`limi bo`limiga qarashli 7 ta bolalar bog`chasida 780 bola tarbiyalanmoqda. Ulardan 320 nafari sanatoriy tipidagi guruhlarda o`z salomatliklarini mustahkamlamoqdalar. Tumanda yangidan 3 ta bolalar bog`chasi ishga tushirildi va yana shunchasi ishga tushish arafasida turibdi¹⁵.

Tabiati bahavo, so`lim gushada joylashgan bu siqatgoh 1987 yildan buyon Qoraqalpog`iston xalqining salomatligini mustahkamlashga juda katta hissa qo`shib kelayapti.

Yuz o`ringa mo`ljallangan sanatoriyda har yili 1 ming 300 ga yaqin kishi xordiq chiqarib, o`z salomatliklarini tiklaydi. Siqatgohda asosan, odam organizmining harakat a`zolari, periferik asab hastaliklari, yurak qontomir, oshqozon-ichak, teri, ginekolog kasalliklar davolanadi.

Shifo maskanida 940 metr chuqurlikdan chiqqan yodbromli ma`danli so`v og`riqni qoldirish, surilish, allergiyaga qarshi, tinchlantiruvchi, shamollashga qarshi, dizenfektsiyalash xususiyatlariga ega bo`lib, u Semashko ilmiy tadqiqot instituti olimlari tavsiyasiga ko`ra qo`llanilmoqda.

¹⁵ Элликқалъа. Ўзбекистон Республикаси мустақиллигининг 12 йиллигига бағишланади. // Бўстон шаҳри, 2003 йил, август. -Б.17

Bundan tashqari sanatoriyda balchiq bilan davolash, azakerit, parafin, manual terapiya, massaj, igna, elektr quvvati va boshqa fizioterapiya usullari bilan davolash yo`lga qo`yilgan.

Siqatgoh kengaytirilib, 300 o`ringa etkazish uchun katta qurilish ishlari olib borilmoqda. Bu erda hozirgi kunda 3 nafar oliy toifali va 1 nafar stomatolog vrach, 12 hamshira fidoiy mehnat qilishmoqda.

Shifo maskanida barcha qulayliklar yaratilgan bo`lib, 27 gektar mevali bog` hosilidan bu erda davolanuvchilar bahramand bo`lishmoqda. Sanatoriy huzurida tashkil etilgan bolalar oromgohida yoz mavsumida 400 nafar o`quvchi hordiq chiqarib, o`z salomatliklarini mustahkamladi. Ularga to`rt mahal issiq ovqat berilib, hastaliklari bo`lgan bolalar davolanmoqda. Zamonaviy sport anjomlari, chumilish havzasi bolalarning eng sevimli mashg`uloti bo`lmoqda.

«Ellikqal`a oltin tolasi» hissadorlik jamiyatiga qarashli «Aqchakul» siqatgohi 1979 yildan buyon har smenada 25 kishining salomatligini tiklashga xizmat qilayapti.

Bu erda umumterapiya hastaliklari davolanadi. Bemorlarga elektr quvvati, yorug`lik, shifobaxsh suv, balchiq, azakerit, parafin, massaj, ingalyatsiya bilan davolash usullari taklif etiladi.

Shifo maskanida 760 metr chuqurlikdan tarkibida brom bo`lgan ma`danli suv olinib, foydalanilmoqda. Yaqin kunlarda siqatgoh 100 o`ringa etkaziladi. Zamonaviy davolash korpusi qurilmoqda. Bu erda dam oluvchilarga 14 nafar tibbiyot xodimi namunali xizmat ko`rsatayapti.

Sanatoriyga marhamat. Mazmunli hordiq chiqarib, davolaning. Darddan forig` bo`lasiz!

Amudaryoning sulim sohiliga joylashgan ushbu siqatgohda bir yo`la 75 kishi hordiq chiqarib, o`z salomatliklarini tiklash imkoniyatiga ega. Bu erda dam oluvchilar uchun yaratilgan qulay shart-sharoit katta shaharlardagi siqatgohlarnikidan aslo qolishmaydi.

Siqatgoh hududidan chiqqan tabiiy ma`danli suvdan 2002 yildan boshlab foydalanilmoqda. Truskovetsning «Naftusiya» suvi guruhiga kiruvchi bu shifobaxsh suv asosan oshqozon-ichak, ut yo`llari, buyrak-tosh kasalligini davolashda juda asqotadi.

Toshkentdagi «Chinobod» sanatoriysi bilan hamkorlikda bemorlarni davolashning zamonaviy usullari qullanilayapti. 1995 yildan buyon faoliyat ko`rsatayotgan siqatgohda bugungi kunda bosh hakim 3.Otaniyozov rahbarligida unlab malakali shifokorlar kupchilikning olg`ishini olaypti¹⁶.

Xorazmning mumtoz ashula, suvora va maqomlari xalqimizning bebaho merosi hisoblanadi. Bu bebaho an`analar faqat qadim tarixiy meros bo`lib qolmay, balki kelajakni obod etishga qodir tuganmas manbadir.

Moziydan kelayotgan ma`naviy boyliklarning muqaddas ruhini xalqimizga etkazishda hofiz san`atkorlarning xizmati beqiyos. Har bir chinakam ovoz sohibi otashnafas xonanda qalbidan otilib chiqadigan uzining haroratli ohanglari va otashin nolalari bilan maqom va suvoralar orqali millatning tarixi va o`tmishini hayolda tasavvur etish imkonini beradi.

Xorazmda ana shunday xalq nazari tushgan mashhur hofizlarimiz Xojixon va Nurmamat Boltaevlar, Madrahim Sheroziy, Qalandar ota Qasanov, Bolabaxshi, Qutlimurod va Otamurod Xojievlar, Abdusharif Vafoev, Komiljon Otaniyozov hamda Jumanazar Bekchanovlar ana shu ulmas navolarni xalqning yuragiga joylashda katta hissa qushganlar. Ushbu sharaflı san`at maktabida Otajon Xudoyshukurovning alohida o`rni bor. Chunki, Otajon aka ijrosidagi suvoralar, feruzlar, maqom yo`llari, ayniqsa Xorazm segohi o`ziga xos va yuksak darajadagi ruhiyati bilan ajralib turadi¹⁷.

Italiya operalarini urganish jarayonida menga bir sir ochildi. Xorazm klassik maqomlarining ijrolari, ulardagi yuksak mahorat, ovoz imkoniyatlarini tula-tukis

¹⁶ Эллиққалъа. Ўзбекистон Республикаси мустақиллигининг 12 йиллигига бағишланади. // Бўстон шаҳри, 2003 йил, августъ. -Б.18-19

¹⁷ Эллиққалъа. Ўзбекистон Республикаси мустақиллигининг 12 йиллигига бағишланади. // Бўстон шаҳри, 2003 йил, августъ. -Б.21

safarbar etish Italiya opera maktabi poydevori bo'lsa ajab emas, degan narsani uylab qolasang kishi.

Tuman aloqachilari yaqinda yana bir hayrli ishga qul urdilar

Bugungi kunda tuman markazida kabel televideniesi faoliyat ko'rsata boshladi. 3,5 million sumlik zamonaviy uskunalar sotib olindi. 4 kilometr kabel liniyasi tortilib, 100 ga yaqin abonent ulandi. Mahalliy teleko'rsatuvlar tashkil etilmoqda.

Kelgusida Saribiy, Amirobod, Qilichinoq ovullari aholisi ham kabel televideniesini tomosha qilishadi. Bu ishlarni amalga oshirish uchun yana 10 million sumlik uskunalar sotib olinadi.

Ellikqal'aning «Internet»da o'z sayti ochildi. O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining 22 yillik bayrami arafasida Toshkentdagi «Aloqa radio telekommunikatsiya» mas'uliyati cheklangay jamiyat tomonidan amalga oshirilayotgan loyiqa ana shunday imkoniyat yaratdi¹⁸.

Tumanda Yurtboshimiz Farmoniga muvofiq bolalar sportini rivojlantirish bo'yicha keng kulamdagi ishlar olib borilmoqda. Bu yuzadan ishlab chiqilgan tadbirga kura 37 ta bolalar sporti maydonchalarini qurish va mavjudlarini qayta ta'mirlash ishlari amalga oshiriladi. Bugungi kunda G'.Odilov namli shirkat xo'jaligida hashar yo'li bilan zamonaviy talablarga tula javob beradigan sport majmui qurilishi yakunlanmoqda. Bu yil tumanda yana ana shunday 3 ta majmua bunyod etiladi.

Mavjud 3 ta zamonaviy tennis I korti, 20 ming tomoshabin sig'adigan uyingoh, jahon talablariga javob beradigan suzish havzasi, 2\$ ta sport zali va boshqa ko'plab inshootlar sportchilar ixtiyorida.

«Alpomish» kurash klubi hamda «Baxt-Ruslan» karate klublarida 200 dan ortiq o'g'il-qizlar jismonan chiniqmoqdalar. Ular orasidan kelgusida olimpiada va jahon chempionlari etishib chiqishiga katta umid bildiramiz¹⁹.

¹⁸ Эллиққалъа. Ўзбекистон Республикаси мустақиллигининг 12 йиллигига бағишланади. // Бўстон шаҳри, 2003 йил, августъ. -Б.32

¹⁹ Эллиққалъа. Ўзбекистон Республикаси мустақиллигининг 12 йиллигига бағишланади. // Бўстон шаҳри, 2003 йил, августъ. -Б.33

Mustaqil yurtimizda yashovchi insonlarning dunyoqarashi, onggi, madaniy saviyasini orttirish, ma'naviyatini yuksaltirishga qaratilgan ishlar olib borilmoqda. Madaniyat uchoqlarida ham islohotlar o'tkazilib, davr talablariga mos ravishda targ'ibot-tashviqot ishlari yurgizilayapti.

Tumanda markazlashgan madaniyat uyi, 1 ta shahar va 3 ta qishloq madaniyat uylari, 5 ta qishloq klubi, 2 ta avtoklub aholiga madaniy xizmat ko'rsatmoqda. Jami tuman madaniyat bo'limiga qarashli klublarda 67 ta tugarak tashkil etilib, ularda 1126 kishi qatnashmoqda. O'tkazilayotgan mashg'ulotlar qatnashchilarning madaniy saviyasini oshirishga, ma'naviyatini boyitishga xizmat qilayapti. Tuman madaniyat uyi qoshida tashkil etilgan «Bo'ston» ashula va raqs xalq ansambli mehnatkashlarga kontsert dasturlarini namoyish etib, olqish olayapti. Mustaqilligimiz tufayli o'zimizga qaytgan Navro'z hamda Mustaqillik bayramlarida ularning xizmatlari juda katta bo'lmoqda. San'at bilan oshno yoshlar turli tanlovlarda faol qatnashmoqdalar. Al-Xorazmiy nomli fermer xo'jaliklari uyushmasidan F.Qusainova «O'zbekiston qushiqlar bayrami»da qatnashib, faxrli uchinchi o'rinni egalladi. Tumanimiz vakili Nargiza Masharipova yosh raqqosalarning M.Turg'unboeva xotirasiga bag'ishlab o'tkazilgan respublika ko'rik-tanlovida ishtirok etib, uchinchi o'rinni qo'lga kiritdi.

Madaniyat maskanlarida davr talabiga mos turli tadbirlar o'tkazilayapti. Uchrashuvlar, turli mavzularda kechalar, suhbatlar, yoshlarning bo'sh vaqtlarini kungilli o'tkazishlarini tashkil qilish tadbirlari katta samara berayapti. Ma'naviyatni yanada yuksaltirishda kutubxonalarning o'rnini salmoqli bo'lmoqda. Tumanda markazlashgan kutubxonachilik tizimining 31 ta filiali aholiga namunali xizmat ko'rsatmoqda. Shuningdek, 2 ta tuman, 1 ta shahar kutubxonasi ham ziyo taratmoqda.

Jami tuman bo'yicha 237046 kitob jamg'armasidan 16051 nafar kitobxon samarali foydalanmoqda. Kitob zahirasi o'tgan yili 1131 ta yangi asarlar bilan boyidi.

Ziyo maskanlarida turli qiziqarli tadbirlar amalga oshirilmoqda. Buyuk allomalarimiz Alisher Navoiy, Burqoniddin al-Marg'inoniy, Abu Mansur as-

Moturudiylarning tavallud sanalariga bag'ishlangan ko'rgazmalar, kitobxonlar anjumanlari, she'riyat kechalari ko'pchilikda yaxshi taassurotlar qoldirdi.

Joylarda, ayniqsa mavjud 25 ta qishloq kutubxonalarida «O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida», «Tabiatni asrang», «Assalom ustozlar», «Sog' tanda-sog'lom aql» degan mavzularda kitoblar ko'rgazmalari tashkil qilinganligi yaxshi natijalar berdi.

Kishilarning ma'naviyatini yanada yuksaltirishda bu ziyo maskanlari betinim faoliyat ko'rsatmoqdalar²⁰.

«Bo'stonmedservis» xo'jalik hisobida ish yurituvchi poliklinika, 1 ta hususiy stomotologik poliklinika va 10 dan ortiq hususiy dorixona xalq xizmatida.

Aholiga tibbiy xizmat ko'rsatuvchi vrachlar va o'rta tibbiyot xodimlarining malakasini oshirish bo'yicha bir qancha amaliy ishlar qilinmoqda. Keyingi ikki yil davomida 30 nafar vrach, 300 nafar hamshira o'z malakasini oshirdilar. Hozirgi kunda tumanda mehnat qilayotgan 159 nafar vrachning 9 tasi oliy, 25 tasi birinchi, 5 tasi ikkinchi toifaga ega mutaxassislardir. Hamshiralarning 42 nafari oliy, 69 nafari birinchi va 9 nafari ikkinchi toifaga ega.

«Sog'lom avlod» davlat Dasturi asosida tug'ish yoshidagi ayollarning salomatligini mustahqamlashga alohida e'tibor qaratildi. Onalik va bolalikni muhofaza qilish maqsadida tug'riq yoshidagi ayollardan 25075 nafari tibbiy ko'rikdan o'tkazilib, ularning 10650 nafari ambulatoriya, 5956 nafari shifoxona, 1250 nafari sanatoriya sharoitida salomatliklari tiklandi. Bolalar o'rtasida tug'ma nogironlik va perenatal o'lim ko'rsatkichlarini kamaytirish maqsadida barcha tug'ilayotgan bolalar maxsus ko'riqdan o'tkaziladi. 2000 yil davomida 2760 nafar yangi tug'ilgan chaqaloq va 1 yoshgacha bo'lgan 2776 bola to'la tibbiy patronaj bilan qamrab olindi hamda doimiy vrach ko'rigida bo'ldi.

Aholiga tibbiy xizmat ko'rsatish darajasini yaxshilash ishi tuman hokimligining doimiy diqqat-markazida. Davolash profilaktik muassasalarga homiy qilib biriktirilgan korxona va tashkilotlar otaliq yordamlarini ayamayaptilar. Keyingi ikki

²⁰ Эллиққалъа – гуллаётган ўлка. Ўзбекистон Республикаси мустақиллигининг 10 йиллигига бағишланган. // Бўстон шаҳри, 2001 йил, июнь. -Б.19

yil mobaynida ular tomonidan 2 million 745 ming sumlik ta'mirlash ishlari bajarildi. Tuman markaziy kasalxonasi jarrohlik bo'limi, ichki kasalliklar bo'limi, bolalar reanimatsiyasi, to'g'riqsona bo'limlari, shuningdek, «Guldursin» va «Qirqqiz» qishloq uchastka kasalxonalari to'la ta'mirlandi²¹.

Kun sayin chiroy ochib, ko'rkiga-ko'rk qo'shilayotgan tuman markaziga yo'lingiz tushsa, bu erda mustaqillik yillarida bunyod etilgan ko'plab zamonaviy ishootlarni ko'rib baqri dilingiz yayraydi. Davr talabiga mos «Supermarket» binosi, «Otalar choyxonasi» muhtasham «Sa'nat saroyi» qatoriga yana bir imorat-akademik litsey binosi qo'shildi.

Zamonaviy me'morchilikning eng so'nggi andozalari asosida barpo etilgan mazkur o'quv dargohi shaharga uzukka qosh qo'ygandek yarashib turibdi. Unda cho'lquvarlarning 600 nafar ug'il-qizi aniq va tabiiy fanlar, iqtisodiyot, ijtimoiy fanlar, xorijiy filologiya bo'yicha chuqur ta'lim oladilar. Bunga loyiq barcha shart-sharoitlar yaratilgan: litsey Janubiy Koreya va ilg'or mamlakatlardan keltirilgan eng so'nggi modeldagi komp'yuterlar bilan jihozlandi. Zamonaviy fan xonalari, laboratoriyalarda o'quvchilar tahsil olishadi. Bosh buyurtmachi Qoraqalpog'iston Respublikasi Akademik litseylar qurilishi direktsiyasi loyiqa bahosi 1991 yilgi narxlarda 5 million 545 ming sum bo'lgan bu imoratni «Bo'stonsuvqurilish» aksiyadorlik jamiyati quruvchilari shu yil «Navruz» bayramiga tayyorlab, tuhfa qildilar. Bu erda 300 o'rinli yotoqxona qurilishi jadal sur'atlarda olib borilmoqda.

-Akademik litseyga,-deydi o'quv dargohi rahbari, Qoraqalpog'iston Respublikasi xalq ta'limi a'lochisi Hojiboy Soburov,-o'quvchilar test sinovlari asosida tanlab olinadi. Ellikqal'a, To'rtkul va Beruniy tumanlaridan 225 nafar qaldirg'och o'quvchilar qabul qilinadi²². Ularning chuqur bilim olishlari, ma'naviyat va ma'rifat chuqqilarini egallashlari uchun qulay shart-sharoitlar muhayyo.

²¹ Эллиққалъа – гуллаётган ўлка. Ўзбекистон Республикаси мустақиллигининг 10 йиллигига бағишланган. // Бўстон шаҳри, 2001 йил, июнь. -Б.21

²² Эллиққалъа – гуллаётган ўлка. Ўзбекистон Республикаси мустақиллигининг 10 йиллигига бағишланган. // Бўстон шаҳри, 2001 йил, июнь. -Б.22

Tuman xalq ta'limi bo'limiga qarashli 64 ta umuta'lim maktablari, 5 ta iste'dod maktablari, 13 ta maktab-bog'cha majmuasi, 5 ta bolalar bog'chasi, 4 ta maktabdan tashqari tarbiya muassasalari, 1 ta o'quv-ishlab chiqarish kombinati, 1 ta til markazi faoliyat ko'rsatmoqda. Bu ta'lim-tarbiya maskanlarida tahsil olayotgan 31000 dan ortiq o'quvchilarga 2351 nafar o'qituvchi bilim sirlarini o'rgatmoqdalar.

Tuman maorifchilari tomonidan kelajak avlodni davrimizning munosib kishilari qilib tarbiyalashdek sharaflı vazifa sidqidildan bajarilmoqda. Hozirgi kunda zamon talablariga javob beradigan yuqori malakali, oliy ma'lumotli mutaxassis kadrlar tayyorlash asosiy maqsad bo'lib qolmoqda. Kadrlar tayyorlash muammosini hal qilish maqsadida tumanda tashkil qilingan 5 ta iste'dod maktablari qoshida 11-sinfni bitkazuvchilar uchun oliy o'quv yurtlariga kiruvchilarni tayyorlaydigan maxsus kurslar har yili tashkil qilinmoqda. Bu kurslarda tahsil olgan yoshlardan 1997 yili 173 o'quvchi, 1998 yili 229 o'quvchi, 1999 yili 246 o'quvchi, 2000 yili 280 o'quvchi oliy o'quv yurtlariga kirishga muvaffaq bo'ldilar.

Tuman o'qituvchilari va o'quvchilari respublika miqyosida o'tkazilayotgan tadbirlarda faol qatnashib, o'z bilim va mahoratlarini namoyish qilmoqda. 1998 yil avgust oyida Bo'ston shahridagi 1-iste'dod maktabining 6 nafar o'quvchisi «Aks sado» yoshlar teleko'rsatuvida qatnashib, yurtboshimizning o'z qo'llari bilan «Katta ishonch va umid bilan» degan so'zlar bitilgan «Buyuk kelajak sari» kitobini sovg'a tarzida olishga muvaffaq bo'ldilar²³.

Tumanda moziy mo'ljizalari gavdalangan bir go'sha bor. Mustaqillikka tengdosh tuman arxeologiya va tarix muzeyi 1991 yilning 22 sentyabrida o'z faoliyatini boshladi.

Bugungi kunda 4,5 mingdan ortiq eksponatlar jamlangan bu dargohda 3 ta bo'lim bo'lib, antik davrdagi kuhna Xorazm tarixi va madaniyatini, o'rta asrdagi yurtimiz tarixini, tuman tarixini o'zida mujassamlaydi.

²³ Эллиққалъа – гуллаётган ўлка. Ўзбекистон Республикаси мустақиллигининг 10 йиллигига бағишланган. // Бўстон шаҳри, 2001 йил, июнь. -Б.23

Tumanga tashrif buyurgan mehmon va har bir chet ellik sayyoh bu asoriatlarni hayratlanib tomosha qiladilar. Avlodlar o`rtasidagi muhim zanjir bo`lgan tarixiy muzey kelgusi naslga yaxshi ishlarning yorqin oynasi bo`lib xizmat qiladi²⁴.

Yurtimizda yosh avlodni bilimdon, sog`lom va jismonan baquvvat qilib tarbiyalashdek muhim ishga alohida e`tibor qaratilmoqda. O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 27 maydagi «Jismoniy tarbiya va sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to`g`risida»gi qarori bu borada qilinayotgan ishlarga tag`inda ruh bag`ishladi. Ellikqal`a tumanida ham mazkur qaror asosida Dastur ishlab chiqilib, jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish imkoniyati ishga solindi.

Bugungi kunda tumanda 46682 nafar kishi sport bilan muntazam shug`ullanishadi. Ularning 32000 nafari maktab o`quvchilaridir. 150 dan ziyod jismoniy tarbiya uqituvchilari sport bilan shug`ullanuvchilarga murabbiylik qilishadi. Yoshlarning bo`sh vaqtlarini mazmunli o`tkazishni tashkil qilish, ularni sport bilan shug`ullanishga, sog`lomlashtirish tadbirlariga tortishga alohida kungil bo`linmoqda. Tumanda 202 ta sport sektsiyalari va to`garaklari muntazam faoliyat ko`rsatmoqda. Ularning moddiy bazasini yaxshilash bo`yicha bir qancha ishlar qilindi. To`garaklar va sport sektsiyalarida bugungi kunda 3358 nafar kishi shug`ullanishadi.

Tumanda sportning milliy turlarini rivojlantirishga ham alohida e`tibor qaratilayapti. Tuman hokimi qaroriga asosan 11 ta tur bo`yicha to`la shart-sharoitlar yaratib, musobaqalar o`tkazilib kelinmoqda. Har yili an`anaviy tarzda o`tkazilayotgan kurash oyligi bu sport turining ommaviyligini tag`inda oshirmoqda. Mazkur kurash musobaqalarida al-Xorazmiy nomli va «Ellikqal`a» fermer xo`jaliklari uyushmasi polvonlari yaxshi natijalarni qo`lga kiritayaptilar²⁵.

Yil sayin chiroy ochib, ko`zni quvontirayotgan Bo`ston shahri ko`rkiga «Supermarket» zamonaviy savdo markazi yanada ko`rk bo`lib qo`shildi. Besh qavatli

²⁴ Эллиққалъа – гуллаётган ўлка. Ўзбекистон Республикаси мустақиллигининг 10 йиллигига бағишланган. // Бўстон шаҳри, 2001 йил, июнь. -Б.25

²⁵ Эллиққалъа – гуллаётган ўлка. Ўзбекистон Республикаси мустақиллигининг 10 йиллигига бағишланган. // Бўстон шаҳри, 2001 йил, июнь. -Б.26

maqobatli binoning birinchi qavatiga joylashgan 220 kvadrat metrni egallagan shinam zalda 500 xildan ortiq oziq-ovqat, madaniy-maishiy, ruzg`or buyumlari savdoga qo`yilgan.

Bozor talablariga mos, qaridorlarning ehtiyojlarini inobatga olgan holda xizmat tashkil etilganligi, ayniqsa kishini quvontiradi. Sakkizta bo`limdagi mollarni maxsus tayyorgarlikka ega 4 ta sotuvchi madaniyatli xizmati bilan xaridorlarga taqdim etadilar. O`z ishining fidoyisi, tajribali savdo xodimi Tongotar Sodiqov rahbarlik qilayotgan bu zamonaviy savdo markazi «O`zbekbirlashuv» korporatsiyasining «O`zbekmatlubot» savdo uyushmasiga qarashli bo`lib, shu kun talabi darajasida xalqqa namunali xizmat ko`rsatmoqda.

-Bozor iqtisodiyoti sharoiti-bu raqobat ham demakdir,-deydi T.Sodiqov,-shu bois, yanada xalqimizga yaxshiroq xizmat ko`rsatish uchun, qulayliklar yaratish borasida izlanayapmiz. Mahsulotlarning juda sifatli, ustiga-ustak arzon bo`lishi uchun qayg`urayapmiz. Birinchi navbatda o`zimizda ishlab chiqarilayotgan oziq-ovqat mahsulotlarini zamon talabi darajasida xalqimizga taqdim etishga harakat qilayotirmiz. Ishimiz xaridorlarga manzur bo`layotganidan hursandmiz²⁶.

²⁶ Эллиққалъа – гуллаётган ўлка. Ўзбекистон Республикаси мустақиллигининг 10 йиллигига бағишланган. // Бўстон шаҳри, 2001 йил, июнь. -Б.30

Xulosa

Davlatimizning o'z mustaqilligini olishi bilan xalq xo'jaligining boshqa sohaları singari ilm va fanda, shu bilan birga xalqimiz, davlatimiz tarixini yangicha o'rganishga keng imkoniyatlar tug'ildi.

Unga ilmning tarix va arxeologiya sohalaridagi so'nggi 20 yil davomidagi yutuqlari yorqin dalil bo'la oladi.

Qoraqalpog'iston tarixiy-arxeologik va madaniy yodgorliklarga boy bo'lgan Qadimgi Xorazm erlarida joylashgan. Bu o'lka o'rta sharqdagi qadimgi madaniyat markazlaridan biri bo'lgan. Qadimgi Oks(Amudaryo) janubiy Orolbo'yi xalqlarining tarixida katta ahamiyatga ega bo'lgan. Amudaryo havzasida bundan 3.5 ming yil avval dehqonchilik markazlari paydo bo'ladi. O'rta Osiyodagi eng qadimgi mamlakatlarning biri bo'lgan Xorazm podsholigi janubiy Orolbo'yida vujudga keldi. Antik va o'rta asrlarda qadimgi Oks daryosining bo'ylarida qal'a madaniyati, hunarmandchilik va savdo rivojlandi. Bizning davrimizgacha saqlanib qolgan Guldursinqal'a, Ayozaqal'a, Qirg'izqal'a, Yakka Porson, Qavatqal'a va boshqa yodgorliklar buning yaqqol misoli bo'ladi.

So'nggi 10-15 yillar ichida tarixiy arxeologik, etnologik, antropologik tadqiqodlar, janubiy Orolbo'yi xalqlari tarixini yangi materiallar bilan boyitdi. Ellikqal'a tumani hududi, yuqorida ko'rib chiqqanimizday, yodgorliklarga eng boy tumanlarning biri hisoblanadi. Ularning tarkibiga tosh davridan to XIV asrlar oralig'idagi yodgorliklar kiradi. Ularning orasida mahalliy xalq orasida afsonaga aylanib, xar xil rivoyatlarga ega Guldursin, Ayozaqal'a, Burgutqal'a, Qavatqal'a, Norinjon qal'a singari yodgorliklar bor. Biz bu yodgorlikliklarni xronologik tomondan ikki davrga bo'lib o'rganishda arxeologlarimiz tomonidan yozilgan ilmiy kitoblarda va gazeta varaqlaridagi maqolalardan keng foydalandik. Shuningdek, O'zbekiston Fanlar Akademiyasi Qoraqalpog'iston bo'limi olimlari yozgan asarlari majmuasidan Nukus davlat pedagogika instituti Tarix kafedrasida faoliyat

yuritayotgan professor-o`qituvchilarning qo`lyozmalari, keng fikr mulohazalaridan foydalandik.

Qadimgi davr yodgorliklari orasida Tuproqqal`aga alohida e`tiborimizni qaratib, u haqida boshqa yodgorliklarga nisbatan kengroq ma`lumot keltirishga harakat etdik. Tuproqqal`adan boshqa qadimgi davrlarga tegishli 10 dan ziyod yodgorliklar haqida qisqacha bayonot beriladi.

Qadimgi davr va o`rta asr davridagi ya`ni, VI-VIII va IX-XIV asrlarga tegishli ma`lumotlarni to`plab, bir qismini berishga harakat etdik. Ularnig qatoriga Ayir-qal`a, Ayozaqal`a, №2 Kichik Guldursin qal`a, Bo`ronqal`a, Qavatqal`a, Narinjonqal`a, Teshikqal`a, Uyqal`a, Yakka Porson singari 10 lab yodgorliklar kiradi.

Yodgorliklar elimizning qulchilikdan feodal davrlariga o`tganidan keyingi madaniyatini, me`moriy qurilishlarini, faqat ijtimoiy xolatlarini o`rganish bilan cheklanib qolmay bugungi kunda yoshlarimizni Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalashda katta ahamiyatga ega.

Xorazmda dehqonchilikning rivojlanishida katta ko`llar va Amudaryoning toshqin suvlari katta ahamiyatga ega bo`lgan. Suv toshqinlari vaqtida suv bosib qolgan erlarga suv qaytgandan so`ng urug` sepilib, kelgusi yili hosilni yig`ib olishgan. Shu bilan bir davrda asta-sekin sug`orish ishlari olib borilgan ekin ekish paydo bo`lgan. Xorazm va O`zbekistonning boshqa hududlarida olib borilgan tadqiqod ishlarida topilgan ma`lumotlardan ayon bo`ldiki, qadimgi dehqonlar va chorvadorlar doimiy yaqin aloqada bo`lishgan. Bir birlari bilan yaqin madaniy xo`jalik tajribalarini o`rganib turganlar. Bronza va ilk temir davrida ana shunday rivojlanishning asosiy belgilaridan biri bu agrar xo`jalik va hunarmardchilikdagi keskin o`zgarish bo`lib, ularning taraqqiyoti bevosita sug`oma dehqonchilik va chorvachilikning rivojlanishinatisida bo`lgan degan fikrlar mavjud.

Hozirgi vaqtda O`zbekiston Respublikasida 10 dan oshiq xalqaro arxeologik ekspeditsiyani birin ketin respublikamizda hozirgi biz so`z yuritayotgan Beruniy tumani xududida olib bormoqda. Ekspeditsiyalar asosan Toshqirmon tepa,

Aqchaxon qal'a, Qoratepa va hokazo esdaliklarida, shuningdek qadimgi davrdagi sug'orish inshootlari, kanallari bilan dehqonchilik erlarida tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Bu tadqiqotlar XX asrning 90 yillariga qadar Beruniy tumani xududida olib borildi.

Masalan, XX asrning 30 yillarida o'z tadqiqotlarini boshlagan akademik Ya.G'.G'ulamov, professor S.P.Tolstov va ular boshqargan ekspeditsiya a'zolari esdaliklarni o'rganishni boshlab bergan bo'lsa, hozirgi vaqtda bu in yanada to'liqtirilmoqda. 1998-yili vatandoshimiz Al Beruniyning tug'ilganiga 1025-yil to'lishiga binoan may va sentyabr oylarida xalqaro miqyosda ilmiy-amaliy konferentsiyalar o'tkazildi. Alohida ta'kidlab aytadigan bo'lsak, bu yo'nalishda tumanda sharaflilar ishlari olib borilmoqda. Bunda vatandoshimiz Beruniy zamonining meroslarini yig'ish, ularni o'rganish bo'yicha xalqaro fond tuzildi. Vatandoshimiz Al Beruniyning G'azna shahridagi «Afganistan» qabristonidan tuproq olib kelinib, o'zining kindik qoni to'kilgan shahrida ya'ni Katga unga bag'ishlab mavzoley kompleksi qurildi. Shunday sharaflilar ishlarning yo'lga qo'yilishi bu davlatimizning mustaqilligi sharofati bilan amalga oshirilmoqda.

Qoraqalpog'iston Respublikasida, shu jumladan Beruniy tumanida keyingi yillarda ijtimoiy tarmoqlarni rivojlantirish bo'yicha katta ishlari amalga oshirilmoqda. Bu yangi islohotlarni amalga oshirishda va aholiga xizmat ko'rsatish sferalarini rivojlantirishdagi yaxshi boshlamalar qatoriga kiradi. Beruniy tumani aholisining moddiy obodonligini orttirishda jamoa tutinish fondi, ijtimoiy ta'minlash, meditsina sohasi bo'yicha xizmat ko'rsatish, xalq. ta'limi va boshqa tarmoqlar katta rol uynaydi.

Kutubxona, klub va kinoteatrlar tarmoqlarini yanada rivojlantirish taklif etiladi.

Shuningdek, jismoniy tarbiya va sport hamda turar joy kommunal xo'jaliklarining hozirgi holatini va kelajakdagi rivojlanishi bo'yicha monitoring o'tkazib borish, tarixiy joylarni obodonlashtirish, qadim qal'alar asosida «Ochiq Osmon» muzeyini tashkil etish kabilarni taklif qilamiz.

ILOVALAR

Ellikqal`a tumani aholisining milliy tarkibi 01.01.2012 yilga
(kishi)

Millati	Aholi soni	%
Qoraqalpoqlar	5976	4,3
O`zbeklar	107406	78,1
Qozoqlar	13961	10,1
Turkmanlar	10039	7,3
Ruslar	47	0,03
Tatar	136	0,09
Boshqalar	128	0,08
JAMI TUMAN BO`YICHa:	137693	100

Ijtimoiy, madaniy va maishiy ob`ektlarning ishga tushirilishi

KO`RSATKICHLAR	2011 yil	2012 yil	2012 yil % 2011 yilga
Umum ta`lim maktablari qurilishi (uk.urni)	1/160	2/760	-
Sh.j. akademik litseylar va kollej o`quvchi o`rni (yotoqxona)	1/50	2/760	
shu jumladan qishloqlarda	-	-	-
Kasb-hunar kollejlari qurilishi	-	-	-
Kasalxonalar qurilishi (joy)	-	1/345	-
Poliklinika va boshqa sog`liqni saqlash ob`ektlari qurilishi	-	-	-
Madaniyat saroylari va klublari qurilishi, o`rin	-	-	-
Aloqa bo`limi shaxobchalari	-	-	-

2011 yilda maishiy xizmat ko`rsatkichlari

KO`RSATKICHLAR	Korxonalar soni birlik	Ishlovchilar soni	Ko`rsatgan xizmat hajmi, ming summ	Xizmat hajmida ulushi %
JAMI :	65	241	787700	100
Nodavlat korxonalar	65	241	787700	100
Shundan:				
Xususiyl korxonalar	65	241	787700	100
Boshqalar				

Madaniyat

KO`RSATKICHLAR	2011 yil	2012 yil
Ommaviy va bolalar kutubxonalari	55	55
Ulardagi kitoblar soni	291384	293420
Axborot resurs markazi	5	5
Ulardagi kitoblar soni	2765	2890
Klub muassasalari	11	7
Ulardagi tugaraklar soni	44	45
Tugaraklarda qatnashadigan kishilar soni	860	980
Muzeylar	1	1
-ulkashunoslik bo`yicha	1	1
Bolalar musiqa maktablari	1	1
Istiroxat va madaniyat bog`lari	1	1
Kinoqurilmalar soni		
Shulardan		
Kinoteatrlar	1	1
Ulardagi joylar soni	900	900
Kinoqurilmalar soni	18	18
Ulardagi joylar soni		
Ko`chma kinoqurilmalar soni	1	1

O`rta maxsus o`quv yurtlari.

Ko`rsatkichlar	2011 yil	2012 yil
O`rta maxsus o`quv yurtlari, bir	6	6
Talabalar, kishi	7097	6903
Akademik litseylar	1	1
O`quvchilar, kishi	965	948
Ulardan		
Kunduzgi bo`linmalarda	7097	6903
Kechki bo`linmalarda		
O`rta maxsus o`quv yurtalarida o`qituvchilar soni, kishi	524	549

Sport

Ko`rsatkichlar	2011 yil	2012 yil
Stadionlar soni	3	3
Suv basseynlari	1	1
Sport zallari	44	58
Otish uchun tirlar	-	-
Basketbol maydonchalari	56	59
Voleybol maydonchalari	63	65

Ko`rsatkichlar	2011 yil	2012 yil
Qo`l to`pi uchun maydonchalar	37	39
Tennis kortlari	6	7
Futbol maydonchalari	79	82
Kichik futbol uchun maydonchalar	38	39
Bolalar va o`smirlar sport maktablari	1	1
Jismoniy tarbiya va sport jamiyatlari	2	2
Sport bilan doimiy shug`ullanadiganlar soni	640	970
Ulardan		
Sport seksiyalariga qatnashadiganlar	8881	9120
Ommaviy razryad bo`yicha tayyorlangan sportchilar soni	640	970
1-razryad sportchilar va sport ustaligiga nomzodlar	18	21
Sport ustalari	2	2
O`zbekiston terma jamoasi a`zolari	-	-

Xalq ta`limi

Ko`rsatkichlar	2011 yil	2012 yil
Umumta`lim maktablar	71	71
Ulardan		
Litsey	1	1
Maxsus maktab-internatlar	1	1
O`quvchilar soni	21714	21411
O`qituvchilar soni	2414	2300
Kasb-hunar bilim yurtlari	6	6
Talabalar soni	7097	7851
Maktabgacha muassasalar	24	24
- ulardan		
Xalq ta`limi vazirligi		
Boshqa muassalar, jamoat tashilotlari		
Uydagi bolalar bog`chalari soni		
Maktabgacha muassasalarda		
Tarbiyalanuvchilar soni	1710	1760
Shu jumladan xalq ta`limi	1710	1760
-boshqa korxona va tashkilotlar	-	-
Uydagi bolalar bog`chalari tarbiyalanuvchilar soni	-	-

**Ellikqal`a tumanida o`zini o`zi boshqarish organlari haqida
ayrim ma`lumotlar**

Tumanlar	1
Qishloq ovullari	13
Shaxardagi mahallalar	6
Qishloqdagi mahallalar	10
Viloyat qaramog`ida shaharlar	-
Tuman qaramog`ida shaharlar	1
Aholi punktlari soni	85

Beruniy tumani bo`yicha aholi soni

K o` r s a t k i c h l a r	2012 y
- O`rtacha yillik aholi soni(ming kishi)	163,1
shu jumladan	
-Shahar aholisi	63,5
-Qishloq aholisi	99,6
- Jami aholi soniga nisbatan foiz % xisobida	
-Shahar aholisi	38,9
-Qishloq aholisi	61,1
-Jami aholi sonidan (ming.kishi)	
-Erkaklar	82,3
-Ayollar	80,8
-Jami aholi soniga nisbatan foiz hisobida	
-Erkaklar	50,5
-Ayollar	49,5

Beruniy tumani aholisining milliy tarkibi 01.01.2012 yilga

K o` r s a t k i c h l a r	Aholi soni	%
Qoraqalpoqlar	10,5	6,4
O`zbeklar	105,5	64,7
Qozoqlar	34,0	20,9
Tajiklar	-	-
Ruslar	0,4	0,3
Tatarlar	0,6	0,4
Крым татарlar	-	-
Qirg`izlar	-	-
Ukrainlar	0,03	0,02
Koreytslar	0,1	0,06
Turk-mesxetinlar	-	-
Armanlar	-	-
Azerbaydjanlar	-	-

K o` r s a t k i c h l a r	Aholi soni	%
Turkmanlar	11,8	7,1
Uygurlar	-	-
va boshqalar	0,2	0,13

Sport

K U R S A T K I C h L A R	2012y
Stadionlar soni	1
Basseymlar	-
Sport zallar	57
Basketbol` maydonlari	48
Voleybol` maydonlari	82
Kul tupi uchun maydon	38
Tennis kordlari	1
Futbol maydonlari	72
Kichik futbol maydonlari	38
Bolalar va o`smirlar sport maktablari	3
6 yoshdan- 16 yoshgacha sport bilan shug`ullanuvchilar soni shundan:	41440
sport seksiyalarda shug`ullanuvchilar soni	13274
1 razryadli va masterlikka nomzodlar soni	85
Sport masterlari	-
Xalqaro toifadagi sport masterlari	-
O`zbekiston terma komandasi a`zolari	1

Madaniyat

K U R S A T K I C h L A R	2012y
Umumiy kuzi ojizlar kutubxonasi va ulardagi mavjud kitoblar	
Muzey:	5625
-arxeologik	-
-xalq ijodiy	-
Bolalar san`ati va musiqa maktabi	-
Istrohat bog`i	1
Kino qurilmalar soni	-
shundan:	
Kinoteatrlar	
Ulardagi o`rindiqlar soni	-
Ko`chma kinoqurilmalar soni	-
Qiziquvchilar klubi	-
Tuman madaniyat uyi	2
Shahar madaniyat uyi	2
Madaniyat saroyi	1
Qishloq klubi	1
Qishloq madaniyat uyi	12
Avtoda`vatxona	6
Xalk teatri	-
Klub muassasalari	1
Ulardagi to`garaklar	22
To`garakda qatnashuvchilar soni	109
Texnik ijodiyoti to`garaklari	1535
Qatnashuvchilar	12
	248

Foydalangan adabiyotlar ro'yxati.

1. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. –T., O'zbekiston, 1997.
2. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. -T., Sharq. 1998.
3. Karimov I.A. O'z kelajagimizni o'z qo'limiz bilan qurmokdamiz». «Turkiston» gazetasi muxbirining savollariga javoblar. –T., «O'zbekiston». -1999.
4. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat - engilmas kuch. -T., «Ma'naviyat», 2008.
5. Abu Rayxon Beruniy. Asarlar t. I: «Osar ul boqiya». T.,
6. Tolstov.S.P. «Drevnee Xorazm» M., 1948 g.
7. Tolstov S.P. «Po sledom drevno xorazmskiy tsivilizatsii» M., 1948 g.
8. Gulyamov Ya.G. «Istoriya orotekiya Xorazma s drevneynix vremen do nashix dney» T., 1957g
9. Tolstov S.P. « Po drevnim del'tom Oksa i Yaksarta» M., 1962 g.
- 10.Andrianov B.V. «Drevnie orositel'nie sistemy Priaral'ya» M., 1969 g.
11. «Istoriya orotekiya Xorazma s drevneynix vremen do nashix dney» T., 1976g
12. Yagodin V.N. «Qadimgi madaniyat boyliklari» Nukus, 1979y
13. Mambetullaev M, Yusupov N, Xojaniyazov G`, Matrasulov Sh. Xiva po itogam issledovaniy 1984 goda. Vestnik KK FAN UzSSR, №3, 1985, s 76-84; №2, 1986, s. 34-40;
14. Vinogradov A.V. ,Itina M.A., Yablonskiy L.T. «Drevneyshie naselenie nauko Amudar'ya» M., 1986g.
15. Mambetullaev M., Yagodin V.N. K otsenke xronologii i istoricheskoy dinamiki kul'turnogo sloya drevney Xivы. ONUz, №8,1986.
16. Mambetullaev M, Xodjaniyazov G`. Raboty Xivinskogo otryada, arxeologicheskie otkrytiya. 1984 goda. M., «Nauka», 1986.
17. «Istoriya Karakalpakskiy ASSR» T., 1986g
18. Xojaniyazov G`. «Новые данные об оборонitel'ных сооруженix Ayazkala №3 Vesnik KK FAN RUZ №4, 1987 g

19. Mambetullaev M, Matrasulov Sh. Izuchenie stratigrafii g Xivы. Vestnik KKFAN UzSSR, №3, 1988.
20. Mambetullaev M. Razrez krepostnoy steny Ichankaly. Vestnik KK FAN UzSSR, №4, 1989.
21. Xojaniyazov G`. «Gorodishe Malыy Kirkkizkala pamyatnik ranneantishnogo Xorazma arxeologiya priaral`ya Vыp. IV». Tashkent, 1990 g
22. Mambetullaev M. Raskopki oboronitel`nyx soorujenii Xivы. Vestnik KK FAN UzSSR, №4, 1992.
23. «Istoriya narodov Uzbekistana» T., 1992g
24. Kamalov S.K., Qoshanov A. «Qoraqalpog`iston tarixi» Nukus, 1993 y
25. Mambetullaev M. Istoriya i kul`tura Yujnogo Xorezma antichnoy epoxi, (goroda i poseleniya v IV v do n.e. - `ga.n.e.) ADTs. -T., 1994.
26. Asqarov A. «O`zbekiston tarixi» Nukus, 1995 y
27. «Xorazm tarixi» Urganch, 1996 y
28. Xojaniyazov G`. «Bol`shoy Kirkkizkala» (K voprosu o funktsii i xronologii) Vesnik KKO AN RUZ, №3, 1997 g
29. Xodjaniyazov G`. Beruniydyң tuo`ylg`an qalasы qiyat haqqыnda jazba derekler. Qarakalpaqstan jaslarы. 18 may. 1998. №23 (6954).
30. Xodjaniyazov G`.X. «Akchaxon» yoki tarixda ming yil jumboq bo`lib kelgan noma`lum qal`a haqida. Jayxun №1 Nukus 1999.
31. Matniyozov M, Sotlikov A. Xorazm jahon tarixi va madaniyatida. Urganch, «Xorazm», 1999.
32. O`zbekiston tarixi. -T.,Universitet. 1999.
33. Xojaniyazov G`. «Narindjan-unikal`ni pamyatnik sernernevekov`e Vesnik KKO AN RUZ, №3, 1999g
34. Azamat Ziyo. O`zbek davlatchiligi tarixi. -T., 2000.
35. Xodjaniyazov G`. Syurprizы Akchaxan kalы. Vestnik Karakalpakstana. 28 oktyabrya. 2000. №87.

36. Kamalov.S.K, Xojaniyazov G`. «O`tmishi zo`r, keajagi buyuk makon» «Erkin Qoraqalpog`iston» 20-yanvar`, 2000 y
37. Xodjaniyazov G`, Yagodin G. Xelles, Makleran, 2001.
38. Yagodin V.N, Xelmos U.S, Xojaniyazov G`, Maklerin B.P. Raskopki Akchaxan kalы .Sbornik arxeologicheskoy issledovanie v Uzbekistane. 2000 g. Samarkand 2001.
39. Madaminov M. Xorazmning qadimiy va o`rta asrlar shaharsozligi tarixi. – T., «Istiqlol»-2009.
40. O`zbekiston Respublikasi Qoraqalpog`iston Respublikasi Beruniy tumani. 2012 yil 1 yanvar holatiga Pasporti. Beruniy . 2012.

Internet materiallari

- WWW.gogoole. com.
- WWW. Rambler. ru.
- WWW. Ca-C. Org/journal/. Istoriya Uzbekistana